

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

A. Rafiyev, R. Niyozmetova, F. Dulabov

O‘ZBEK TILI

*Kasb-hunar kollejlarining rus guruhлари uchun
o‘quv qo‘llanma*

*Oliy va o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu qo'llanma kollejlarning ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlari talabalarining o'zbek tilidan o'g'zaki va yozma nutqlarini boyitish maqsadida tayyorlangan.

Qo'llanma ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan «O'zbek tili» namunaviy o'quv dasturi (120 soat) asosida yaratilgan. Qo'llanmadagi o'quv materiallari dasturining jami 24 ta nutqiy mavzusiga muvofiq tarzda tanlangan bo'lib, o'rganilishi oson va qiziqarli usulda bayon etilgan. Asosiy e'tibor talabalarining mustaqil ravishda o'zbekcha matn ustida ishlashlari, topshiriqlarni ijodiy bajarishlariga, grammatik bilimlarni amaliy egallashlariga qaratilgan. Shunga ko'ra, turli mazmundagi adabiy-badiiy matnlar bilan ishlashga oid topshiriqlar, yozma nutqni o'stirish bo'yicha mashqlar, izohlangan qoidalarga keng o'rin berilgan.

Ilovada iqtidorli talabalar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun berilgan adabiy matnlar, o'zbekcha-ruscha lug'at ham o'zbek tilini puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Taqrizchilar: **S. ODILOVA** — TDPU katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi; **SH. NABIYEVA** — 1-Toshkent Pedagogika kollejining o'zbek tili o'qituvchisi.

I. TANISHUV VA TARJIMAYI HOL

1-topshiriq. Quyidagi dialoglarni rollarga bo‘lib o‘qing.

Feruza: — Zamir Ibodullayevich, sizga dugonalarimni tanish-tirishga ruxsat bering.

Zamir Ibodullayevich: — Marhamat. Men juda xursand bo‘laman.

Feruza: — Bu Sabohat, bu esa Nargiza. Qizlar, bu kishi Zamir Ibodullayevich, mehmonimiz bo‘ladilar.

Zamir Ibodullayevich: — Tanishganimdan xursandman. Sizlar birga o‘qiysizlarmi?

Qizlar: — Biz ham xursandmiz. Ha, biz birga o‘qiyimiz.

* * *

Ruslan: — Gavhar opa, sizga o‘rtoqlarimni tanishtirsam degandim.

Gavhar opa: — Juda yaxshi.

Ruslan: — Bu — do‘stim Valijon, bu uning ukasi Jaloliddin, bu esa sinfdoshim Bozorboy.

Gavhar opa: — Yaxshimisizlar, yigitlar.

Yigitlar: — Rahmat, yaxshi. O‘zingiz yaxshimisiz?

Gavhar opa: — Rahmat...

1-mashq. Matnni o‘qing. Muomala odobiga oid so‘z va jummalarni ko‘chiring.

....Zerikib, ko‘chaga chiqaman. Bolalar juda ko‘p. Kurash boshlanadi... Bir juft bola kurashga tushadi. Onaboshi jiddiy tusda berilib ta‘qib etadi. Chorakam bir soatmi, xotiramda yo‘q, bular ikkovi zo‘r kurash tushadi. Ikkovi ham jiqqa ter bo‘ladi. Onaboshi:

— Bas, bo‘ldi, balli, otalaringga rahmat! Ikkovlaring ham polvon chiqasizlar, — deydi.

Kurashchilar harsillab ajralishadi.

— Oting nima? Qaysi mahalladan bo‘lasan? — so‘raydi biri ikkinchisidan, terlarini artib, mag‘rur holda.

— Ko'kchadanman, otim Bo'taboy. O'zing-chi? — so'raydi ikkinchisi.

Yerga o'tirib olgan birinchi kurashchi:

— Shayxontovurdan bo'laman. Hech kimim yo'q. Yolg'iz bir kampir-u men. G'isht quyaman. Ishim shu. Ko'rdingmi, bilagim pay? — deydi qo'llariga ishora qilib.

Men so'zga aralashaman:

— Ko'kchada qarindoshlarim ko'p. Tanidim, — deyman birinchi kurashchiga. — Lekin zo'r polvon bo'lasan....

(Oybek. «Bolalik xotiralarim»)

2-topshiriq. «Tanishtirishga ruxsat bering» rolli o'yinida ishtirok eting. Sinfdozlaringizni, do'stlaringizni, dugonalaringizni bir-biri bilan tanishtiring.

Eslab qoling!

Men va **biz** olmoshlari so'zlovchini, **sen** va **siz** olmoshlari tinglovchini, **u** va **ular** olmoshlari nutq jarayonida qatnashmayotgan shaxs yoki narsani ifodalaydi. Bu olmoshlar gapda ish-harakatning bajaruvchisi (subyekt) bo'lib kelganda kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. Masalan:

Biz tanishdik (tanishamiz)

Sen o'qiding (o'qiysan)

Qiyoslang:

Birlik	Shaxs	Ko'plik
Men tanishdi m , tanisha man	I	Biz tanishdi k , tanisha miz
Sen tanishdi ng , tanisha san	II	Siz tanishdi ngiz , tanisha siz
U tanish di , tanisha di	III	Ular tanish di(lar) , tanisha di(lar)

2-mashq. Nuqtalar o'rniga olmosh yoki shaxs-son qo'shimchalarini qo'ying va ko'chiring.

1. Siz o'sha qo'shiqchini taniy....mi? 2. Darsdan keyin.... o'yingohda to'plandik. 3. Bugun men senga mashhur sportchini ko'rsata.... 4. Usta kirgach, dastgohlar oldida saf tortdi... 5. Shoshma,.... u bilan shu yerda uchrashasan.

3-topshiriq. Quyidagi dialoglarni rollarga bo'lib o'qing.

Furqat: — Kechirasiz, siz Ikrom Abdullayevich bo'lasizmi?

Ikrom Abdullayevich: — Ha, xuddi shunday.

Furqat: — Assalomu alaykum, o'zimni tanishtirishga ijozat bering, men Furqat Ahmedov bo'laman. Mashinasozlik kollejining 1-bosqich talabasiman.

Ikrom Abdullayevich: — Juda yaxshi. O'qishlaringiz yaxshimi?

Furqat: — Rahmat, yaxshi. Menga sizni kollejimizga olib borish topshirilgan. Talabalar sizni kutishyapti.

Ikrom Abdullayevich: — Rahmat, Furqatjon. Qani, qayoqqa yuramiz?

Furqat: — Marhamat, bu yoqqa... .

* * *

Sarvara: — Assalomu alaykum. Kirsam mumkinmi?

Komil Hamidov: — Vaalaykum assalom. Marhamat, keling.

Sarvara: — O'zimni tanitsam: men Sarvara Hikmatova bo'laman.

Komil Hamidov: — Juda yaxshi. Qayerda o'qiyasiz?

Sarvara: — Pedagogika kollejida o'qiyman. Men voleybol to'garagiga qatnashmoqchi edim.

Komil Hamidov: — Juda yaxshi....

3-mashq. Tarjimayi hol namunasini o'qing va topshiriqni bajaring.

Tarjimayi hol

Men, Hasanova Sabohat Otabekovna, 1990-yil 15-yanvarda Xorazm viloyatining Xiva shahrida tug'ildim. Otam, Hasanov Otabek, gilamchilik fabrikasida ishchi. onam Matkarimova Maqsuda Bahodirovna «Go'zal» nomli bolalar bog'chasida tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1997-yildan 2005-yilgacha Xiva shahridagi 10-oʻrta maktabda oʻqidim.

Hozir Toshkent kompyuter texnologiyasi kollejining 1-bosqich talabasiman.

Mening turar joyim: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Xalqlar doʻstligi koʻchasi 16-uy.

16. 03. 2006

S. Hasanova



Topshiriq

Berilgan namuna asosida oʻz tarjimai holingizni yozing.

3-topshiriq. Matnni oʻqib, qayta hikoya qiling va shu asosda rasmda tasvirlangan allomalarning tarjimai holini soʻzlab bering.



Hamid Olimjon

Atoqli shoir Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tavallud topdi.

1916-yilda roʻy bergan Jizzax qoʻzgʻoloni va uning shafqatsizlik bilan bostirilishi boʻlajak shoirning xotirasiga bir umrga oʻyilib yozilib qoldi. Shu bilan birga onasi Komila ayaning sehrli ertaklari, Fozil Yoʻldosh oʻgʻlining oʻqtin-oʻqtin Jizzaxga kelib, ular xonadonida doston aytishlari Abdulhamid xayolot olamining kengayishiga, unda soʻz sanʼatiga havas uygʻonishiga sabab boʻldi.

Abdulhamid Narimonov nomidagi oʻrta maktabni tugatib, Samarqandga oʻqishga borgan. Dastlab pedagogika bilim yurtida, soʻng Pedagogika akademiyasida oʻqigan. Ana shu oʻquv yurtlarida tahsil koʻrgan yillarda sheʼr yoza boshlagan. Abdulhamid hali Pedakademiyani tugatmay turib, 1929-yildayoq «Koʻklam» nomli birinchi sheʼrlar toʻplamini nashr etishga erishgan.

Oʻsha yillari respublikamiz poytaxti Samarqandda edi. 1932-yili, hukumat qaroriga binoan, poytaxt Toshkent shahriga koʻchirildi. Hamid Olimjon ham shu yili Toshkentga koʻchib kelib, adabiy jurnallarning tahririyatlarida, Madaniy qurilish (hozirgi Til va adabiyot) institutida xizmat qiladi. 1938–1939-yillarda esa Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasiga masʼul kotib, buyuk oʻzbek shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan tuzilgan qoʻmitaga ilmiy kotib etib tayinlanadi. Hamid Olimjon har ikki lavozimda astoydil ishlab, adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qoʻshadi.

Hamid Olimjonning adabiy merosi, sheʼriy asarlaridan tashqari, bir necha hikoya, «Muqanna», «Jinoyat» sheʼriy dramalari, oʻnlab publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalari hamda tarjimalardan iborat. Uning qalamiga mansub barcha asarlar shoirning oʻn jildlik «Mukammal asarlar toʻplami»da eʼlon qilingan. Shubhasiz, bu boy merosda sheʼriyat alohida oʻrinni tashkil etadi.

Hamid Olimjon shoir sifatida oʻzbek sheʼriyatining kamolotiga katta hissa qoʻshdi. Uning sheʼrlari musiqiyligi, oʻynoqiligi, ravonligi va badiiy soddaligi bilan ajralib turadi. Uning «Oʻzbekiston», «Oʻrik gullaganda», «Shodlikni kuylaganimning sababi» singari oʻnlab sheʼrlari, «Zaynab va Omon», «Ikki qizning hikoyasi», «Roksananing koʻz yoshlari» singari dostonlari, «Oy-gul bilan Baxtiyor» ertagi oʻzining badiiy latofati bilan oʻquvchini maftun etadi.

Shoir 1944-yil 3-iyulda, ijodi avji gullagan bir paytda, 35 yoshida avtomobil halokati natijasida hayotdan bevaqt koʻz yumgan. Uning qabri Oʻzbekiston Sanʼat muzeyi yaqinidagi Birodarlar qabristonida.

Uyga vazifa. Oʻzingiz yoqtirgan sanʼatkorimizning tarjimai holini yozing.

II. MENING QIZIQISHLARIM VA MASHG'ULOTLARIM

I-mashq. Kasblar haqida namunadagidek dialoglar tuzing va ular asosida suhbatlashing.

— Feruza, sen qaysi kasbni yoqtirasan?

— Tikuvchilik kasbini juda yoqtiraman. Shu maqsadda qisqa muddatli kursda o'qib, tikuvchilikni o'rganmoqchiman. O'zingchi, kim bo'lmoqchisan?

— Senga o'xshab chiroyli kiyimlarni xush ko'raman. Esingda bo'lsa, o'tgan yili tikuvchilikka o'qigan edim. Menga yangi model va maketlar yoqadi. Shuning uchun dizayn yo'nalishida o'qimoqchiman.

* * *

— Do'stim, ikkalamiz tibbiyot institutiga hujjat topshiralmizmi?

— Men bunday demagan edim-ku, Xurshid?!

— To'g'ri, bunday demagansan. Men bir yerda o'qiylik demoqchiman.

— Niyating yaxshi, ammo men hisobchilik kollejiga kirmoqchiman. Menga otamning kasblari juda yoqadi. Otamga o'xshab yaxshi hisobchi bo'lsam deyman.

— Yaxshi o'ylibsan. Xursandman.

I-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Men tanlagan kasb

Men yoshligimdan samolyotlarga juda qiziqaman. Oltinchi sinfdan boshlab yosh texniklar markazidagi to'garakka qatnashaman. Bu yerda samolyotlarning turli modellarini yasadik va uchi-rib ko'rdik. Bunda fizika va matematika fanlaridan olgan bilimlarim katta yordam berdi. Shunday qilib, samolyot yasashga mehr qo'ydim va bu kasbni yoqtirib qoldim. Hozir kollejda samolyotsozlik yo'nalishida o'qiyapman.

O'zbekistonimizda bu soha rivojiga alohida e'tibor berilayapti.



Topshiriqlar

1. Kollejingiz haqida ma'lumotnoma yozing.
2. Kollejingiz manzilini ko'rsatuvchi yo'l ko'rsatkichi tuzing.

2-topshiriq. Berilgan tasvir asosida bayon yozing.



2-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan so'zlarning qanday ma'no ifodalalashini ayting va qo'shimchalarini ko'rsating.

1. **Bilimni** yoshlikda egallaydilar. 2. **Alisherda** she'r yozishga qobiliyati bor. 3. To'garakda bolalarning **qiziqishlarini** e'tiborga oladilar. 4. **Ko'rikda** qatnashishga ruxsat berishdi. 5. Avval **bilimingni** sinaydilar, keyin sen bilan jiddiy shug'ullanadilar. 6. Musobaqaga qatnashuvchilarning **ro'yxatini** ko'rdim.



2-mashq

Tushum (**ni**) yoki o'rin-payt (**-da**) kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlar kimni? nimani? yoki kimda? nimada? so'roqlariga javob bo'lib, gapda obyekt ma'nosini ifodalashi mumkin.


Masalan:

1. Unga yangi **kitobni** ko'rsatdim.
2. **Velosipedda** yurishni yoqtirasizmi?

3-topshiriq. Maqollarning mazmunini aytib bering va ona tilingizga tarjima qiling. Obyekt ma'nosini bildirgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

1. Ko'rganni eshitgan yengibdi.
2. Oдобni odobsizdan o'rgan.
3. Inson o'z qadrini mehnatda topadi.
4. Ona mehrida quyosh tafti bor.
5. Yaxshilik qil, yomonlikni ot.

4-mashq. Berilgan rasm asosida quyidagi suhbatni davom ettiring. Suhbat matnini daftaringizga ko'chiring.



S u h b a t

- Aziz, sening sevimli mashg'uloting nima?
- Men yugurishni yoqtiraman, chunki bu mashg'ulot juda foydali.
- O'zing-chi, bo'sh vaqtingda nima bilan shug'ullanasan?
- Tennis o'ynayman. O'n yoshimdan beri tennisga qiziqaman. Mashhur tennis ustalarining rasmlarini yig'ganman. Yur, biznikiga boraylik, rasmlarimni ko'rsataman.
- Xo'p, hozir ustozimdan ruxsat so'rayman.

5-mashq. Gaplarni ko'chiring. So'ng ularning kesimini aniqlab, qo'shimchalarini ajrating va ma'nosini izohlang.

1. O'quv adabiyotlari ro'yxatini yozib oling.
2. Agar ishonsangiz, avval men kuchimni sinay.
3. Siz o'qing, u eshitsin.
4. Qariyalarga yordam beraylik, bu ishimizdan boshqalar ibrat olsinlar.
5. Qiziquvchan va tirishqoq bo'lsangiz, hayotda orqada qolmaysiz.

Yodda tuting!

Fe'l o'zagiga qo'shiladigan **-(a)y**, **-(a)ylik**, **-(i)ng**, **-(i)ngiz**, **-sin** qo'shimchalari buyruq-istak mayli shaklini hosil qiladi.

Fe'l o'zagi	Buyruq-istak mayli qo'shimchasi	Buyruq-istak maylidagi fe'l	Ma'nosi
ko'r o'qi	-ay, aylik -y, ylik	ko' ray , ko' raylik o'qiy, o'qiylik	istak, da'vat xohish
ko'r o'qi	-ing, -ingiz, -ng, -nglar,	ko' ring , ko' ringiz o'qing, o'qinglar	undash, iltimos
ko'r o'qi	-sin -sin(lar)	ko' rsin oqisinar	buyruq

6-mashq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

....Usta yo'l-yo'lakay o'zi qurgan uylarni ko'zdan kechirib ketdi. Sanab qarasa, guzarga yetguncha o'n olti uyni o'z qo'li bilan qurgan ekan....

Ha, usta qurilishni sevardi! Bundan besh yil muqaddam bir kunda besh ming g'isht tergan paytlari bo'lgan. Goho yigitlardan ikkitasi unga g'isht tashlab yetkaza olmas, usta esa ularni shundoq **ilib olardi-yu**, terib ketaverardi. G'ishti ham ayni ko'zlagan joyiga borib tushaverar, uning bu ishini **tomosha qilgani** manaman degan ustalar kelishardi....

Qurilayotgan shifoxona guzardan atigi yuz ellik qadam narida edi. Bu masofa ustaga Makkadan ham uzoq tuyuldi. Ammo baland peshtoqli **binoga** ko'zi tushishi bilan bu charchoqning hissasi chiqib ketdi.

Shifoxona loyihasini usta o'zi chizgandi. Boshda shahardan kelgan loyiha bo'yicha xonalarning hammasi quyoshga teskari edi, sababi — **betoblar** uchun soya-salqin lozim emish. Bo'lmagan gap!

Avvalo, **olamda** tirik jon yo'qki, unga oftob yoqmasa, qolaversa, dard degan narsa ko'proq **qarilarga** yopishadi, qari odamga esa dori-darmondan ko'ra ham ko'proq issiq kerak!

(*Odil Yoqubov, «Vido»*)

L u g' a t

yo'l-yo'lakay – по пути

ko'zlagan joyi – намечанное место

peshtoq – навес

qolaversa – так же

muqaddam – раньше



Savol va topshiriqlar

1. Usta qanday mashg'ulotni sevar ekan?
2. Usta o'zi qurgan binolardan nega xursand?
3. Ajratilgan so'zlarning ma'nodoshlarini toping.
4. Gaplarning kesimidagi qo'shimchalarni o'zgartirib, matn mazmunini qayta hikoyalang.

Uyga vazifa. O'zingizning sevimli mashg'ulotingiz to'g'risida matn tuzing. Unda buyruq-istak maylidagi fe'llarni qo'llang.

III. SEVIMLI GAZETAM

1-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Har kuni uni varaqlayman. Darsdan qaytgach, u bilan birpas mashg'ul bo'laman. U orqali tengdoshlarim hayoti va qiziqishlari, dunyoda ro'y berayotgan voqealar, ajoyib xabarlar bilan tanishaman. Shuning uchun uni qiziqib o'qiyman. Bu «Turkiston» gazetasi. U mening sevimli gazetam. Har yili unga obuna bo'laman. Bu gazetada tengdoshlarimning hayoti, o'qishi va qiziqishlariga oid ko'p maqolalar bosiladi. Bunday maqolalarni o'qishni juda yoqtiraman. Yaqinda buxorolik do'stim o'qiydigan kolleжда o'tkazilgan «Mohir qo'llar» tanlovi natijalari to'g'risidagi maqolani o'qidim. Nodir ismli bu do'stim ganchdan ajoyib maket yasab, tanlov g'olibi bo'libdi. Darrov unga elektron pochta orqali tabrik yozdim. Ana shunaqa, gazeta juda kerakli narsa. Ayniqsa, gazetaning to'rtinchi sahifasida dunyo yoshlarining qiziqarli faoliyatlari haqida ixcham xabarlar ko'p bo'ladi. Madaniyat va sport xabarlarini ham shu gazetadan o'qib olaman. Xullas, bu gazeta men uchun qadrlı bo'lib qolgan.



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing.
2. *Mashg'ul bo'lmoq, maqola, xabar, obuna* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.
3. O'z sevgan gazetangiz haqida yuqoridagidek matn tayyorlang.

1-mashq. Eshitgan, ko'rgan va bilgan narsa, voqea-hodisalaringiz to'g'risidagi taassurotlaringiz asosida namunadagidek dialoglar tuzing.

Namuna:

1. — Meni hech kim so'ramadimi?
— So'rashdi, ammo men tanimadim.
— Ozg'in, baland bo'yli kishi emasmi?
— Yo'q, u kishi to'ladan kelgan. bo'yi past edi. Qo'lida yashil papkasi ham bor edi.
— Bo'ldi, tanidim. Kursdoshim Tolibjon ekan.
2. — Lobar, senga kechagi konsert yoqdimi?
— Juda ham yoqdi. Qo'shiqchi yosh bo'lsa ham, ovozi jarangdor, yoqimli. Ayniqsa, xalq qo'shiqlarini yaxshi aytar ekan.
— Biror qo'shiqni eslab qoldingmi?
— Albatta! «Ishonaman» qo'shig'i menga juda yoqdi.

2-topshiriq. «Matbuot sahifalarida» mavzusida savol-javob o'tkazing va shu asosda hikoya tuzing.

2-mashq. Berilgan so'z birikmalaridan foydalanib gaplar tuzing.

Zavq bilan tinglamoq; maqola yozmoq; ko'rsatuvni tomosha qilmoq; hikoyani so'zlab bermoq; munosabat bildirmoq.

3-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Kitob — bilim xazinasi

O'qish. Bu faoliyat insonni ulug'laydi, buyuk kashfiyotlarga yo'l ochadi. Ammo bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanmayotganlar ham bor. Insonlar azaldan kitobni muqaddas deb bilganlar. Ko'p kitob o'qish, o'qiganda ham uni tushunib o'qishda hikmat katta.

Kitob o'qishning foydasi haqida Ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu lavha diqqatga sazovor: Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxona bo'lgan, ammo unga kirishga hammaga ham ruxsat etilmagan. Kunlarning birida amir kasal bo'lib qoladi, uni saroy tabiblari davolay olmaydi. Ibn Sino amirni davolaydi. Buning evaziga amir Abu Ali ibn Sinoga kutubxonasidan foydalanishga ruxsat beradi.

Bu boy va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonadagi turli tillardagi va har xil sohaga oid kitoblarni o'qib, u o'zining bilimlarini yanada boyitadi.

Kitob! Undan qudratliroq bilim va hayot maktabi yo'q. Ha, kitob o'qib-o'rganmagan, bu bebaho xazinadan foydalanmagan kishini topish qiyin. Shuning uchun kitobni asrab-avaylaylik, uning ziyosidan boshqalarni ham bahramand etaylik.

L u g' a t

ulg'amoq – возвышать
evaziga – вознаграждение
за услуги
imkoniyat – возможность
ustma-ust – поверхностью

azaldan – с давних времён
ziyo – свет знаний
lavha – пример, отрывок
bahramand – быть обогащённым



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing va ular asosida uni o'z so'zlaringiz bilan qayta hikoyalang.

2. Matndagi atov gaplarni toping, ularning so'z-gaplardan qanday farqlanishini tushuntiring.

3. *Xazina, imkoniyat, bilim, kutubxona* so'zlari ishtirokida atov gaplar tuzing.

Yodda tuting!

Egalik qo'shimchalari predmetning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ko'rsatishdan tashqari, ko'chma ma'nolarda ham qo'llanadi. Masalan:

1. I shaxs ko'plik **(-i) miz)** birlik **(-im)** shakli o'rnida ishlatilsa, turli modal ma'nolarni ifodalaydi:

Kasbimiz shu, haydovchiman. (kamtarlik ma'nosida).
Haydovchilik — kasbimiz. (faxrlanish ma'nosida).

2. II shaxs ko'plik **(-i) ngiz** birlik **(-i)ng** shakli o'r-
nida kelsa, hurmat ma'nosi ifodalanadi:

Gazetangizni (gazetangni o'rnida) ko'rsam maylimi?

3-mashq. Quyidagi so'zlarga I va II shaxs egalik qo'shimchalarining ko'plik shaklini qo'shib gaplar tuzing. Ularning o'z va ko'chma ma'nolarini namunadagidek qiyoslang.

Namuna: Bugun darsimiz kech tugaydi. (Bizning darsimiz — ko'plik, o'z ma'nosida).

— *Javobini keyingi darsimizda so'rayman. (Darsimda — birlik, kamtarlik ma'nosida).*

Jurnal, roman, maqola, hunar, qiziqish, orzu.

4-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Esingizdami, oyijon, siz bir marta, atigi bir marta, o'shanday hazillashib:

— Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim, — degandingiz. Men: — Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi? — degan edim. Xafa bo'lmang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman.

(O'tkir Hoshimov)



Topshiriqlar

1. Matndagi egalik qo'shimchalarini aniqlang, ma'nosini izohlang.

2. Onalar haqida o'qigan biror asardan olgan taassurotlaringizni so'zlab bering.

3. O'z onangiz bilan bog'liq biror voqeani xotirlab matn tuzing.

5-topshiriq. «Ommaviy axborot vositalari» mavzusida hikoya matni tayyorlang.

4-mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Передача, освещение, местный, средство.

6-topshiriq. «Men sevgan koʻrsatuv (eshittirish)» mavzusida savol-javob oʻtkazing va shu asosda hikoya tuzing.

5-mashq. Matn mazmunini oʻzgartirib yozing va uni yozuvchi asarlaridan olgan taassurotingiz bilan boyiting.

Olmos isteʼdod

Oybek — joʻshqin shoir, oʻtkir nosir, keng mushohadali adabiyotshunos olim va publitsist, mohir tarjimon.

Oybek yoshligini eslab shunday yozgandi: «Uzoq yoshlikning yorqin taassurotlaridan biri hali-hali esimda, yop-yorugʻ oydin kechada uyimizning yassi tomida onam bilan turardim: toʻlishgan oy osmon boʻylab suzardi, u menga juda ham goʻzal koʻrinardi. Men unga qoʻllarimni choʻzib intilar va «Oyi, oyni olib bering», — deb xarxasha qilardim.

Boʻlgʻusi adibning bu soʻzlari kuchli ramziy maʼnoga ega. Oybek «adabiyot osmonidagi oy» darajasiga koʻtarildi.

Oybek qirq yildan ortiqroq ijodiy faoliyati davomida bunyodkor xalqimiz bilan hamnafas yashadi, ijod qildi. Oybek asarlari xalq hayotining jonli koʻzgidir. Uning dostonlari va sheʼrlarida xalqimizning fidokorona mehnati ehtiros bilan kuylanadi. Yozuvchining «Qutlugʻ qon» romanida oʻzbek xalqining oʻz-oʻzini tanish jarayoni tipik xarakterlarda koʻrsatiladi. «Navoiy» romanida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy obrazini yaratgan.

«Bolalik» povestida xalqimiz tarixi beqiyos ulugʻvorlik bilan aks ettirilgan.

Uyga vazifa. Yaqinda oʻqigan asaringizning qahramonlari haqida hikoya yozing. Asar muallifi haqidagi maʼlumotlarni aniqlang.

IV. TAVSIF VA TA'RIF

1-topshiriq. Matnni o'qing, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazangizni bayon qiling.

Mardlik

Mardlik bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik — bu inson qalbidagi quyosh-u, mardlarga nur sochadi. Mard kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof; nomardlarda yolg'izlik, yomonlik, o'zlik, makkorlik, hasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlnrni uchratish mumkin.

Mard kishi bir so'zli, jasoratli, o'ktam bo'ladi. O'z orzuniyatlarini amalga oshirishda faqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga ishonadi. Zinhor-bazinhor ota-onasining davlatiga uchmaydi.

Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. Mard kishi yurtining qalqoni va xalqining suyan-chig'i bo'ladi. O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi, ularning o'zi yetolmagan armonlari, amalga oshmagan ishlarini ro'yobga chiqarishini orzu qiladi.

(«Axloq-odob saboqlari» kitobidan)



Savol va topshiriqlar

1. Mard kishida qanday fazilatlar namoyon bo'ladi?
2. Nomard insonlarda qanday sifatlnrni uchratish mumkin?
3. Siz mard insonlarga kimlarni misol qila olasiz?
4. Mavzuga oid maqol va hikmatlar toping, ularni daftaringizga yozing.



Manba: kitob

Belgi-xususiyatni bildiruvchi sifatlarga **-roq** qo'shimchasini, shuningdek, **juda, g'oyat, nihoyatda, sal, biroz** kabi so'zlarni qo'shish orqali belgi-xususiyat darajasi ifodalanadi.

Qiyoslang: **sho'x** — **sho'xroq** (belgining ozligi), **samiy** — **juda samimiy** (belgining ko'pligi).

1-mashq. Nuqtalar o'rniga belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlarni qo'yib, gaplarni daftaringizga ko'chiring.

1. Do'stim bola. 2.... kishilarga yordam berish fazilatdir. 3. Har birimiz ... taassurotlarimizni so'zladik. 4. Sinfdoشلarimiz bilan ... shaharlarni ... tomosha qildik. 5. Do'stga sadoqat ... va ... talab qiladi.

2-topshiriq. Quyidagi tasvir asosida hikoya yozing. Hikoya matnini belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar va uyushiq bo'laklar bilan kengaytiring.



3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing, mazmunini maqol va hikmatlar bilan boyitib so'zlab bering.

Kamtarlik haqida

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

(Erkin Vohidov)

Do'stlik

Odamning shodlik va qayg'uli vaqtlarida tayanchi, shubhasiz, uning do'stlaridir. Shuning uchun yosh va boshqa jihatdan o'zingizga mos keladigan kishilarni tanlab do'stlashing.

O'zlarini yolg'ondan do'st deb ko'rsatuvchilarga ishonmang. Muhabbati pok, sof bo'lmagan kishilar bilan oshno bo'lmang. Samimiy do'st ekani shubhali bo'lgan kishi bilan do'st bo'lishdan ko'ra, do'stsiz yashash yaxshiroq ekanini unutmang.

Tekshirib, sinamasdan turib so'zlariga ishonib do'st bo'lmang. Shunday kishilar borki, sizdan manfaat ko'rish uchun do'st bo'ladilar. Ishlari bitgach, do'stligi ham tugaydi. Biroq chin do'stlaringizni koyib, xafa qilishga shoshilmang. Ular bilan orangizning buzilishiga beparvo qaramang, ularga achchiq so'zlar aytmasdan, bir necha kun sabr eting. Keyin noo'rin achchiqlanganingiz ma'lum bo'lsa, sabr etganingiz uchun sevinasiz. «Sabr tagi — sariq oltin» deb bejiz aytishmang.

Jiddiy sabablar bo'lmasa, do'stlar bilan arazlashish adabsizlikdir. Shunga ko'ra mayda-chuyda narsalar uchun do'stlaringizdan noo'rin ranjib, ulardan ajralmang.

Har vaqt bir-birini hurmat qilish sababli do'stlik mustahkamlanadi. Shuning uchun do'stlaringizga doim yordam bering.

Yaramas kishilarga aralashmang, ular bilan do'stlashmang ham, dushmanlashmang ham, muloyimlik bilan muomala qiling.

L u g' a t

tayanch — опора
qayg'uli — печальный
muloyimlik — мягкость

achchiqlanmoq — огорчиться
shubhali — подозрительный
beparvo — безразлично



Topshiriqlar

1. Matndagi belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlarni aniqlang va ular ishtirokida mustaqil ravishda gaplar tuzing.

2. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzib, ularga javob yozing.

5-topshiriq. Do'stlik haqidagi hikmat va maqollarni o'qib, sifatlarning ma'nosini izohlang.

Yaxshi do'st dengiz qoyasiga o'xshaydi, u har qanday zarbalar yetganda ham mustahkam turadi.

Sodiq do'st yetti xazinadan ham qimmat, uni avaylash kerak.
Chin do'stingning ko'ngliga sira ozor berma.

Do'st dardiga sherik bo'lgan odamni chin do'st deb bilish kerak.

Yaxshi kunda birga yayrashib, yomon kunda ayrilishib ketadigan kishi xiyonatkor bo'ladi.

Sadoqatli do'stlar ko'zga o'xshaydi, ikkisi baravar yig'lab, baravar kuladi.

Do'st qadrini bilmagan chin do'st topolmaydi.

Kibr-havosi baland, faqat o'zini sevadigan, xudbin kishi do'st bo'lolmaydi.

Do'stlarni ziyorat qilib turish dillarga orom bag'ishlaydi.

Uyga vazifa. «Yaxshi fazilat — inson ko'rki» mavzusida matn tuzing.

V. MEN YOQTIRGAN NARSALAR

1-mashq. Berilgan rasm asosida suhbatni davom ettiring. Tuzgan gaplaringizda «yoqtirmoq» fe'lini qo'llang. Suhbat matnini daftaringizga ko'chiring.



S u h b a t

— Aziz, sening sevimli mashg'uloting nima?

— Men rasm chizishni yoqtiraman. Bu mashg'ulot menga juda yoqadi.

— O'zing-chi, bo'sh vaqtingda nima bilan shug'ullanasan?

— Men naqqoshlik to'garagiga qatnashaman. Turli milliy naqshlar chizishga qiziqaman.

Eslab qoling!

Soʻzlovchining bildirayotgan fikriga munosabati *albatta, rostdan, ehtimol, balki, demak* kabi modal soʻzlar vositasida ifodalanadi.

Masalan: ***Rostdan, sheʼr oʻqishni yoqtiraman.***

Bunday modal soʻzlar quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

Fikrning rostligini ifodalovchi soʻzlar	Fikrning taxminiyligini ifodalovchi soʻzlar	Fikrning tartibi, izchilligini ifodalovchi soʻzlar
albatta chindan haqiqatan shubhasiz	ehtimol balki chamasi ajabmas	avvalo demak birinchidan ikkinchidan

2-mashq. Gaplarni koʻchiring. Modal soʻzlar ifodalagan maʼnoni izohlang.

1. Avvalo, yoqtirgan ishingga mehr qoʻyishing kerak. 2. Mening kasbim, ehtimol, senga yoqmas. 3. Soʻzsiz, uning mahoratiga tan beraman. 4. Demak, bu masalani majlisda muhokama qilamiz. 5. Bugungi oʻyining, albatta, murabbiymizni qoniqtirmaydi.

3-mashq. Matnni oʻqing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Kompyuter toʻgaragi

Kompyuterga juda qiziqaman, chunki kelajakda kompyuterda dasturlash boʻyicha yaxshi mutaxassis boʻlishni istayman. Maktabimizga zamonaviy kompyuterlar keltirishdi. Qiziquvchilar uchun toʻgarak tashkil etdilar. Men ham bu toʻgarakka aʼzo boʻldim. Toʻgarak mashgʻulotlari juda **qiziqarli oʻtadi**. Yaqinda kompyuterda maktabimiz veb-saytini yaratish uchun **tanlov oʻtkazildi**. Men reklamali dasturim bilan qatnashdim. Mening dasturimni eng maʼqul deb topishdi va printer bilan taqdirladilar.

Kompyuter kishi dunyoqarashini eng yangi axborotlar bilan **boyitadi**. Uning imkoniyatlari vaqtingizni **tejaydi**. Shuning uchun toʻgarakda kompyuterning yangidan-yangi imkoniyatlaridan foydalanishni **oʻrganamiz**. Baʼzilar kompyuterdan faqat matn yozishda

foydalanadilar. Bu yetarli emas. Kompyuterni mehnatni tez va qulay bajarish uchun yaratishgan. Shuning uchun barchamiz undan unumli foydalanishni bilishimiz kerak.

L u g‘at

dasturlash – программирование

tejamoq – экономить

aylanmoq – превратиться

yangidan yangi – новейшие

dunyovarash – мировоззрение

unumli – эффективно



Topshiriqlar

1. Matndan shaxsi noma’lum gaplarni ajrating, kesimini shakllantirgan qo’shimchalarni ko’rsating.

2. Ajratilgan so’zlarning ma’nosini izohlang va ularni sifat-doshlarga aylantirib gaplar tuzing.

3. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzing.



Sifatdoshlardan oldin ot va ot vazifasidagi so’z, ravish kelsa, bular birgalikda yaxlit belgi-xususiyatni ifodalaydi: *kattalarni hurmat qiladigan (bola), temirdan yasalgan (darvoza), suvi qochgan (non)* kabi. Bunday birikmali sifatdoshlar bir urg‘u bilan aytiladi va bir umumiy savolga javob bo‘ladi.

Masalan: *Eshigi bo‘yalgan (qaysi?) xonani taqillatdik.*

1-topshiriq. O‘quv xonangizdagi narsalar, jihozlarning belgi-xususiyatini birikmali sifatdoshlar bilan ifodalab, namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: Devorga ilingan portret juda katta.

4-mashq. She’ni ifodali o‘qing. Undan sifatdoshli birikmalarni ajratib, ma’nosini izohlang va ona tilingizga tarjima qiling.

Sen — ona

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen — ona.

Og‘ushida Bobur kamolga yetgan

Sen — ona.

Torobiyni og'ir jangga jo'natgan
Sen — ona.
Olamni nurida munavvar etgan
Sen — ona.
Yig'lasa dunyoni rosa titratgan
Sen — ona.
Kulgusi saodat parvarish etgan
Sen — ona.
Dohiylar beshigin bedor tebratgan
Sen — ona.
Mehri bahorida elni yashnatgan
Sen — ona.
Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Sen — ona.
Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

(Mirtemir)

Uyga vazifa. O'zingizning sevimli mashg'ulotingiz to'g'risida matn tuzing. Unda sifatdoshlar va modal so'zlarni qo'llang.

VI. TAQDIR AJOYIBOTLARI VA DUNYO SIRLARI

1-mashq. Matnni o'qing, undan **-(i) b, -(a)y** qo'shimchali fe'l shakllari qo'llangan gaplarni ko'chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

Dunyoning boyligi (hikoyat)

Eshik taqilladi. Keksayib qolgan hakim inqillab eshikni ochdi. Bir yosh shogirdi kitob so'rab kelibdi.

— Uyda bo'lganim uchun eshikni qulflab qo'ygandim, bo'tam, kelishingni bilsam seni kuttirmay, eshikni ochib qo'yardim.

Shogirdi ustozining bu gapiga hayron bo'lib so'radi:

— Ey, ustod, uyda bo'lmagan chog'ingiz eshikni qulflamay qoldirasizmi?

Hakim kulib javob qildi:

— Ha, qulflamay qoldiraman, o'zim bo'lmagandan keyin bu uyda mendan boshqa qimmatli qanaqa boylik bor? Bilib qo'y, bo'tam, dunyoda odamdan aziz boylik yo'q.

(T. Rasulov)

2-mashq. Topishmoqlarni o'qing, javobini toping. So'roq so'zlarni tegishli so'zlar bilan almashtirib ko'chiring va kesim shakllarini tahlil qiling.

1. Odamning nimasi bo'lmasa, nimali bo'lmasa, nima qilmasa yashay olmaydi? (Hunari, ilmi bo'lmasa, mehnat qilmasa.)

2. Yumuq ko'z bilan nimani ko'rib bo'ladi? (Tush.)

3. Nima zarga sotilmas, nimani orqaga qaytarib bo'lmas. (Vaqt.)

Yodda tuting!

Gapda **-(a)y**, **-(i)b**, **-may** qo'shimchali ravishdoshlar boshqa fe'l shakllari bilan bog'lanib birikmali tarzda qo'llanishi mumkin. Masalan: **so'rab-surishtirmay yozib qo'ymoq**, **o'qimay turib javob bermoq**, **sinab ko'rib tanlamoq** kabi. Birikmali ravishdoshlar bir so'roqqa javob bo'ladi va kesimdan pauza bilan ajratiladi.

1-topshiriq. Matnni ifodalari o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Suv

Suv! Uni obihayot — tiriklik suvi deb bejiz aytmaydilar. Suvning turi ko'p bo'lib, ular ichida eng qadrlisi chuchuk suv hisoblanadi. Suvsiz na tabiat yashnardi, na biror jonzot yashay oladi. Shuning uchun odamlar qadimdan suvni juda qadrlaganlar va uni ifloslantirmaslik chora-tadbirlarini ko'rganlar.

Tabiatning bebaho ne'mati bo'lgan suvni doimo toza saqlash, suv manbalarini muhofaza qilish, undan tejab-tergab foydalanish har bir kishining muqaddas burchi bo'lishi kerak.

Ma'lumki, Toshkentda ariq va kanallar juda ko'p. Shahrimiz ichidan oqib o'tadigan Salor, Anhor, Qorasuv, Kaykovus, Shivli, Chorsuv, Qoraqamish kabi suv havzalari go'zal shahrimizga fayz bag'ishlab turibdi. Toshkent shahri atrofida Chirchiq daryosidan boshqa suv tarmoqlari yo'q. Ammo Chirchiq daryosidan suv oluvchi kanal va ariqlar juda ko'p. Eng muhimlari Bo'zsuv, Bo'rjar, Salor, Qorasuv, Kaykovus, Anhor, Qoraqamish va boshqalar.

Hozirda shaharning hamma ehtiyojlari uchun bir daqiqasiga 28 kub metrdan ko'p suv sarflanmoqda. Toshkent shahridagi 17 ming gektarga yaqin yashil ko'kalamzorlarni sug'orish uchun yoz oylarida bir daqiqasiga 18 kub metr suv sarflanmoqda.

Toshkentning barcha suv havzalarini toza tutishda, suvni ifloslantirmaslik va undan tejab-tergab foydalanishda har birimiz omilkor bo'lishimiz kerak. Ana shunda shahrimizning kanal va anhorlari doim musaffo bo'ladi.



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzing.
2. *Suvni tejash, muhofaza qilish, yerni sug'orish, ariqlarni tozalash* birikmalarini ravishdoshli birikmalarga aylantiring.
3. *Manba, muhofaza, ko'kalamzor, musaffo, sarflamoq* so'zlarining ma'nodoshlarini toping.
4. O'z shahringiz (tumaningiz)dagi suv manbalari va ulardan qanday foydalanilayotganligi haqida kichik ma'lumotnoma tayyorlang.

3-mashq. Maktabingizda tabiatni asrash yuzasidan o'tkazilgan tadbirlar to'g'risida o'zaro suhbatlashing. Ular asosida namunadagidek dialoglar tuzing.

Namuna:

- Abror, kecha maktab bog'ida nima ish qildinglar?
- Ancha ish bajardik. Men, Nodir, Xurshid ko'chatlar tagini yumshatdik. Ahror bilan Jamshid gullarga suv quyishdi.
- Sinfingizning qizlari-chi?
- Ular ham bo'sh o'tirishmadi. Maktab hovlisini top-toza qilib supurishdi. To'kilgan barglar va boshqa chiqindilarni yig'ishtirib olishdi.

2-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan o'simlik, daraxt, daryo, tog', tepalik, adir, ko'l tilidan insonlarga murojaat matni tuzing.

Namuna: Men bir tutman. Odamlar meni balx tut, shotut kabi nomlar bilan ataydilar. ...



Bilib oliniz

Birdan ortiq voqea-hodisa yoki harakat-holatning bir vaqtda bajarilmaganligi **na** inkor bog'lovchisi yordamida ifodalanadi. Bunday bog'langan qo'shma gaplarda **na** bog'lovchisi har bir sodda gapning boshida ishlatiladi va inkor ma'nosini sanash, kuchaytirish maqsadida takror qo'llanadi. Masalan: *Na ular keldilar, na biz bordik.*

4-mashq. Gapnlarni o'qing. Inkor bog'lovchisining vazifasini tushuntiring.

1. Bu yil na kuchli yomg'ir yog'di, na havo qattiq sovidi. 2. Na hovlidagi gulzorni tozaladi, na o'z uyini ta'mirladi. 3. Agar suv bo'lganda na o'zimiz charchardik, na mashina to'xtab qolardi. 4. Sel kelsa, na bu to'sinlar, na ko'priklar qolardi. 5. Chang-to'zonda na ko'chada odam ko'rinar, na biron mashinaning shovqini eshitilar edi.

5-mashq. She'rni ifodali o'qing. Uning mazmuni yuzasidan o'z fikrlaringizni ayting.

Orol

Xasta holing, xasta o'yg'a botursan,
Bemajol, bemador, behol yotursan.
Doding bilan dunyoni uyg'otursan,
Ketib qolma, Orolim!

Oq-u qarosisan qaro ko'zimning,
Yuzlaringga bosib yashay yuzimni.
Suving qurib, quritmagil izimni,
Ketib qolma, Orolim!

Doryolaring kelolmasdan yig'lar zor,
Senga mador bo'lolmasdan yig'lar zor.
Baliqlaring ko'zlarida xitob bor,
Ketib qolma, Orolim!

Qirg'og'ingda qovjiragan dalangman,
To'lqinlaring titrog'iman, nolangman.
Men ham bitta qaqshab qolar bolangman,
Ketib qolma, Orolim!

(Muhammad Yusuf)



3-topshiriq. Quyida keltirilgan ibratli hikoyatni rollarga bo'lib o'qing. Matn mazmuni yuzasidan kichik xulosa yozing.

Zarur tosh

- Ustingdagi tosh og'ir bo'lsa kerak, ezib og'ritmayaptimi?
- Toshbaqaga achinib so'radi Tipratikan.
 - Menga bilinmaydi, toshim yengil. Agar toshimning bir parchasini senga bersam ko'tarib yurasanmi?
 - Iya, nega ko'tarib yurarkanman. Yo'q, ko'tarib yurmayman.
 - To'g'ri, ko'tarmaysan. Chunki u senga kerak emas. Agar kerak bo'lsa olarmiding?
 - Nega endi olmas ekanman, olardim.
 - Mening ham toshim o'zimga kerak-da. Shuning uchun og'irligi sezilmaydi. Yirtqichlarning o'tkir tishlaridan qo'rqmay yashayveraman, — dedi Toshbaqa.

6-**mashq.** Hikmatlarni ko'chiring, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang, bo'lishsiz fe'llarning qanday yasalganligini tushuntiring.

1. Nonni qilmasang uvol,
Aslo ko'rmasan zavol.
2. Aqlli kishisi bo'lmagan uy quyoshsiz osmonga o'xshaydi.
3. Hayotda har kimning o'z non-nasibasi bor, uni hech kim tortib ololmaydi, modomiki olsa ham buyurmaydi.
4. Inson tabiatning yer yuzidagi oliy mahsulidir. Ammo tabiat yaratgan mo'jizalardan bahra olmoq uchun inson sog'lom, baquvvat va zukko bo'lishi kerak.

Uyga vazifa. Dunyoning yetti mo'jizasidan birini tasvirlab matn tuzing.

VII. KASB (HUNAR)IMNI SHARAFLAYMAN

1-topshiriq. «Hunarmand bilan suhbat» mavzusidagi dialogni rollarga bo'lib o'qing va o'z so'zlaringiz bilan davom ettiring.

- Assalomu alaykum usta, bu eshiklar sotiladimi?
- Vaalaykum assalom, eshik olmoqchimisiz? Qayerga o'rnatmoqchi ekanligingizni aytsangiz, shunga qarab tavsiya etaman.
- Rahmat, ikkita ichki xonalar uchun, bitta tashqariga ochiladigani kerak edi.
- Juda soz. Mana bu oynali eshiklar ichki xonalarga mo'ljalangan, Namangan uslubida yasalgan. Bunisi naqshli, qo'qonlik ustalarning mahsuloti. Qaysisidan olasiz?
- Namangan uslubida tayyorlanganidan ikkita bering, menga shunisi ma'qul bo'ldi.
- Bunisi tashqi eshik, taxtasi mustahkam, tut yog'ochidan yasalgan.
- Usta, bu eshikning naqshlari juda nafis ekan-a?
- Ha, naqshdor eshik, bu buxorolik ustalarning ishi. Sizga yoqdimi?
- Albatta, shuni bera qoling.
-



Og'zaki nutq uslubida til birliklarini tanlash va qo'llashda erkinlikka yo'l qo'yiladi. Bu uslub o'z xususiyatiga ko'ra adabiy va jonli nutqqa ajratiladi. Adabiy nutq o'zbek adabiy

tili me'yorlariga moslangan, tartibga solingan, sayqallangan bo'ladi. Jonli nutqda esa shevaga xos xususiyatlar, so'z tartibida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi, to'liqsiz gap va takrorlardan keng foydalaniladi.

2-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Hunarning xosiyati

Qadim zamonda bir hunarmand odam bor ekan. U ertalabdan kechgacha tinmay mehnat qilar, taq-tuq qilib, egar-jabduq yasas, ertasiga o'sha mahsulotini sotib, bola-chaqasini boqar ekan. Oilasi nihoyatda ahil, hamjihat bo'lib yashar, boriga sabr-u qanoat qilib, kun kechirar ekan.

Ularning nihoyatda boy qo'shnisi bor ekan. Qo'shnisi ularning ahilligini ko'ra olmas, taqir-tuqur joniga tekkan ekan. Bir kuni boy kambag'al qo'shnisining chiqib shunday debdi:

— Agar egar-jabduq yasaydigan asbob-u dastgohingni menga bersang, buning evaziga senga bir qop oltin berar edim.

Kambag'al qo'shni bir qop oltinning daragini eshitib, darrov rozi bo'libdi:

— Mayli, ola qoling. Kun bo'yi ishlab charchayapman. Jonimga tegdi bu dastgohlar.

Kunlar o'taveribdi. Kambag'al qo'shni nihoyatda ozib ketibdi. U kechasi yaxshi uxlay olmas, yarim kechada dir-dir titrab, o'rni-dan turar, oltinlarni hali u yerga, hali bu yerga berkitar, bezovta hayot kechirar ekan. Oqibat shunday bo'libdiki, kasalga chalinib qolibdi. Oxiri oltinlarni boyga qaytarib, o'z asbob-dastgohini qaytarib olibdi.

Ko'p o'tmay, kambag'al tuzalib ketibdi, yana uning uyidan taq-tuq ovozlari eshitaladigan bo'libdi. Kambag'al o'z hunari bilan oilasini betashvish boqa boshlabdi.



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing va shu savollar asosida uning mazmunini qayta so'zlab bering.

2. Matnning tayanch so'zlarini aniqlang, ularning ma'nosini izohlang.

3. Matndan og'zaki so'zlashuv uslubiga xos gaplarni ajrating va ularning boshqa gaplardan farqini tushuntiring.

4. *Bola-chaqa, joniga tegmoq, dir-dir titramoq, bezovta* kabi so'z va birikmalar ishtirokida jonli nutqqa xos gaplar tuzing.

1-mashq. Berilgan so'zlarni *haqida, to'g'risida* ko'makchilari bilan birga qo'llab gaplar tuzing.

Olim, ustoz, loyiha, shogird, mukofot.

Yodda tuting!

Haqida haqda, to'g'risida, to'g'rida ko'makchilari fikr yoki nutq qaratilgan shaxs, narsani ifodalashda qo'llanadi.
Masalan: *Grammatika haqida ma'ruza o'qildi.*

3-topshiriq. Rasmdagi tasvir asosida suhbatlashing va taassurotlaringiz asosida «Ustozlarim haqida» mavzusida bayon yozing.



2-mashq. Gaplarni ko'chiring, jonli so'zlashuv nutqiga xos so'z va iboralarni aniqlab, ma'nosini izohlang.

1. Esim qursin, samovarda o'tirib, yangangizning topshirig'ini bajarishni unutilman-a. 2. Komil, qani yugur uyga, opangni opkegin baqqa. 3. Eshitganimni sizga aytdim o'rtoqjon, bu yog'i o'zingizga havola. 4. Hayronman senga ukaginam, modniy kiyimni ham eplab kiyolmapsan-ku?!

4-topshiriq. Matni o'qing, uning mazmuni yuzasidan savollar tuzib, savol-javob o'tkazing.

Hamshira bo'lsam deyman

Kelgusida hamshira bo'lishga ahd qilgan odam qanday fazilat-larga ega bo'lishi kerak? Keling, bir o'ylab ko'raylik-chi.

Hamshira odamlarni sevishi va mehribon bo'lishi zarur, chunki uning vazifasi bemorlarning dardini yengillashtirish, ularga turli muolajalar qilishdir.

Hamshira dovyurak bo'lishi kerak. U kasallik yuqishidan qo'rq-masdan, dardga chalingan bemorlarni parvarish qilishi kerak. Hamshira har doim tashqi qiyofasi bilan xotirjam ko'rinishi zarur. Uning xotirjamligi va o'ziga bo'lgan ishonchi bemor ruhini ko'taradi va uning tuzalishiga yordam beradi.

Hamshira doimo g'amxo'r va hushyor bo'lishi lozim. Beparvo hamshiraga bemor ishonmaydi, hamshiraning ehtiyotsizlik bilan aytgan har bir so'zi uni cho'chitib qo'yadi va tuzalishiga bo'lgan ishonchini yo'qotadi, kasallik ham cho'zilib ketadi.

Hamshira fidokor bo'lishi kerak. U kuzatuvchan va sabr-to-qatli bo'lishi, hamshiralik sirlarini gapirib qo'ymasligi uchun tilini tiya bilishi ham kerak. U jur'atli bo'lishi lozim.

Hamshira qiziquvchan va mehnatsevar bo'lishi lozim. U doimo o'z bilim doirasini kengaytirib borishi, zamonaviy davolash usul-laridan ustalik bilan foydalana olishi zarur.

Hamshiralik — naqadar oliyjanob kasb.

(Jurnaldan)

Uyga vazifa. «Kim bo'lsam ekan?» mavzusida kichik insho yozing.

VIII. BIZNING MAHALLA

1-topshiriq. Matni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Hashar

Hashar — Sharq xalqlarining orasida keng tarqalgan udum-lardan biri. Hashar ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda harakat qilishidir.

Ilgari zamonlarda o'ziga to'q oilalar birlashib, hashar yo'li bilan yolg'iz, kambag'al, yetim-esirlarga uy-joy qurib berganlar, to'y qilib, xizmat qilishgan. Hasharning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tekin, beminnat, betama bajarilgan. Hashar ko'pchilik tomonidan yordam sifatida tekin ado etilgan.

Bahorda ko'chalarni tozalash, ko'chatlar ekish, ariqlar ochish, ko'priklar qurish kabi ishlar ham hashar orqali amalga oshirilgan. Hozirda mahalla va qishloqlarni obodonlashtirish, madaniy-ma'rifiy, sport inshootlarini barpo etish kabi ishlar ham hashar yo'li bilan bajarilmoqda.

O'zbekistonda Katta Farg'ona, Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanali, Zarafshon kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori ham xalq hashari yo'li bilan qurilgan.



L u g' a t

tarqalgan — распространённый
bir yoqadan bosh chiqarmoq — братья
за одно дело вместе
suv ombori — водохранилище

tekin — даром, бесплатно
obodonlashtirish — благоустройство
beminnat — бескорыстно



Savol 5/9 100%

1. Matn mazmuni asosida quyidagi savollarga javob qaytaring:
- 1) Hashar qanday odat?
 - 2) Hasharning kimlarga yordami tekkan?
 - 3) Hashar yo'li bilan qanday ishlar amalga oshirilgan?
 - 4) Qaysi kanallar hashar yo'li bilan qurilgan?

2. *Hashar, ko'pchilik, tozalash, inshoot* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.

3. Matndan o'tgan zamon fe'llari qatnashgan gaplarni ajrating va ularga «edi» fe'lini qo'shib ko'chiring, ma'nosidagi o'zgarishni izohlang.

Yodda tuting!

«emoq» fe'li shax-son qo'shimchalari bilan tuslanib, ish-harakatning yaqin o'tgan zamonda sodir bo'lganligini ifodalashda qo'llanadi.

Bu fe'l shakli **-gan** yoki **-(a)r** qo'shimchali sifatdoshlar bilan birga qo'llanadi: *qurilgan edi, borar edingiz, o'qir edik.*

2-topshiriq. Mahallangizning xaritasini chizing, shu asosda uning avvalgi va hozirgi ko'rinishini qiyoslab hikoya yozing. Tuzgan gaplaringizda o'rin-makon ma'nosini ifodalovchi quyidagi so'zlarni qo'llang.

O'rin-makonni ifodalovchi ot-ko'makchilar: *ost, ust, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o'rta.*

Yodda tuting!

O'rin-makonni ifodalovchi ko'makchilar egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *ustida, yonidan, o'rtasiga* kabi

3-topshiriq. Quyidagi tasvir asosida o'z ko'changiz haqida ma'lumot yozing. Unda o'rin-makon ma'nosini ifodalovchi so'zlarni qo'llang.





Matnda bayon etiladigan fikrlar bir-biriga mantiqan bog‘liq bo‘lishi, fikr-mulohazalarning ketma-ketligi, izchilligi ta‘minlanishi, asosli va ishonchli dalillarga tayanilgan tarzda yoritilishi lozim. Fikrlarning o‘zaro bog‘liqligi olmosh, modal so‘z va turli kiritmalarni o‘rinli qo‘llashni taqozo etadi.

1-mashq. Qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini tanlab, gaplarni o‘zaro bog‘lang va daftaringizga ko‘chiring.

1. Daraxtlar bargi sarg‘ayib yerga tushdi. Biz barglarni supurib oldik. (*shu tufayli, shu sababli*).

2. Mahallamizga ustalar kelishdi. Ustalar gaz quvurlarini o‘rnatdilar. Odamlar ustalarga rahmat aytishdi. (*ular, shu sababli*).

3. Ko‘chalarga chiroqlar o‘rnatdilar. Kechqurun hammayoq qorong‘i edi. (*ana shu sababdan, afsuski*)

4. Romni o‘rnatishing kerak. Barcha devorlarni oqlasang bo‘ladi. (*bilan, avval, birinchidan, keyin*).

4-topshiriq. Matnni o‘qing, uning mantiqiy izchilligini ta‘minlovchi vositalarni aniqlang. «Edi» fe‘lining qo‘llanishiga e‘tibor bering.

Mehrli odam

Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichigi ham o‘sha izdan boradi.

Katta yo‘lning chetidagi yo‘lkada shunday voqea bo‘lgan edi. Shokir bobo besh yoshli nabirasi Murodjonni yetaklab, sayr etib borardi. Yo‘lka o‘rtasida ikkiga bo‘linib yotgan qizil g‘ishtni ko‘rib birdan to‘xtadi. Bobo beli og‘riyotgan bo‘lsa ham, zo‘rg‘a egilib singan g‘ishtni qo‘liga oldi va chekkadagi chuqurga tashladi. Murodjon buni kuzatib turgan edi.

— Bobojon, toshni nega olib u yoqqa otib yubordingiz? — deb so‘radi.

Shokir bobo kulib, Murodjonning peshonasiga tushib turgan sochini mehr bilan silab, nabirasiga tushuntirdi:

— Singan g‘isht yo‘lkada foydasiz yotibdi, bu yerdan bolalar, qariyalar o‘tadi. Bilmay g‘ishtga qoqilsa, yiqilib tushadi... Odamlar unga qoqilmasin deb, chetga olib tashladim, o‘g‘lim.

— Yaxshi, — dedi Murodjon sevinib, keyin o‘zi ham shunday ish qilmoqchi bo‘ldi.

Yo‘lka o‘rtasida bir daraxt shoxchasini ko‘rib qoldi. Yugurib borib uni oldi va bir chetga uloqtirdi.

— Bobojon, shoxchani yo‘ldan olib tashladim, odamlar unga qoqilmasin-a, — dedi.

— Balli o‘g‘lim, bu ishing yaxshi, mehrlı odam bo‘lasan, — dedi Shokir bobo va Murodjonning peshonasidan o‘pib qo‘ydi.

2-mashq. Maqol va hikmatlarni daftaringizga ko‘chiring va ularning ma‘nosini izohlang. Fikrning matnıqiy asosini aniqlang.

1. Inoqlikning eng birinchi sharti — samimiyat.

2. Odami ersang demagil odami,

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. (*A. Navoiy*)

3. Boshqalarning baxtini o‘ylab, o‘z baxtimizni ham topamiz.

(*Aflotun*)

4. Kim g‘amingga sherik bo‘lmas,

U seni hech sevgan emas.

Uyga vazifa. «Bizning mahalla» mavzusida matn tuzing.

IX. JAMOAT TRANSPORTI VA MANZILI

1-topshiriq. Shahar transporti haqida suhbatlashing va namunadagidek dialoglar tuzib, daftaringizga yozing.

— Kechirasiz, aytib bera olmaysizmi, Mustaqillik maydoniga qanday borsam bo‘ladi?

— Bu yerdan 11-trolleybusga o‘tirishingiz mumkin.

— Metro orqali borishim mumkinmi?

— Ha, albatta, borishingiz mumkin. Buning uchun shu yo‘ldan ozgina piyoda yurib «Hamza» metro bekatiga tushib, «Mustaqillik maydoni» bekatidan chiqasiz.

— Rahmat sizga, juda minnatdorman.

— Arzimaydi, yaxshi boring.

1-mashq. «Xiyobonda uchrashamiz» mavzusida hozirgi zamon fe‘llaridan foydalanib, bog‘lanishli matn tuzing.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini hikoya qilish uchun reja tuzing.

Yer osti shaharchasi

Metro ajoyib yer osti shaharchasiga o'xshaydi. Bu shaharcha qishda issiq, yozda salqin bo'ladi. U yerda chang yo'q. Bekatlar kecha-kunduz yop-yorug'.

Keng, yorug' vagonlarda yuzlab kishilar ishga va o'qishga, saylga va uchrashuvga, bozorga va mehmonga boradilar.

Birinchi metro Londonda qurilgan. Toshkentda esa metroning birinchi navbati 1977-yilning 6-noyabrda foydalanishga topshirilgan.

Toshkent metrosida poyezdlar uch yo'nalishda qatnaydi. Bular Chilonzor, Beruniy va Yunusobod yo'nalishlaridir.

3-topshiriq. «Toshkent metrosi» rasmi va yo'nalish sxemasi asosida kichik matn tuzing. Unda **-yap** qo'shimchali hozirgi zamon fe'llarini qo'llang.



4-topshiriq. Dialogni o'qing va uni davom ettirib, yo'l qoidalari haqida savol-javob uyushtiring.

— Aytinchi, piyodalar yo'lkaning qaysi qismidan yurishlari lozim?

— Piyodalar yo'lkaning o'ng tomonidan yurishlari kerak. Aks holda qarshilaridan kelayotgan yo'lovchiga xalaqit berishadi.

— Xo'sh, nega yo'lkasi bo'lmagan yo'lda mashina harakati bo'ylab yurish taqiqlanadi?

— To'g'ri aytding. Bu qoida yo'lovchining xavfsizligi uchun juda zarur. Agar mashina harakati bo'yicha yursa, orqadan kelayotgan mashinani ko'rmay qolishi mumkin. Shuning uchun harakatlanayotgan transportga qarab yo'ning chap tomonidan yuriladi.

* * *

— Abror, yashil chiroq yondi, mashinangni o'ngga hayda.

— Yo'q, hayday olmayman. Chunki qoidaga ko'ra asosiy yo'ldan o'tayotgan yo'lovchini o'tkazib yuborishim lozim.

— Bo'пти, burilib to'xtagin. Shu yerda bir ishim bor, tushaman.

— Shoshilmang, amaki. Bu yerda to'xtash mumkin emas. Nariroqda tushasiz.

— Juda soz, o'g'lim. Baraka top, yo'limni yaqin qilding.

2-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling, ma'nosini izohlang. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va ko'chirib yozing.

ZANGIOTA

Zangiota — asl ismi Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lib, tug'ilgan yili noma'lum, 1258-yilda vafot etgan. U avliyo, **tasavvufning** taniqli vakili. Arslonbobning avlodidan bo'lib, uning evarasidir. Toshkent shahrining Samarqand darvoza ko'chasidagi Zangiota mahallasida tug'ilib o'sgan degan taxmin bor. Arab naslidan, qora tanli bo'lganligi uchun (zanji), hurmat yuzasidan va oliyhimmatligi uchun Zangibobo Himmatiy deb atashgan. Zangiota yoshligida otasidan ta'lim oldi. Otasi vafotidan keyin Ahmad Yassaviyning xalifasi ham shogirdi bo'lmish Hakim ota, ya'ni Sulaymon Boqirg'oniy huzuriga bordi. Bir necha yil uning xizmatida bo'lib, undan yassaviylik tariqati sir-asrorlari, odobini o'rgandi hamda bu tariqatning yetuk **namoyandasi** bo'lib yetishdi. So'ng o'z vatani — Shosh viloyatiga qaytib kelib, aholini ilohiy-axloqiy, tasavvufiy **yo'l-yo'riqlar** bilan tarbiyalashga kirishdi, ko'plab mutasavviflar tayyorladi. Zangiotaning butun hayoti Movarounnahr xalqlarining og'ir va dahshatli davriga to'g'ri keldi. Mo'g'il istilochilari mamlakatni xonavayron qilib, xalq ommasini qullik iskanjasiga solgan bir payt Zangiota va uning izdoshlari xalq orasida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adl-u insof, poklik, yaxshilik, mehr-shafqat kabi **umuminsoiy** g'oyalarni targ'ib qildi. Zangiotaning murid va

shogirdlari, xususan, Uzun Hasanota, Sayyidota, Sadirota va Badrota Dashtiqipchoq o'zbeklari, Volgabo'yi va Ural tog'i etaklaridagi tatar va boshqirdlar orasida islom dinining yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Zangiota podachilik qilib, halol **rizq** topib hayot kechirgan. Zangiotaning karomatlari va fazilatlarini Xo'ja Ahror, shoirlar Maxtumquli, Kamiy Toshkandiy va boshqalar tilga olib, she'r va xotiralar yozib qoldirganlar, xalq rivoyatlar to'qigan. Zangiotaning qabri Zangiota tumanidagi Zangiota qishlog'ida. Zangiota dafn etilgan mozor yonida masjid va madrasa qad ko'targan. Bu joy **ziyoratgoh** hisoblanadi.

L u g' a t

avliyo – святой

tasavvuf – суфизм, мистицизм

mutasavvif – суфист



va, ham, hamda, yoki kabi teng bog'lovchilar so'z yoki gaplarni o'zaro bog'lashda yakka tarzda qo'llanadi.

Dam, ba'zan, goh, xoh, yo ayiruv bo'g'lovchilari esa uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bo'g'lashda takror holda qo'llanadi.

5-topshiriq. Quyidagi dialoglarni rollarga bo'lib o'qing.

Shahar transporti

1. Kechirasiz, vokzalga qaysi transportda borsam bo'ladi?
— 60, 81-avtobus, 5, 9, 13-tramvay bilan borishingiz mumkin.
2. Kechirasiz, aeroportga qanday borish mumkin?
— 14-trolleybus, 77 va 94-avtobuslarda.
3. Aytolmaysizmi, bu yerdan 8-tramvay o'tadimi?
— Yo'q, o'tmaydi. Qayerga borishingiz kerak?
— Xadra maydoniga.
— Hozir 7-tramvayga chiqing, keyin 8-tramvayga o'tib olishingiz mumkin bo'ladi.

4. Kechirasiz, Siz keyingi bekatda tushasizmi?

— Yo‘q.

— Unday bo‘lsa, meni o‘tkazib yuboring.

— Marhamat.

5. — 91-avtobus ketganiga ancha bo‘ldimi?

— 10–12 daqiqacha.

— Keyingisi qachon kelarkin, bilmaysizmi?

— Yana 4–5 daqiqada kelib qolar.

6. — Navoiy teatrigacha 37-avtobusda qanchada yetib borish mumkin?


— Taxminan, 10–12 daqiqada.

6-topshiriq. «Transportda» rolli o‘yinida ishtirok eting.

3-mashq. Gaplarni o‘qing, teng bog‘lovchilarning qo‘llanilishiga e‘tibor bering, gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Asaka avtomobil zavodi — O‘zbekiston avtomobil sanoatining yetakchi va to‘ng‘ich korxonasi. 2. Bu sexda mashina detallari joy-joyiga qo‘yiladi hamda sinovdan o‘tgan mashinalar zavod eshigidan chiqariladi. 3. Toshkent shahrida avtomobillarni ham sotish, ham sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatadi. 4. Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishda avtobus, trolleybus va tramvaylardan keng foydalaniladi. 5. Hozirgi kunda turli markadagi yo‘nalishli taksilar ham aholiga xizmat qiladi. 6. Aholiga yengil avtomobillardan tashqari, yuk avtomobillari hamda avtobuslarni sotib olishga ruxsat berildi. 7. Buning natijasida shaxsiy avto-transport sonida ham, tur tarkibida ham jiddiy o‘sish yuzaga keldi.

Uyga vazifa. Boshqotirmani yeching.



1. Yuk avtomobillari O‘zbekistonning qaysi shahrida ishlab chiqarila boshlagan.

2. Jamoat transporti turi.

3. Metro bekati nomi.

4. Avtomobilsozlik dastlab qaysi davlatda rivojlangan.

5. Yer osti transporti.

6. Germaniyalik avtomobil asoschilaridan birining nomi.

7. «UzDEU» avtomobillaridan birining nomi.

X. OILAM – TAYANCHIM VA FAXRIM

1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini qayta so'zlab bering.

Ota-onaga hurmat

Bolalar! Ota-onani hurmat qilish, ular oldida odob bilan turib, xizmatlarini bajarish hammamizning vazifamizdir. Ota-onalaringizni ranjitadigan so'zlar aytishdan, ko'ngillarini qoldiradigan ishlardan doimo saqlaning.

Aqlli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, kuchi yetganicha ular xizmatida bo'ladilar. Yomon so'z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o'zlarini saqlaydilar.

Ota-onalaringizni izzat-hurmat qilishga, ularning olqishlarini olishga harakat qiling. Har bir bola ota-onasi qilgan nasihatlarni diliga joylab, ularga har vaqt amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og'ritadigan bola baxtli bo'lmaydi.

L u g' a t

hurmat qilmoq – уважать

vazifa – долг, задача

ranjitmoq – обижать, огорчать

saqlanmoq – остерегаться

xizmatda bo'lmoq – служить

izzat-hurmat – уважение

nasihat – наставление, добрый совет

olqish – одобрение

g'ayrat qilmoq – придерживаться

dilni og'ritmoq – обижать

baxtli – счастливый

1-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Ularni tuzilishiga ko'ra shaxsi ma'lum va shaxsi noma'lum gaplarga ajratib ko'chiring va farqini izohlang.

Xizmatlarini bajarmoq, odob, ranjitmoq, olqish olmoq, amal qilmoq, baxtli bo'lmoq.



o'qib oling

O'zbek tilida gap ko'pincha egasiz (shaxs ko'rsatkichsiz) shakllanadi. Gapning kesimidagi shaxs-son qo'shimchalari orqali harakat-holat bajaruvchisining shaxsi (subyekt) aniqlanadi. Shaxsi ma'lum gaplarda kesim I va II shaxsdagi fe'llar bilan ifodalanadi. Masalan: (Men) *o'qidim*. (Siz) *yaxshimisiz*. (Men) *Onamni juda sog'indim*. (Biz) *Mehmonlarga palov pishirdik*. Bunday gaplar asosan dialogik nutqda qo'llanadi.

2-mashq. Do'stingiz bilan oilangizning an'analari, urf-odatları xususida suhbatlashing. Savol-javoblaringizda shaxsi ma'lum gaplarni qo'llang.

Namuna: — Abror, oilangizda qanday an'analarga amal qilaszlar?

— Ha, yaxshi odatlarimiz ko'p. Masalan, har oyning so'nggi shanba kuni teatrğa boramiz. Sizlar-chi?

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini o'z so'zlaringiz bilan aytib bering. Unda qanday gaplarni qo'llaganingizni izohlang.

Gul ochilar bahor chog'ida
Va to'lishar ona bog'ida.
Ona sevmas farzand topilmas,
Farzand yo'qdir onani sevmas.
Farzand guldır, ona bir bo'ston,
Shuning uchun jahon guliston.

(Hamid Olimjon)

3-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Onamni juda sog'indim

Yaqında onam kasal bo'lib qoldilar. Onamni tibbiy ko'rikdan o'tkazdik. Shifokor tavsiyasiga ko'ra ularni **davolanish uchun** ka-salxonaga yotqizdik.

Mana bir hafta o'tdi. Hammamiz, ayniqsa, singlim va men onamni juda sog'indik. Onamning mehribonliklari, shirin ovqatlarini sog'indik. To'g'ri, dadamlar ham bizni juda yaxshi ko'radilar. Ammo ishlari ko'p **bo'lganligi sababli**, dadamni ortiqcha bezovta qilishni istamaymiz.

Oilada har kimning o'z o'rni bor. Onamning vaqtincha yo'q-liklarini **bildirmaslik maqsadida** qo'limizdan kelgan yumushlarni bajaramiz. Bu ishimizdan dadamlar juda sevinadilar. Yana besh kundan keyin onam davolanib chiqadilar.

Onam va dadam bilan hamisha faxrlanamiz.



Topshiriqlar

1. Matnning tayanch so'zlarini toping.
2. *Tavsiya, sog'inmoq, mehribonlik, vaqtincha, sevinmoq* so'z-lari ishtirokida shaxsi ma'lum gaplar tuzing.

3. Xizmat safarida bo'lganida otangizni sog'inganligingiz to'g'risida yuqoridagiga o'xshash matn yarating.

4. Ajratilgan birikmalarning ma'nosini izohlang va ona tilinigizga tarjima qiling.

Yodda tuting!

Sababli, tufayli, uchun, ko'ra, ko'makchilari ish-harakatning sababini, *maqsadida, niyatida, uchun, deb* esa maqsadni ifodalashda qo'llanadi.

Uchun ko'makchisi harakat nomiga bog'langanda maqsad ma'nosini ifodalaydi: *o'qish uchun, uchrashmoq uchun* kabi.

-gani, -ganligi qo'shimchali fe'llar bilan qo'llangan *uchun* ko'makchisi sabab munosabatini bildiradi: *bergani uchun, kasal bo'lganligi uchun* kabi.

3-mashq. Berilgan so'zlarni tegishli maqsad, sabab munosabatini ifodalovchi ko'makchilar bilan bog'lab, sodda yoyiq gaplar tuzing.

Ahil, tartibli, talabchan, javobgar.

4-mashq. Maqollarning mazmunini izohlab bering va shu mazmundagi maqollardan topib yozing.

- Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tark etadi.
- Sharaf tojini izlama, ona rizoligini izla.
- Ota dong'i bilan o'g'il o'tadi, ona dong'i bilan — qiz.
- Aqlli kishisi bo'lmagan uy quyoshsiz osmonga o'xshaydi.

4-topshiriq. Mehmon kutish va mehmonga borish to'g'risida namunada ko'rsatilganidek dialoglar tuzing.

Namuna: — Nargiza, sen bilan bugun kutubxonaga borolmayman.

— Nima uchun bora olmaysan?

— Chunki uyimizga mehmonlar kelishadi. Bugun buvamlarning tug'ilgan kunlari.

—

5-topshiriq. Matnni o'qing va uning mazmuni asosida qisqacha bayon yozing.

Mehmondorchilik odobi

O'zbek xalqi qadimdan mehmondo'stligi bilan mashhur. Mehmondorchilikning o'ziga xos an'ana va udumlari bor. O'zini hurmat qilgan mezbon va mehmon bularga rioya qiladi. Kishilar qarindoshlari yoki yaqin do'st-birodarlarinikiga mehmonga boradilar. Xalqimizda «Chaqirilmagan joyga mehmonga borma» degan naql bor. Aytilmagan, taklif etilmagan joyga mehmonga borish odobdan emas. Odatda uy egasi bo'lgan mezbon mehmonni kutib olish uchun tayyorgarlik ko'radi. Shuning uchun mehmonga boradigan kun va vaqti haqida oldindan xabar yetkazish o'rinlidir.

Mehmondorchilikda «Mehmon — otangday aziz» degan hikmatga amal qilinadi. Mehmonlarga izzat-hurmat ko'rsatiladi. Mehmon ham shunga yarasha odob bilan ish tutadi. Dasturxon atrofida qo'pol so'zlar aytilmaydi, g'iybat qilinmaydi, baland ovozda gapirilmaydi. Shirin muomala bilan suhbatlashadilar, yaxshi xotiralarni esga oladilar, ezgu ishlarni rejalashtiradilar. Mehmon nojo'ya xatti-harakatlar qilmasligi, dasturxonga qo'yilgan ne'matlarga haddab qo'l cho'zmasligi lozim. Boshqalarga gap bermasdan gapiravering, uzoq vaqt mehmon bo'lib turish odob qoidasiga ziddir.

L u g ' a t

mehmondo'stlik — гостеприимство

qo'pol — грубый

udum — обычный

shunga yarasha — соответственно

naql — поговорка

nojo'ya — неприличное

6-topshiriq. Mehmoningiz bilan uning shajarasi (ajdodlari) haqida suhbatlashing. Shu mavzudagi dialogni davom ettiring. Unda shaxsi ma'lum gaplarni qo'llang.

— Bobongizni ko'rganmisiz?

— Ko'rganman.

— Birga yashaganmisizlar?

— Ha, bobom bilan bir hovlida yashar edik.

—

5-mashq. Berilgan gaplarning kesimini tegishli shaxs-son qo'shimchalari bilan to'g'ri shakllantirib daftaringizga ko'chiring.

1. Do'stimning oilasi bilan tanishdi... (-m, -san). 2. Har yili qishda oilamiz bilan Chimyonga bora... (-san, -miz). 3. Mehmonlar oldida o'zingni qanday tutishni bila... (-m, -san)mi? 4. O'ylab qarasa... (-m, -ng), tug'ishganlarimdan azizi yo'q ekan. 5. Qaysi qo'shiqni eshitishni xohlay... (-san, -siz)? 6. Marhamat qil... (-ing, -ngiz), bu taomlarni siz uchun pishirdi... (-miz, -k). 7. Mehmonlar oldida baland ovozda gapirma... (-ng, -m).

7-topshiriq. A. Qodiriyning «*O'tkan kunlar*» romanidan mehmon-dorchilikka oid parchani o'qing, so'ng ushbu matn mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkazing.

6-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni topib yozing va mazmunini aytib. Nima uchun shundayligini tushuntirib bering.

- a) ... har bir inson uchun muqaddas.
- b) ... oltindan qimmat.
- d) Erta ekan, o'rar.
- e) Salomatlik — boylik.
- h) Kitob — manbayi.

Uyga vazifa. Oilangizning an'analari haqida kichik matn tuzing.

XI. O'ZBEK OSHXONASIDA

1-mashq. Dialogni o'qing va uni davom ettirib, o'zbek taomlari haqida suhbatlashing.

- Lobar, yur biz bilan. Birga ovqatlanamiz.
- Bo'пти. Qani, qayerda yaxshi taom pishirishadi?
- Mana bu oshxonada. Mastava va mantisi juda mazali-da!
- Yo'g'-e?! Judayam maqtamayapsizmi?
- Aslo! Yeb ko'rib, rahmat deysan hali. Mastavaga shirin qatiq solib, ozgina murch sepsangiz, ishtahangiz ochiladi.
- Qoyil! Chindan ham mazali ekan.
-

1-topshiriq. Rasm asosida hikoya tuzing. Tuzgan gaplaringizda tushum kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zlarni qo‘llang.



Kishilar o‘rtasidagi so‘zlashuvda bir so‘zdan iborat gaplar keng qo‘llanadi. Bunday so‘z-gaplarni boshqa so‘zlar bilan kengaytirib bo‘lmaydi. **So‘z-gaplar** asosan modal so‘z, undovlardan tashkil topadi. So‘z-gaplar fikrni tasdiqlash (*ha, mayli, to‘g‘ri, rost, albatta, xo‘p*), inkor etish (*a?, xo‘sh? shundaymi? nahotki?*) va boshqa ma‘nolarni ifodalash uchun asosan dialogda qo‘llanadi.

2-mashq. Tushirib qoldirilgan so‘z-gaplarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. So‘z-gaplar orqali ifodalangan ma‘noni izohlang.

1. — Bugun palov pishirasizmi? — ... 2. Eshitdingmi, akam bizni restoranda ovqatlantirar ekanlar?! — ... ? 3. Sening xonang juda shinam ekan-a? —... 4. Ertaga kutubxonaga boramizmi? — ...

2-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Birga ovqatlanamiz

Katta tanaffuzda uch dugona — Nargiza, Nasiba va men birga ovqatlanishga odatlanganmiz. Kollejimizning oshxonasi uncha katta emas, ammo juda shinam va toza. Bosh oshpaz Nazokat opa har kuni turli taomlar pishiradilar. Kecha qaynatma sho‘rva va palov bor edi. Bugungi taomnomada chuchvara, lag‘mon va shavla yozil-

gan. Doim uchalamiz bir xil taom yeymiz. Ammo suv va salatni alohida tanlaymiz. Men pomidor sharbatiga ozroq tuz solib ichishni xush ko'raman. Nargiza olma sharbatini yoqtiradi. Nasiba esa oddiy mineral suvni yaxshi ko'radi. Uchalamiz ham nonni oz iste'mol qilamiz. Agar non issiq bo'lsa, darrov yeb tugatamiz. Keyin taomni oxirigacha yeya olmaymiz.

To'g'ri va tartibli ovqatlanish sog'liqni mustahkamlaydi. Shuning uchun o'z vaqtida, me'yorida ovqat yeyishga harakat qilamiz. Oshxonada uzoq suhbatlashib o'tirib qolmaymiz. Chunki ovqatlanish paytida ko'p gapirish odobdan emas. Oshxonadan chiqib, kollej hovlisida bir oz sayr qilamiz. Bu yegan ovqatlarimizning tez hazm bo'lishiga yordam beradi va uchalamiz miriqib suhbatlashamiz.



Topshiriqlar

1. Matnning tayanch so'zlarini aniqlang.
2. *Oshpaz, pishirmoq, sharbat, taomnoma, me'yor* so'zlari ishtirokida o'zingiz mustaqil gaplar tuzing.
3. Matndagi taom nomlarini aniqlang va ularni tavsiflang.
4. O'zingiz kimlar bilan va qanday ovqatlanishingizni matn mazmuni asosida qayta hikoya qiling.

3-topshiriq. Do'stingizdan qanday o'zbek taomlarini xush ko'rishini va bugun qanday taomlarni iste'mol qilganligini so'rang va shu mazmunda dialog tuzing.

Yodda tuting!

Otlarga **-dagi** qo'shimchasini qo'shish orqali narsa-hodisaning o'rniga ko'ra belgisi ifodalanadi: *idishdagi ovqat, muzlatgichdagi go'sht* kabi.

Shaxs yoki narsalarning bir-biriga o'xshashligi **-day, -dek** qo'shimchalari bilan ifodalanadi: *no'xatday, olovdek, otasiday, oshpazday* kabi.

3-mashq. Badiiy asarlardan parchalar tanlab o'qing, ulardagi o'rinjoy va o'xshatish ma'nolarini bildiruvchi so'zlarni aniqlab, ona tilingizga tarjima qiling.

4-topshiriq. Berilgan rasmdagi taomlarni tavsiflang va ularning qanday tayyorlanishi to'g'risida suhbatlashing. Gaplaringizda **-day**, **-dek**, **-dagi**, qo'shimchali otlarni qo'llang.



Uyga vazifa. Yaxshi ko'rgan taomingizning qanday tayyorlanishi haqida tavsiya yozing.

XII. MAISHIY XIZMAT

1-topshiriq. «Sartaroshxonada» mavzusida rolli o'yin o'ynang.

1-mashq. Berilgan gaplarni so'roq gaplarga aylantirib, ko'chiring.

1. Men bugun sartaroshxonada sochimni kestirdim. 2. Mav-luda ko'ylagini juda chiroyli qilib tiktiribdi. 3. Otam bugun te-levizorimizni ustaxonada tuzattirdi. 4. Onam paltosini kimyoviy tozalashga berdi. 5. Biz uyimizga «Elita» uslubida parda tiktirdik. 6. Sartarosh kelib buvamning soqolini olib qo'ydi. 7. Biz gilam-chilik sexiga sayohat qildik. 8. Biz guruhimiz talabalari bilan qan-dolatchilik fabrikasida shirinliklarning tayyorlanishini kuzatdik.



uzb oling

O'zbek tilida so'roq gaplar quyidagi vositalar bilan hosil bo'ladi:

1. So'roq olmoshlari orqali: *Ustaxona qayerda?*
2. So'roq yuklamalari yordamida: *Televizorni tuzatishga buyurtma qabul qilasizmi?*
3. So'roq ohangi orqali: *Ertaga tayyor bo'ladi?*

2-topshiriq. Matnni o'qing, so'roq gaplarni aniqlang va qanday vositalar yordamida hosil bo'lganini aiting.

Kimga nima aziz? (*hikoyat*)

Bir dono hakimning aqli zukko, odob-axloqli shogirdi bor edi. U xonadonida saksondan oshgan onajonisi va asrandi yetim ukasi bilan yashar edi. Bir kuni hakim zukko shogirdini qarshisiga o'tqazib, savol-javob bilan uning dunyoqarashini imtihon qildi.

— Ey, aziz farzandim, mening tarbiyamda o'sib-ulg'ayding, hayotning past-balandini ko'rib kamol topding... Endi sendan bir narsani so'ramoqchiman.

— Vujudim bilan tinglayman, ustoz, so'rang.

— Dunyoda eng aziz, eng mo'tabar deb nimani bilasan? Hayotingda nimalarga qattiq e'tiqod qo'ygansan?

Shogird bir oz o'ylanib, shunday javob qildi:

— Dunyoda bashariyat quyoshini, onamning sakson yoshini, yetimning ko'z yoshini eng mo'tabar deb bilaman.

— Bu gapingning ta'rifi qanday bo'ladi?

— Bashariyat quyoshi — bu insonlarning ustozlari bo'lgan dono ustozlar, sakson yoshli ona — bu farzandiga qaram, mushfiq inson, uni e'zozlash kerak, yetim ko'z yoshi — bu yetti daryoni quritadi, uning haqiga xiyonat qilmay, o'ksitmay kamol toptirish kerak.

— Balli zukko o'g'lim, — dedi dono hakim shogirdiga. — hayotga, odamlarga shunday e'tiqod bilan qarasang, bir umr baxt-saodat topasan.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring va so'roq ma'nosini hosil qiluvchi vositalarni ma'nodoshlari bilan almashtiring.

1. Men nechun sevaman O'zbekistonni? 2. Qaysi do'konda bo'yoq sotiladi? 3. Shimimni bugun tikib berasiz-a? 4. Nahotki tekinga tuzatasiz? 5. Shogirdingiz kimning buyurtmasini bajardi?


3-topshiriq. Rasm asosida bank xizmati haqida savol-javob tarzida matn tuzing.



4-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Gilamchilik sanoati

Gilamchilik sanoati — tabiiy (hayvon juni, o'simlik tolasi) va sun'iy toladan turli xil gilam ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog'i. Gilamchilik badiiy hunarmandlik sohasi sifatida turli davlatlarda o'ziga xos shaklda rivojlanib kelgan. Sanoat tarmog'i sifatida XX asrda shakllandi. Bu davrga kelib gilam to'qiydigan maxsus artellar paydo bo'ldi, uni qo'lda to'qishdan asta-sekin mashinada to'qishga o'tila bordi. O'zbekistonda 1978-yilda Xiva gilam to'qish kombinati tashkil etilishi bilan gilamchilik sanoati mahalliy sanoat-



ning muhim tarmog'iga aylandi. Keyinchalik gilam to'qiydigan korxonalar soni ortib borishi natijasida gilamchilik sanoati alohida sanoat tarmog'i sifatida ajralib chiqdi. Gilam to'qish ayniqsa mahalliy sanoatdagi eng rivojlangan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Buxoro, Shahrisabz, Urgut, Nurota, Bulung'ur va boshqa shaharlardagi korxonalarda qo'lda to'qilgan gilam va paloslarda mahalliy uslub va badiiy usullar saqlanib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, xalqaro aloqalarning mustahkamlanib borishi bilan gilamchilik sanoati korxonalariga chet mamlakatlar yirik firmalarining zamonaviy texnologiyalari va asbob-uskunalari keltirib o'rnatildi, shuningdek, qo'shma korxonalar tashkil etildi. «Xiva gilami» aksiyadorlik jamiyati shunday korxonalardan biridir. Bu korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksport qilinmoqda.

(O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasidan.)



Savdo va tuz

1. Gilam nimadan tayyorlanadi?
2. O'zbekistonda gilamchilik qanday paydo bo'lgan?
3. Gilam to'qish korxonalaridan qaysi birini bilasiz?
4. Gilamchilik bo'yicha chet mamlakatlar bilan hamkorlik qanday amalga oshirilyapti?
5. Siz qanday turdagi gilamlarni bilasiz?
6. «Xiva gilamlari» mavzusida dialog tuzing.

XIII. SAVDO MADANIYATI

1-topshiriq. Buyuk ipak yo'li haqida suhbatlashing va namunadagidek dialoglar tuzib, daftaringizga yozing.

- Abdulla, Buyuk ipak yo'li haqida eshitganmisan?
- Albatta, eshitganman. O'rta asrlarda Sharqdan g'arbgacha ulkan savdo yo'li bo'lgan.
- Ayt-chi, bu yo'l qaysi shaharlardan o'tgan?
- Juda ko'p shaharlardan o'tgan. Markaziy Xitoydan boshlanib, Qashqar, O'sh, Andijon, Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Marv, Boku, Istanbul, Qohira kabi yuzlab shaharlarni bir-biriga bog'lagan.
- Savdogarlar nimalar bilan savdo qilishganini ham bilasanmi?
- Ha, bilaman

Buyuk ipak yo'li

Shosh viloyati o'rta asrlarda chet o'lkalarga charmdan ishlangan buyumlar, ot terisidan qilingan egarlar, o'qdonlar, qog'oz va g'alla chiqargan. Ammo, Toshkent viloyatiga qarashli Iloq konlaridagi kumushning dovrug'i butun Yevropaga mashhur edi. Iloq kumush-qo'rg'oshin qazib chiqarish markazi bo'lib, unda Movarounnahrning uchinchi zarbxonasi ochilgan. Kumush konlari bo'lmagan Sharqiy Yevropa uni O'rta Osiyodan keltirgan.

IX—X asrlarda karvon savdosi Janubiy-Sharqiy Yevropani O'rta Osiyo, shuningdek, Eron va Kavkaz orqali Mug'uliston va Xitoy bilan bog'lagan. Bu yo'lning tasvirini arab xalifasi ibn Fadlan o'z taassurotlari haqidagi xotirasida keltirgan. Uning yozishicha, bu yo'llarda kesilgan toshlardan qilingan va chetlari tosh bilan ishlangan quduqlari bo'lgan hashamatli karvonsaroilar borligi diqqatga sazovordir. O'rta Osiyo va Yevropada o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman savdogarlarini millatidan qat'i nazar, bir nom bilan «Musulmon savdogarlari» deb atashgan.

Xitoyda musulmon savdogarlari molni molga ayirboshlashsa, Yevropada ularning kumush tangasi ham pul bo'lib, ham tovar bo'lib xizmat qilgan. Rus savdogarlari esa O'rta Osiyoning kumush pullariga o'ch bo'lishgan va bu tangalarga Sharqiy Yevropada ham talab kattaligini tarixchilar yozib qoldirishgan. Ayniqsa, somoniy-lar davrida karvon savdosi gullab-yashnagan. Bu savdo bir tomondan xazarlar bilan, ikkinchi tomondan bulg'orlar bilan olib borilgan. Volga bo'yidagi ikki poytaxtda — Itil va Bulg'orda yirik bozorlar bo'lgan.

X asrda savdo-sotiqda cheklar qo'llanilgan. Pul muayyan shaharda savdogarlarning ishonchli kishisi — sarrofga berilib, undan tegishli hujjat — chek olingan.

«Qutadg'u bilig» asari muallifi Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy savdogarlarning jamiyatdagi o'rnini ta'riflab, «Agar karvonlar savdo qilmay qo'ysalar, sen o'n minglarcha qimmatbaho narsalarni qayerdan olasan? Savdo ahllari bilan chiqish, ularga o'z eshigingni ochib qo'y» — degan edi.

L u g' a t

charmdan ishlangan — сделано из кожи
kumush — мед
qo'rg'oshin — олово
zarbxona — детский цех
mukammal — полноценный

ayirboshlash — обмен
sarrof — банкир
talab — потребность
chiqishmoq — помириться



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing va javob bering.
2. *Kumush, karvon, ayirboshlash, chek* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.
3. Matnning ajratilgan qismini ona tilingizga tarjima qiling.

1-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Uyimiz yonida (keng, ikki qavatli, qog'ozli) supermarket qurildi. 2. Yangi qurilgan bozorning (yo'llari, rastalari, ko'priklari) ko'p, ularda (turli, baland, boy) meva va sabzavotlar sotiladi. 3. Do'konning poyabzal bo'limidan charm (ko'ylak, do'ppi, tufli) sotib oldim. 4. Nazoratehi savatdagi barcha oziq-ovqatlar (qand, paypoq, pishloq, sovun, saryog')ni hisoblab ko'rdi. 5. Buvam bozorni aylanib (xushbo'y, katta, yassi, uchburchak) bir qovunni tanladilar.

3-topshiriq. Rasm asosida do'stingiz bozordan nimalar olishi mumkinligini aytib bering.





Muayyan tuzilishdagi qo'shma gapni uning mazmunini saqlagan holda boshqa turdagi qo'shma gapga aylantirish mumkin. Qo'shma gapning ma'nodoshini hosil qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

— bog'langan qo'shma gapning qismlarini biriktiruvchi vositalarni qisqartirish orqali uni boshqa turdagi qo'shma gapga aylantiriladi: *Ko'prik qurildi va savdo-sotiq rivojlandi.*

— *Ko'prik qurilgach, savdo-sotiq rivojlandi.*

— bog'lovchisiz qo'shma gapga bog'lovchi vositalarni qo'shish orqali uni boshqa turdagi qo'shma gapga aylantiriladi: *Tadbirkorlikka yo'l ochildi, mahsulotlar ko'paydi. — Mahsulotlar ko'paydi, chunki tadbirkorlikka yo'l ochildi.*

2-mashq. Xaritadan foydalanib, unda ko'rsatilgan joy nomlari ishtirokida qo'shma gaplar tuzing, so'ng ularni partadoshingiz tuzgan gaplar bilan solishtiring va farqini tushuntiring.



4-topshiriq. Rivoyatni o'qing, so'ng matndagi bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarni aniqlang. Bu gaplar qismlari orasiga teng yoki ergash-tiruvchi bog'lovchilarni qo'yib, yangi turdagi qo'shma gaplar yasang va ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.

Bir savdogar o'n tuya mol olib yo'lga tushibdi. Ancha yo'l bosib charchabdi va birinchi tuyaga minib karvonni boshlab keta- veribdi. Bir payt tuyalarini sanasa, to'qqizta chiqibdi.

— O'nta tuyam bor edi, bittasiga nima bo'ldi? — deb tuyadan tushib atrofni qidirsam, tuya yo'q. Qaytib kelib sanasa, yana o'nta chiqibdi. Suyunib yo'lida davom etibdi. Bir oz yurgandan keyin yana charchabdi, tuyaga minib olibdi-da, qolganlarini sanabdi: to'qqizta chiqarmish. Yana tuyadan tushib, atrofni qidiribdi, tuyadan darak yo'q. Keyin o'ylabdi: tuyaga minsam bitta kamayar ekan, piyoda yursam tuyam yo'qolmas ekan. Shunday qilib, kaltafahm savdogar piyoda ketgan ekan.

3-mashq. «Savdo rastasida» mavzusida namunadagidek dialoglar tuzing.

Namuna:

— Yangi ko'ylaklarni ko'rsam bo'ladimi?

— Marhamat, ko'ring. «Kosontekstil» qo'shma korxonasida tikilgan, narxi arzon.

— Men mahalliy mahsulotlardan olmoqchiman. Ayting-chi, qancha turadi?

— O'n ming so'm. Ma'qul bo'lsa, pulini kassaga to'lang.

— Plastik kartochkamdan to'lasam bo'ladimi?

— Albatta.

— Marhamat kartochkamni oling

— Rahmat.

— Do'konimizga yana kelib turing.

Uyga vazifa. Savdo madaniyati haqidagi fikr-mulohazalarin- gini ifodalab, ijodiy matn yarating.

XIV. SHARQ BOZORI NE'MATLARI

1-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Kuz ne'matlari

Kuz faslini yoqtirmaydigan kishi bo'lmasa kerak. Ayniqsa, bizning quyoshli yurtimizda kuz o'z saxiyligini to'la-to'kis namoyon qiladi. Bahor va yozda qilingan mashaqqatli mehnat kuzda o'z samarasini beradi. Halol mehnatning qadrini shunda bilsa bo'ladi. Avvalo, paxta terimi boshlanadi. Paxtani qishning yog'inli kunlariga qoldirib bo'lmaydi. Chunki paxta farovonligimiz manbayi hamdir.

Serquyosh yurtimizning dala va bog'larida yetishgan barcha ne'matlar bo'liq va totli bo'ladi. Shuning uchun ham poliz ekinlarimizga chet ellarda ehtiyoj katta. Endilikda ko'plab sabzavotlar shu yerning o'zida qayta ishlanib, xorijga eksport qilinmoqda. Bog'lardan terib olingan shirin-shakar mevalar omborlarga joylashtiriladi. Sovuqxona va yerto'lalarda mevalar uzoq muddat saqlanadi, qish-u bahorda bozorlarni to'ldirib turadi. Kuz ne'matlari bahorgacha tanamizni foydali vitaminlar bilan oziqlantirib turadi. Shuning uchun yig'im-terim paytida meva va sabzavotlarni nobud qilmay terib olishimiz, ehtiyotlab saqlashimiz lozim.

L u g ' a t

quyoshli – солнечный

bo'liq – раскрытый, спелый

to'la-to'kis – целиком, полностью

qayta ishlamoq – переработать

samara – результат

oziqlantirmoq – впитывать

yog'inli – дождливый

nobud qilmay – не испортив



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini o'z fikrlaringiz bilan to'ldirib qayta so'zlab bering.
2. Matnning tayanch so'zlarini aniqlang.
3. *Saxiy, mashaqqatli, ehtiyoj, foydali* so'zlari ishtirokida yoyiq gaplar tuzing va ko'chirib yozing.
4. Kesimi *bo'ladi, kerak, lozim* so'zlari yordamida shakllangan gaplarni ma'nodoshlari bilan almashtirib, yangi gaplar tuzing.



Bilib oling

O'zbek tilida kesim orqali harakat bajaruvchi shaxsni to'pib bo'lmaydigan gaplar ham mavjud. Bunday shaxssiz gaplarda egani qo'llab bo'lmaydi. Shaxssiz gaplarning kesimi odatda tarkibli kesim shaklida bo'lib, fe'l qismi III shaxsda qo'llanadi. Tarkibli kesim quyidagicha tuziladi:

a) ravishdosh + *bo'lmoq* fe'lining inkor shakli: *Bu ishni bajarib bo'lmaydi.*

b) shart maylidagi fe'l + *bo'lmoq* fe'lining tasdiq shakli: *Musobaqada qatnashsa bo'ladi.*

d) harakat nomi + *kerak, zarur, lozim, shart, mumkin* so'zlari: *Har bir qoidaga e'tibor berish zarur.*

2-topshiriq. Sheʼni ifodali oʻqing, kuz neʼmati boʻlgan qovunlar qanday taʼriflanganini ayting.

Xorazm qovuni

Dasturxonda Xorazmning
Qirqmasidan bir tilim,
Yulduzli koʻk sahnidagi
Hilolaga oʻxshaydi.

Bu qirqmalar bizga atab
Sharbat toʻla limmo-lim,
Muqaddas yer tutgan oltin
Piyolaga oʻxshaydi.

Taʼriflamay mazasini,
Tatib koʻring siz bir bor,
Xazorasping boli kabi
Labingizda erigay.

Qirqma agar boʻlsa arzir
Toleyidan minnatdor,
Unga Vatan nasib boʻlmish
Amudaryo yeriday . . .

(*Erkin Vohidov*)

1-mashq. Berilgan soʻz birikmalaridan shaxssiz gap kesimini shakllantirib gaplar tuzing.

N a m u n a : qovunni yemoq – Bu qovunni yesa boʻladi.

1. Mevalarni sotmoq. 2. Koʻrgazma uyushtirmoq. 3. Dehqon mehnatini qadrlamoq. 4. Kartoshkani tanlab olmoq. 5. Olmani yuvib yemoq. 6. Sabzini sovuqdan asramoq. 7. Uzunni osib qoʻymoq. 8. Bodringni tuzlamoq.

3-topshiriq. Berilgan tasvir asosida matn yarating. Matn tuzishda joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi yordamida bogʻlangan quyidagi birikmalardan foydalaning.

Do'konga kirmoq, mevalarga qaramoq, savatga solmoq, dehqonchilikka qiziqmoq, ming so'mga sotmoq, konservalashga olmoq, quvonchga to'lmoq, ertaga kelmoq.



Yodda tuting!

O'zbek tilida jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan so'z quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Harakat yo'nalishini: ***Xaridorga*** (kimga?) *tarvuz uzatdi.*
2. Harakat o'rnini: ***Do'konga*** (qayerga?) *kirdi.*
3. Paytni: ***Sotishni ertaga*** (qachon?) *boshlaymiz.*
4. Narx-qiyamatni: ***Yong'oqni uch ming so'mga*** (qanchaga?) *oldim.*
5. Harakat maqsadini: ***Ko'ylak tikishga*** (nima maqsadda?) *ipak mato olasiz.*
6. Harakat sababini: ***Ko'proq uzum olmaganiga*** (nima uchun?) *afsuslandi.*

2-mashq. «Kuzgi tashvishlar» mavzusida jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'llab namunadagidek dialoglar tuzing va ularni davom ettirib daftaringizga yozing.

N a m u n a :

- Abror, qayerga ketyapsan?
- Bozorga.
- Bozordan nima olmoqchisan?
- O'rik olishim kerak. Hozir uning sharbatini olsa bo'ladi. Uni qishga asrab qo'yamiz. O'zing-chi, nima xarid qilmoqchisan?

— Oyimga pomidor bilan bodring olaman. Ertaga ularni tuzlar ekanlar. Vaqtli-ku, keyinroq qilsak ham bo'lsa kerak, desam, bugungi ishni ertaga qoldirib bo'lmaydi, deb tanbeh berdilar.

— Akmal, oying bekorga aytmaganlar. Keyin tuzlama qilishga kech bo'ladi-da! Yur, birgalashib xarid qilamiz.

4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing, jo'nalish kelishigidagi so'zlarning ma'nosini izohlang.

Har faslning o'z xislati bor,
Har faslning o'z fazilati.
Kumush qishdan, zumrad bahordan
Qolishmaydi kuzning ziynati.

Bog'ga kirdim, shaftoli, uzum
Sharbatlarga to'lib pishibdi,
Oltin nashvatilar, yoqut olmalar
Uzilib tagiga tushibdi.

Kuz keldi, bizlarga kumush kosada
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.
Savat-savat qilib shirin mevalar,
Omborlar liq to'la don ola keldi.
Keng vodiylar bilan, dala bilan bir
Paxta ola keldi — shon ola keldi...

(Uyg'un)

3-mashq. «Meva» va «Sabzavot» so'zlarining uyadoshlarini aniqlang, keyin ushbu so'zlarga oid topishmoqlardan topib yozing.

Uyga vazifa. «Dehqon mehnatining qadri» mavzusida matn tuzing. Matnda jo'nalish kelishigidagi birikmalarni qo'llang.

XV. SOG'LIK — TUMAN BOYLIK

1-mashq. Betob bo'lib qolgan do'stingiz bilan uning sog'lig'i haqida suhbat matnini yozing.

Foydalanish uchun so'z birikmalari:

O'zingni ehtiyot qil, dorilarni vaqtida ichmoq, tez-tez ovqatlanmoq, kasaling o'tib ketadi, sog'lig'ingni asra, tez sog'aymoq.

1-topshiriq. Matnni o'qing va uning asosiy mazmunini so'zlab bering.

Badantarbiya

Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiyadir.

Mo'tadil ravishda o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam kasalga chalinmaydi.

Badantarbiya tug'ma issiqlikni oshiradi, tanaga yengillik beradi. Chunki u yengilgina issiqlik paydo qiladi, tanada to'planuvchi chiqindilarni yo'qotadi.

Badantarbiya turlariga kelsak, ular quyidagilar: yengil harakatlar bilan turli mashqlarni bajarish, yoydan o'q otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, ikki qo'lini silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchlarida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib harakat qiladi. Bular tez harakatlar jumlasidandir.

Badantarbiya bilan shug'ullanuvchi avvalo gavdasini tayyorlash uchun oldin gavadani qattiq mato bilan ishqalashi kerak. Bunda u tetiklashib, terisining teshiklari kengayadi.

Lug'at

mo'tadil — нормально

osilish — втягиваться

yengillik — лёгкость

chiqindi — отход

ishqalamoq — протереть

2-mashq. Gapnlarni ko'chiring, kesimlik qo'shimchalarini ajratib, ma'no va vazifasini izohlang.

1. Bemor og'riqdan gapirolmay yutindi. 2. Do'sti hol-ahvol so'ramagani uchun biroz o'pkalandi. 3. Bu xona anchadan beri tozalanmagan, pardalar yuvilmagan. 4. Kechgacha sizga barcha dori-darmonlar yetkaziladi. 5. U har doim yaxshilab yuvinadi, ko'chaga chiqishdan oldin issiq kiynadi.

Yodda tuting!

Fe'lning o'zlik nisbati obyektli fe'llarga **-(i)n**, **-(i)l** qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Bunday fe'llar harakat obyektini ko'rsatmaydi.

Majhul nisbatdagi fe'llar qo'llangan gaplarda esa subyekt ifodalanmaydi. Bu fe'l shakli ham **-(i)n, -(i)l** qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Qiyoslang: *Anvar yuvindi* (o'zlik nisbati). — *Parda yuvildi* (majhul nisbat).

3-topshiriq. O'rtog'ingiz o'z salomatligini qanday mustahkamlaganligi haqida hikoya yozing. Gaplaringizda o'zlik va majhullik nisbatidagi fe'llarni qo'llang.



O'zbek tilida qo'shma gaplar tarkibidagi kamida ikkita sodda gapning o'zaro teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar hamda ohang yordamida bi-rikishiga ko'ra farqlanadi.

Teng bog'lovchilar va ayrim yuklamalar vositasida mazmunan birikkan sodda gaplar **bog'langan qo'shma gap** sanaladi.

Bu vositalar quyidagilardir: *va, ham, hamda, ammo, lekin, balki, yo, yoki, dam, na* kabi bog'lovchilar:

-u, -yu, -da shakllari.

Masalan: *O'qidim, ammo u eshitmadi.*

Yo sen kelasan, yo men boraman.

U do'stining uyiga bordi-yu, ichkariga kirmadi.

3-mashq. Gaplarni ko'chiring, qo'shma gaplarning qismlari bir-biri bilan qaysi vosita orqali bog'langanligini aniqlang.

1. Akmal do'stiga yordam berdi va do'sti Alisher unga minnatdorchilik bildirdi. 2. Bugun yo sen tennis o'ynaysan, yo men boshqa o'yingohga ketaman. 3. Eshik sekin ochildi, Asadulla inqillab kirib keldi. 4. Kasallik tez yuqadi, lekin odamlar undan darrov qutula olmaydilar. 5. Yo'lda dam oyog'im og'ridi, dam yo'talim tinchlik bermay qiynadi.

4-**marshq**. Quyidagi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Bu gaplarda *va, ham, ammo, yoki, baʼzan* bogʻlovchilarini qoʻllashga harakat qiling.

Jismoniy, kiyinmoq, davolanmoq, shugʻullanmoq, parhez, chiniqqan, hamshira, tashxis, tibbiy nazorat.

4-*topshiriq*. Matnni oʻqing va uning tayanch soʻzlarini aniqlab, maʼnolarini izohlang.

«Salomatlik» degan soʻzni koʻp eshitamiz, ammo uning maʼnosini hamma ham bilmaydi. Buning umumiy maʼnosi kishi organizmning atrof-muhit bilan doimo dinamik muvozanat holatida boʻlishidir.

Biz tinch, osoyishta turmush kechirishni istaymiz va doimo uy-roʻzgʻor tashvishida yashaymiz. Bu odatimiz yaxshi, ammo ortiqcha oʻy-tashvishlar bilan baʼzan asabimiz taranglashadi. Bu esa asab tizimimiz va tana aʼzolarimizda turli buzilishlarga, noxushliklarga olib keladi.

Buning uchun odam oʻziga oʻzi sogʻlom turmush tarzini yaratishi va doim unga amal qilishi kerak.

Dam qattiq hayajonlanish, dam zararli odatlarga berilish sogʻlikka ziyon yetkazadi. Zararli odatlardan voz kechib, ruhiy hayajonlanishning oldini olsak va ovqatlanish, mehnat qilish hamda dam olishni toʻgʻri tashkil etsak, shuningdek, atrofimizdagi ekologik vaziyatni sogʻlomlashtirsak, sogʻligimizni asragan boʻlamiz.

Hayotda sogʻlikni saqlash va mustahkamlashga oid bilimlar, vositalar va usullar mavjud, lekin kishilar bulardan toʻliq foydalanmaydilar.

5-*topshiriq*. Berilgan tasvir asosida suhbatlashing va oʻz sogʻligingizni qanday mustahkamlayotganligingiz haqida hikoya qiling.



5-mashq. Matnni dialogik shakldan monologik shaklga aylantiring va sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib ko'chiring.

Tan sihatlik — tuman boyluk

O'tgan zamonda bir qashshoq donishmand cholning oldiga kelib:

— Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo'q, juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan, — debdi. Chol:

— Sen kambag'al misan? — desa, u:

— Ha, bola-chaqalarim va o'zim ochman, kiyim-kechagim yo'q, — deb zorlanibdi. Chol:

— Xo'p, bo'lmasa, menga o'ng qo'lingni sot, necha pul beray, desa, haligi yigit:

— Yo'q, o'ng qo'lim o'zimga kerak, sotmayman, debdi. Shunda chol:

— Bo'lmasa, o'ng ko'zingni sot, — debdi. Yigit:

— Nega men o'ng ko'zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, — debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a'zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit «Yo'q» javobini qaytaravergach, chol yigitga:

— Ha, butun a'zolaring sog' bo'lsa, tushmushdan zorlanib nima qilasan. Kishining tan-joni sog'ligi tuman boyligi-ku. Sog' bo'lsang, qanday ish bajarsang qo'lingdan keladi, kuning o'tadi, — deb javob qaytargan ekan.

6-topshiriq. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing va ularga javob bering.

7-topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing va ma'nosini sharhlang.

1. Sog'lom tanda — sog' aql.
2. Salomatlik — tuman boyluk.
3. Baxtimizning o'ndan to'qqiz ulushi sog'ligimizga bog'liq. (A. *Shopengauer*).
4. O'z vaqtida, me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi. (*Ibn Sino*).
5. Ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmaydi. (*Suqrot*).

Uyga vazifa. Shifobaxsh o't-giyohlar tilidan qanday kasalliklarning oldini olishda foydali ekanliklarini so'zlab dialoglar tuzing. Bunda bog'langan qo'shma gaplardan ham foydalaning.

XVI. DAM OLIISH VA TA'TIL

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Sayr qilish qoidasi

Kishi sayr etish yoki vaqtini xushlash uchun gulzorlardan, yam-yashil bog'lardan, ko'm-ko'k maysazorlardan o'zga joyga bormaydi. Sayrga chiqqanda quyidagi yetti qoidaga rioya qiling:

1. Sayrda senga tuhmat qilishi mumkin bo'lgan kishi bilan hamroh bo'lma.

2. O'zganing bog'i yoki gulzoriga ruxsatsiz kirma.

3. Sokin va xilvat joylarga tabiiy ehtiyoj tug'ilgandagina bor.

4. Kishilar ko'z oldida yechinma.

5. Notanish kishilar bilan zarurat tug'ilmasa gaplashma.

6. Har bir kishini yuksak ruh egasi deb his qil.

7. Albatta, o'z uyingga qaytib tunagin.

(A. Avloniy).

1-mashq. Suhbat matnidagi bo'sh o'rinlarni to'ldiring va dialogni davom ettiring. Vergul bilan ajratilgan so'zlar va so'z birikmalarini bir-biridan qanday farqlanishini tushuntiring.

Suhbat

— Men, albatta,...

— Shunday bo'lishi tabiiy, chunki siz bu maqsad yo'lida ...

— Menimcha, (bizningcha) Aziz ham ...

— Shunday bo'lsa, u maqsadiga ...

— Birinchidan, u o'z orzusiga erishish uchun...

— Ikkinchidan, har qanday harakat (intilish, mehnat)ning ...

—...

Yodda tuting!

Fe'ning birgalik nisbati fe'l o'zagiga **-(i)sh** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Qo'shma fe'llarda bu nisbat qo'shimchasi yordamchi (oxirgi) fe'lga qo'shiladi.

Qiyoslang: borishdi — olib borishdi.

olishdi — olib ketishdi.

2-mashq. Matnni o'qing. Unga sarlavha toping. Gaplarning kesimini birgalik nisbatida qo'llab, daftaringizga ko'chiring.

Toshkentdan 85 kilometr chamasi sharq tomonga yursangiz, tog'lar bag'ridagi xushmanzara vodiya yetib olasiz. Bu vodiya Chimyon deb ataladi.

Chimyon havosi toza, salqin va orombaxsh. Chimyonda bolalar oromgohlari va dam olish uylari qurilgan.

Chimyon vodiysi yam-yashil o't va butalar bilan qoplangan. Bu yerda yong'oq, tog'olcha, bodom, yovvoyi olma, do'lana, zirk, qayin daraxtlari ko'p.

Chimyon tog'larida quyon, tulki, kaklik, kaptar, zag'izg'on, popishak, qarqunoqlarni uchratish mumkin.

Saraton kunlarida Chimyonning musaffo, salqin havosidan to'yib-to'yib nafas olasiz. Qishda chang'ida yurib, tepalikdan tushishning o'z gashti bor.

3-mashq. Matnni o'qing. Payt ma'nosini ifodalovchi so'z va birikmalarni aniqlab, ona tilingizga tarjima qiling.

Shunday bog' bor

Bu yerga har kuni minglab hamshaharlarimiz kelishadi. Bu yerda kishi nafaqat dam oladi, shu bilan birga, insoniyat hayvonot olamidani qanchalar uzoqlashayotganini, ko'p jonivorlar allaqachon «Qizil kitob»ga kirganini his etadi. 1924-yil Toshkentda chor Rossiyasi sobiq general-gubernatorining shabardan tashqaridagi dala hovlisida O'rta Osiyo Davlat dorilfununi biolog olimlari tashabbusi bilan hayvonot bog'i tashkil qilingan. Bog'ni tashkil etishda uning birinchi direktori professor M. Laptevning xizmati katta. Hayvonot bog'i dastlab ish boshlaganda unda atigi bir nechtagina hayvon bor edi.

1930-yilda qushlar va sut emizuvchilar bo'limlari tashkil etildi. 1933-yilda esa terpatologiya (zaharli ilonlarni o'rganish va medicina uchun uning zaharini olish) bo'limi ochildi. Shu vaqtning o'zida ilmiy-tekshirish va ommaviy-madaniy tadbirlar sho'balari ish boshladi. Ular Ashgabad, Termiz, Dushanbe, Almati shaharlarida hayvonot bog'i tashkil etilishida katta amaliy yordam berdilar. Hozirda Toshkent hayvonot bog'iga keng hudud ajratilgan bo'lib, u juda katta maydonni egallaydi.

2-topshiriq. O'z viloyatingizda uchratish mumkin bo'lgan qush, hayvon va daraxtlar nomlarini daftaringizga yozing, ularni ona tilingizga tarjima qiling.

4-mashq. She'rnifodali o'qing. Mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

Burgut

Yosh burgut uchmoqda ko'kda shiddatkor,
Kumush bulutlarning to'zg'itib parin.
Uchmoqda, qalbida mag'rur ishonch bor,
Qaqshagan qoyalar, cho'qqilar sari.

Uchmoqda! Qayerga? Cho'qqiga! Nechun?
Burgutning shiddatin uyg'otgan nima?
Bo'ronli dargohda ne kutar uni,
Qudratli qanotin qo'zg'otgan nima?

O'ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo'ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho'qqi uzra mag'rur turdi-yu birpas,
Yana bo'ron misol qo'zg'oldi qayga?

Axir ne bo'lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!

(A. Oripov)

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. She'rdafodali haqda so'z boradi?
2. Asosiy fikr ifodalangan gap qaysi?
3. Shoir nima demoqchi?

4-topshiriq. Berilgan dialogni o'qing. Shu asosda o'zingiz ta'tilda qayerda bo'lganingiz haqida so'zlab bering.

Suhbat

- Dilbar, sen ta'tilda qayerda dam olmoqchisan?
- Men oila a'zolarimiz bilan Xumsonga bormoqchiman.
- Sen-chi, Oydin?
- Biz ta'tilda sinfdoshlarimiz, ustozimiz rahbarligida Samarqandga, Imom Buxoriy ziyoratgohiga bomoqchimiz.
- Oydin, Samarqaddan qaytganingda albatta taassurotlaringni menga aytib berasan, Xo'pmi?
- Albatta. Sen ham Xumson haqida hikoya qilib berasan.
- Bo'пти, xayr.

Uyga vazifa. «Ta'til rejaları» mavzusida matn tuzing, unda payt ma'nosini ifodalovchi so'z va birikmalarni qo'llang.

XVII. MILLIY AN'ANALAR VA UDUMLAR

1-mashq. Matnni o'qib, uning asosiy mazmunini qayta hikoya qiling.

Odob ziynati

Odob «Assalому alaykum»dan boshlanadi. Bu so'zni hamma vaqt, har qanday joyda bir xilda, to'liq, sof talaffuzda qo'llamoq kerak. Odob — inson ziynati. Bu ziynat «Assalому alaykum» iborasining chinakamiga ishlatilishi misolida namoyon bo'ladi. Lekin ba'zi birovlar bolalar bog'chalari va maktablarda salomlashganda go'yo «Salom» va javobi ham «salom» bo'ladi, deyishadi. Aslida bu to'g'rimi? Yo'q. Bunday bo'lmaydi. Salomlashish «Assalому alaykum»dan boshlanishi, unga javob esa «Vaalaykum assalom» bo'l-mog'i maqsadga muvofiqdir.

Assalому alaykum — «Men sizga tinchlik tilayman», vaalaykum assalom — «Men ham sizga tinchlik tilayman» degan ma'noni anglatadi.

Odobni sershox daraxtga o'xshatish mumkin. Har bir yoshning, har bir kasb-korning o'z odobi bor. Bulardan tashqari mezbon va mehmon odobi, safar-sayohat odobi, uy tutish odobi, yurish-turish, yuvinish, ta'lim olish, ya'ni talabalik va ustozlik odobi, telefonda gaplashish, bemordan hol-ahvol so'rash, ta'ziya va to'yda o'zini tutish kabi odob turlariga amal qilish hammaning burchi.

Sharq musulmonlariga «Assalomu alaykum» deb, yurak ustiga qo‘lini qo‘yib, biroz egilib salom berish xosdir.

Kaykovus «Qobusnoma»da o‘g‘li Gilonshohga aytgan pand-nasihatlari bilan tanishaylik: «Men dunyoda nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat-ikrom ko‘rgizgaysan va insonga nomunosib hayvoniy-xirsiy ishlarni qilmagaysan, pada-ringga la‘nat keltirmagaysan».

Rahbar bilan jamoa a‘zolari o‘rtasidagi muomala madaniyati ham muhim muammodir. Ko‘pincha rahbarlar qo‘l ostidagi shaxslarga hurmat-ehtirom bilan muomala qiladi yoki do‘q-po‘pisa bilan tazyiq o‘tkazishga harakat qiladi. Eng avvalo, biror sohaning mutasaddi rahbari mas‘uliyatni sezib, o‘z fikrini mulohaza qilib ko‘rishi kerak. O‘z tasarrufidagi har narsaga ehtiyot bo‘lib, xodimlarining manfaati, hurmatini ustun qo‘ya olishi lozim. Ayniqsa, yoshlar ish faoliyatini boshlaganda idora boshlig‘i ularga ustoz sifatida yondoshishi shart. Yosh mutaxassis mehnat jarayonida hamkasblari bilan muomala me‘yorini bilishi muhim ahamiyatga ega. Kattani aka, kichikni uka, qariyani ota deb ish boshlasa, barchaning olqishiga sazovor bo‘ladi.

L u g‘ a t

ziynat — украшение

chinakamiga — на самом деле, верно

maqsadga muvofiq — целесообразно

o‘ziga bino qo‘ymoq — хвалиться,

приукрашенный

nomunosib — несвойственно

tazyiq — давление, нажим

mutasaddi — ответственный

1-topshiriq. She‘rni ifodali o‘qing, mazmunini izohlang va yod oling.

Dunyoda ko‘p narsa unutiladi:

Qashshoqlik, martaba, quvonch, qayg‘ular.

Unutilib borar muhabbat dardi,

Unutilar yillar, yo‘llar, tuyg‘ular.

Qirq yillik adovat unutilar sekin,

Unutilar hatto yurakdagi darz.

Yaxshilarning mehri unutilar lekin,

Unutilmas ular oldidagi qarz.

(A. Oripov)



-ku, -u(yu), -da, -oq, -yoq, -ki yuklamalari soʻz maʼnosini kuchaytirish, taʼkidlash vazifasini bajaradi.

Axir, hatto, nahotki yuklamalari ham kuchaytirish, taʼkidlash maʼnolarini bildiradi.

Misollar: *Toʻy qilasiz-ku, shunda uyingizga boramiz.*

Bu marosimda dadam nahotki qatnashmadilar?

2-topshiriq. Berilgan rasm asosida dialoglar tuzing. Tuzgan gaplarinigizda **-da, -oq, -yoq, -ku, axir, hatto, nahotki** kabi taʼkid va kuchaytiruv yuklamalarini qoʻllang.



2-mashq. Quyidagi hikmatlarning mazmunini tushuntirib bering, ularni ona tilingizdagi shunga oʻxshash maqollar bilan solishtiring.

1. Yoshlik bahori tez oʻtar bilgin,
Keksalar soʻzlarin quloqqa ilgin.
2. Aql — yoshdan, odob — boshdan.
3. Odamni ochlik emas, or oʻldirar.

4. Donishmandlar yaxshi nom qoldirishni alohida bir umr deganlar.

3-mashq. Gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Ramazon oyida 30 kun roʻza tutiladi. 2. Roʻza tugashi bilanoq uch kun Hayit boʻladi. Bu Hayit kichik Hayit deyiladi. 3. Ramazon dan keyin chamasi yetmish kun oʻtgach, uch kun Qurbon hayiti boʻladi. 4. Qurbon hayiti Haj safari bilan, qurbonlik qilish bilan bogʻliq bayramdir. 5. Har ikkala Hayitdan bir kun oldin, yaʼni arafa kuni qoʻni-qoʻshnilar bir-birlariga osh tarqatadilar. 5. Bu kunlarda barcha moʻmin-musulmonlar bir-birlarini tabriklaydilar, keksalarni, bemorlarni borib koʻradilar.

2-topshiriq. Tugʻilgan kun, bayram tabrigi, qizlar davrasi, kelin salom kabi soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Matnni oʻqing. Yuklamalarni topib, maʼnosini izohlang. Matn mazmuni yuzasidan oʻz fikrlaringizni bayon eting.

Kelin koʻrdi

Azal-azaldan hayit nashidolari oʻzgacha bir ruh, fayz-tarovat bilan kutib olingan. Yilda ikki bor nishonlanadigan hayit bayrami — Ramazon va Qurbon hayiti kunlari oʻtganlarni xotirlash, bemorlarni yoʻqlash, keksalarni ziyorat etish, faqir-u bechoralarga xayr-sadaqa ehson etish, yetimlarga muruvvat koʻrsatish kabi savob ishlar bilan bir qatorda oʻtkaziladigan xonadonga tushgan yangi kelinchaklarni hayit bilan qutlash marosimi ham qadimiy qadriyatlarimiz sirasidandir. Ayniqsa, oʻzga xonadondan qalbida bir olam umidlar bilan «ostonasi tillodan» boʻlgan uyga ilk bor qadam ranjida etib, yangi hayot boshlagan kelinchak hayit kunlari barcha qavm-u qarindoshlar, tanish-bilish, qoʻni-qoʻshnilar diqqat markazida turadi.

Eskilarning bir gapi bor: kelinchak bir yoz-u bir qish chil-lasini koʻrgunga qadar yangi hisoblanadi. Ana shu yangi uy beka-sining barcha fazilatleri: odob-axloqi, uy tutishi, sarishtaligi, pazandachilik mahorati, mehmonnavozligi, muomala madaniyati, choy uzatishidan tortib, qanday egilib salom berishigacha hamma-hammasi uch kunlik hayit mobaynida namoyish yetiladi. «Kelin koʻrdi» ga kirgan mehmonlar asosan xotin-qizlardan iborat boʻlib, yosh-u qari kelinchakka yaxshi niyatlar bildirish barobarida, toʻkin dasturxon tegrasida bir piyola choy ustida shirin suhbatdan

bahramand bo'ladilar. «Kelin ko'rdi» urfimizning bir qator ijobiy jihatlari borki, ular yoshlarimiz tarbiyasida alohida o'rin tutadi. Qizaloqlar bolaligidanoq odob saboqlarini o'zlashtirishga, millatimizga xos bo'lgan nazokat, ibo, latofatga yo'g'rilgan har bir harakat-u imo-ishoralarni ibrat asosida o'zlariga singdirishga intiladilar.

(*Gulchehra Muhammadjon*)

4-mashq. Rasm asosida kichik hikoya yozing. Ish-harakat bajaruvchisi (subyekt) ifodalanmagan gaplar tuzing.



4-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Telefonda so'zlashish

Siz telefon orqali kishilar bilan muomala qilish odobini bilasizmi? Agar buni yaxshi bilmasangiz, suhbatdoshingizni ranjitgan bo'lasiz. Telefon orqali muomalani o'rganmoqchi bo'lsangiz, quyidagilarni esda tuting:

Agar siz qo'ng'iroq qilsangiz, albatta, gapni salom-alikdan boshlang. Salom-alikdan keyin haqiqatda ham kerakli joyga (ishxonaga yoki uyga) tushdingizmi yoki yo'qmi, shuni aniqlab oling. Kerakli joyga tushganingizga ishonch hosil qilganingizdan so'ng,

sizga zarur bo'lgan kishini chaqirib berishlarini iltimos qiling. Tanishingiz bilan ham gaplashishni salom-alikdan boshlang. So'ng esa hol-ahvol so'rab, asosiy maqsadga o'ting. Telefonda qisqa, lo'nda gaplashishga harakat qiling. Asosiy gapingiz tugaganidan so'ng tanishingizning gapiga quloq soling. Hayrlashib bo'lganingizdan keyin, telefon dastagini birinchi bo'lib siz qo'ying — chunki telefon raqamini siz tergasiz.

Agar sizni telefonga chaqirishsa, «Labbay» yoki «Eshitaman» deb javob qiling. Keyin qo'ng'iroq qilgan kishi bilan salomlashing. Agar u odam boshqa joyga tushib qolib, sizdan kechirim so'rasa, «marhamat, hechqisi yo'q», deb dastakni ilib qo'ying. Agar telefon qilgan kishi sizga tanish bo'lsa, salomlashgandan so'ng, kimga qo'ng'iroq qilganligini aniqlab olishga harakat qiling. Shuni aniqlagandan so'nggina bemalol gaplashing. Agar boshqa bir xodimning telefonga kelishini iltimos qilishsa, albatta uni tezlik bilan chaqirib bering.

Telefonda gaplashayotganda baqirmang. Agar siz bilan suhbatlashayotgan sherigingiz nohaq bo'lsa, yotig'i bilan tushuntiring. Telefon orqali muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri huzuringizga kelib muhim ish borligini aytib qolsa, hamsuhbat-ingizdan uzr so'rang va ma'lum vaqtdan keyin o'zingiz unga qo'n'g'iroq qilishingizni aytib, telefon dastagini ohista qo'ying.



Topshiriqlar

1. Matnning tayanch so'zlarini aniqlang.
2. *Muomala, suhbatdosh, qisqa, chaqirmoq* so'zlari ishtirokida avval sodda gaplar tuzing, so'ng ularni bog'langan qo'shma gaplarga aylantirib yozing.
3. Telefonda so'zlashishga oid dialog namunalari tuzing.
4. Aloqa-aralashuvda telefonning o'rni va ahamiyati haqida so'zlab bering.
5. Qo'shningizning telefon apparatini vaqtincha foydalanishga olganingiz haqida tilxat yozing.

Uyga vazifa. Kiyinish odobi haqida matn tuzing va unda maishiy xizmat uyidan ijaraga kiyim olganligingiz haqidagi tilxat ham aks etsin.

XVIII. TARIXNI O'RGANAMIZ

1-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Muqaddas shahar

Islom olamida gultoij, **muborak** shahar bo'lgan Buxoro qadimdan hozirgacha muqaddas hisoblanadi. Mustaqilligimiz sharofati bilan ko'hna va **navqiron** Buxoroning Sharqda, xususan, musulmon olamida shuhrati yanada ortib bormoqda.

Haqiqatan ham, Buxoro Islom uyg'onish davrining eng ulkan va asosiy markazlaridan bo'lgan. Bu shahar va unga tobe xududlarda yashagan yuzlab olim-u tabiblar, muhandis-u **tafsirchi olimlar** uning obro'-e'tiborini ko'kka ko'targanlar. Al-Narshaxiy «Tarixi Buxoro» asarida «Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir necha daftarni tashkil etadi», — deb yozgan.

Tarixdan ma'lumki, Buxoro somoniylar sulolasi davrida gulab-yashnagan. Ismoil Somoniy amirligidan oldinroq shahar himoya devorlari va **istehkamlari** bilan o'rab olingan edi. Keyinchalik shahar devorining harobalariga aholi «Kampir devor» deb nom bergan. Qoraxoniylar xoni Sulton Takash davrida **himoya devorlari** ta'mirlangan, ammo mo'g'il-tatar bosqinchilari davrida devorlar yana harob bo'lgan.

Buxoroning shuhratini jahonga yoyishda insoniyat tarixida ilk bor G'arb va Sharq dunyosini bir-biriga bog'lagan xalqaro savdo-sotiq yo'li — Buyuk ipak yo'lining ham ahamiyati katta. Demak, **Buyuk ipak yo'li** vujudga kelgan paytda Buxoro iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan, yuzlab inshootlar qad ko'targan farovon o'lka bo'lgan. Buxoro tasarrufidagi yuzlab shaharlarda jahon savdogarlarining do'kon va omborxonalari uchun **karvonsaroylar** qurilgan. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, g'arb va sharq mamlakatlarida buxorolik savdogarlarni xuddi **elchidek** kutib olganlar. Hatto Sibirda o'troqlashib qolgan O'rta Osiyo vakillarini «Sibirdagi buxoroliklar» deb atash rasm bo'lgan.

L u g' a t

muqaddas — священный
sharofati bilan — благодаря
ko'kka ko'tarmoq — возвышение
tasarrufidagi — в подчинении
sulola — династия

zikr qilmoq — написать
istehkom — защитное сооружение
yoymoq — распространять
o'troqlashmoq — отсидеться



Topshiriqlar

1. Matnning tayanch soʻzlarini aniqlang va tarjima qilib, lugʻat daftaringizga yozing.

2. Ajratilgan soʻzlarning maʼnosini izohlang, soʻng bu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

3. Matnning xatboshi (абзац) bilan ajratilgan qismlari oʻr-tasidagi farq va bogʻliqlikni koʻrsating.

4. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzing va yozma ravishda javob tayyorlang.

1-mashq. Oʻz sayohatingiz toʻgʻrisida namunadagidek dialogik matn tuzing.

Namuna: — Nargiza, taʼtil kunlari qayerlarga bording?

— Shahrisabz shahriga bordik. Xolam oʻsha yerda yashaydilar.

— Sayohating oʻzingga yoqdimi?


— Albatta, koʻp joylarni maza qilib tomosha qildim. «Oq masjid» obidasini koʻrdim. Juda chiroyli va hashamatli ekan. Bilasanmi, uni Amir Temur qurdirgan ekanlar.

— Ayt-chi, bu masjidning asli saqlanganmi yoki qayta taʼmirlanganmi?

— Voy, qanday qurilgan boʻlsa, shundayligicha turibdi. Faqat tashqi devori taʼmirlangan. Atrofi obodonlashtirilib, gul va koʻchatlar oʻtqazilgan, dam olish joylari ham shinamgina.

2-topshiriq. Rasm asosida savol-javob qiling va tavsifiy matn tayyorlang.

3-topshiriq. «Oʻzbekistonning tarixiy shaharlari» mavzusida tavsifiy matn tuzing.





Atov gaplar biror narsa-hodisa mavjudligini ko'rsatib, shu dalilni tasdiqlaydi, izohlaydi.

Masalan: **Buxoro. Tarixdan guvohlik beruvchi obidalar shahri.**

Bunday gaplar so'z, so'z birikmasi, ixcham gap shaklida bo'ladi.

2-mashq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Obidalarni asrash; sifatli ta'mirlamoq; ma'lumot bermoq; no-dir yodgorlik; hayratga tushmoq.

3-mashq. Savollarni davom ettiring va ularga namunadagidek atov gap shaklida javob yozing.

Namuna: *Bibixonim madrasasi. Amir Temur malikaga atab qurdirgan go'zal bino...*

- Amir Temur qanday obidalar qurdirgan?
- Al-Buxoriy maqbarasi qayerda?
- Registon majmuasiga qanday obidalar kiradi?

4-mashq. She'ni ifodali o'qing. Misralarni atov gaplarga aylantirib ko'chiring.

Mangu nomlar

Yo'qolmas yer yuzida Buxoro nomi,
Toki yashar ekan Buxoriy nomi.

Mangu esaverar Termiz yellari,
Toki nur taratgay Termiziylari.

O'pdi bu tuproqdan neki jon bordir,
Hazrat Yassaviy bor — Turkiston bordir.

Amudaryolari abadiy azim,
Manguberdilari mangu Xorazm.

Ulug' Temurxonning shavkat-u shoni,
Shahrisabz, Samarqand — jahon ayvoni.

Dunyo g'urbatiga nazar tashlablar,
O'tdi Boburlar-u, o'tdi Mashrablar. (*Sirojiddin Sayyid*).

Uyga vazifa. «Amir Temur davlat muzeyi» mavzusida matn yarating. Matnda atov gaplarni qo'llang.

XIX. MILLIY BAYRAMLAR

1-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Navro'z — milliy bayram

Navro'z Sharq xalqlarining qadimiy va an'anaviy yangi yilning boshlanishi sifatida nishonlanadigan bayrami. Bu bayram bahor oyiga, ya'ni ekin ishlarining boshlanishiga to'g'ri keladi. Bu tun va kun teng bo'lgan milodiy yilning 21-mart kuni nishonlanadi.

Navro'zni Turkiston qadimdan xalq sayli sifatida nishonlaydi. Shu kuni yosh-u qari, erkag-u ayol xursandchilik bilan kutib olishadi.

Navro'zda qon-qarindosh kishilar, yaqin do'stlar bir-birlari bilan ko'rishadilar, kasal, nogiron odamlar hamda yordamga muhtoj kishilar ahvolidan xabar olinadi.

Qishning oxiri, bahorning boshlarida odamlarda ko'pincha darmonsizlik, vitaminlarga kuchli ehtiyoj seziladi. Darmonsizlikka davo sifatida erta bahorda yangi chiqqan ba'zi ko'katlardan iste'mol qilingan. Navro'z bayrami taomlari ham vitaminlarga boy bo'lgan. Masalan: ko'katlardan turli xil somsalar, sumalak, go'ja oshi, halim singari taomlar tayyorlangan.

Navro'zda qadimdan shahar va qishloqlarda sumalak pishirish marosimi o'tkazilgan. Sumalak pishirishni ko'pchilik hurmat qiladigan ayollar boshqarishgan. Sumalak pishib yetilgunga qadar ayollar, qiz-juvonlar o'yin-kulgi qiladilar. Bayramda oq jo'xoridan pishiriladigan «go'ja oshi» nomli taom ham tayyorlangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Navro'z bayrami umumxalq bayramiga aylandi. 21-mart dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Navro'z dehqonlarning bahorda dastlabki dala ishlarini boshlashlari bilan bog'liq marosimdir. Navro'z kelgach, yerlarni shudgorlash, ekin ekish boshlanadi.

Navro'z kunlari urushlar, janjalli masalalarga chek qo'yilgan, kishilar orasidagi xafachiliklar unutilgan. Navro'z kunlari butun xalq xushchaqchaqlik bilan hordiq chiqargan. Mart oyi boshlanishi bilan qariyalar yangi mavsum rejaları xususida fikrlashganlar, ko'plab masalalar xususida maslahatlashib olganlar. Navro'z bayramiga bahor oylarida o'tkaziladigan deyarli barcha udum, marosimlarni kiritish mumkin.

Biz Navro'z bayramini tayyorlash va o'tkazish jarayonida uning xalqchil an'analarini tiklashimiz, uni xalqimiz manfaatlari, maqsad-umidlari bilan bog'liq holda rivojlantirishimiz lozim.

L u g' a t

an'anaviy – традиционный

ekin – посев

milodiy – по христианскому летосчислению

darmonsizlik – бессилие, слабость

ko'kat – зелень

boshqarmoq – возглавить, управлять

umumxalq – всенародный

unutmoq – забывать

fikrlashmoq – мыслить

deyarli – почти



Savol yuzi

1. Matnning tayanch so'zlarini aniqlab, ma'nolarini izohlang.
2. Matn mazmunini ochuvchi quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Navro'z qanday bayram va u qachon nishonlanadi?
 - 2) Navro'zda kimlardan xabar olinadi?
 - 3) Bayramda qanday taomlar pishiriladi va bu taomlarning ahamiyati nimada?
 - 4) Navro'zda qanday marosimlar o'tkaziladi va ularga kimlar boshchilik qiladi?
 - 5) Ilgari Navro'z bayrami qaysi paytda nishonlangan?
 - 6) Nima uchun 21-mart dam olish kuni deb e'lon qilingan?
3. To'g'rimi, noto'g'rimi?
 - Navro'z Sharq xalqlarining qadimiy bayrami.
 - Bu bayram ekin ishlarining boshlanishiga to'g'ri kelmaydi.
 - Navro'zda yaqin kishilar, bemorlar, muhtoj, nogironlar holidan xabar olinadi.
 - Navro'z taomlarida vitaminlar yetishmaydi.
 - Bayramda sumalak pishirish marosimi o'tkaziladi.
 - Marosimda hamma ishtirok etmaydi.

Yodda tuting!

Makon yoki zamon (payt)dagi chegara ma'nosi **-gacha** qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Bu shakl asosan o'rin yoki payt ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shiladi.

Qiyoslang: *Kollejgacha o'n daqiqalik yo'l (o'rin chegarasi).*
Chorshanbagacha devorni oqlashingiz kerak (payt chegarasi).

1-mashq. Yuqoridagi matn asosida gaplarni to'ldiring.

1. Navro'z Sharq xalqlarining
2. Qishning oxiridan, bahorning boshlarigacha.....
3. Navro'zda qadimdan sumalakdan tortib palovgacha.....
4. Sumalak ertalabgacha.....
5. O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha.....

2-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib gaplar tuzing.

1. Urf-odatlari, navro'zning, bo'lgan, o'ziga xos.
2. Dalalarda, ketgan, bu paytda, boshlanib, ekin-tikin, ishlari.
3. Maxsus, atab, kiyimlar, ajdodlarimiz, bayramga, tayyorlashgan.
4. Taomlari, o'ziga, navro'z, xos bo'lgan.
5. Orasta, atrofini, oila, har bir, qilgan, o'z.
6. Bayrami, avlodan-avlodga, Navro'z, kelmoqda, asrlar osha, o'tib.



Bayonnoma yig'ilish va boshqa rasmiy anjumanlarning borishi, qatnashchilar bildirgan fikr hamda qabul qilingan qarorlarni aniq, ixcham qayd etuvchi rasmiy hujjatdir. Unda yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, takliflar yozilishi kerak. Bu axborotlarning aniq va to'liqligi uchun mas'ul bo'lgan majlis raisi va kotibi bayonnomaga imzo qo'yadilar.

2-topshiriq. Quyidagi bayonnoma ko'chirmasi namunasini o'qing va shu asosda bayonnomaning to'liq matnini yozing.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika Ta'lim markazi O'zbek tili ta'limi bo'yicha Ilmiy-metodik kengash yig'ilishining 17-raqamli bayonnomasidan

K O' C H I R M A

2006-yil 26-may

Toshkent shahri

K U N T A R T I B I:

3. 9-sinf «O'zbek tili» darsligini nashrga tavsiya etish. G. Nazarova axboroti.

Eshitildi:

G. Nazarova ilmiy kengash a'zolarini 9-sinf «O'zbek tili» darsligi bilan batafsil tanishtirdi. Darslik hozirgi kun talabi darajasida tayyorlanganligini ko'rsatib o'tdi.

Q A R O R Q I L I N D I:

1. 9-sinf «O'zbek tili» darsligi nashrga tavsiya etilsin.
2. Mas'ul muharrir etib filologiya fanlari doktori M. Qodirov tasdiqlansin.

Rais: (imzo)

Kotib: (imzo)

K. Umarov

D. Alimova

3-mashq. Berilgan tasvir asosida suhbatlashing, so'ng Navro'z bayramiga tayyorgarlik ko'rishga bag'ishlangan yig'ilish bayonnomasini yozing.



Yodda tuting!

Bayonnoma qismlarining nomlari: KUN TARTIBI, ESHITILDI, SO‘ZGA CHIQQILAR, QAROR QILINDI so‘zlari doimo katta harflar bilan yoziladi. Bulardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi va yangi satrdan ma‘ruzachining ism-familiyasi yoki keyingi gap yoziladi.

3-topshiriq. «Navro‘z tantanalari» mavzusida savol-javob o‘tkazing va namunadagidek dialoglar tuzing.

Namuna: — Dugonajon, sen bayramga bag‘ishlangan qaysi sahnada ishtirok etasan?

— «Bahorning kelishi» sahnasida gullar ko‘tarib raqsga tushaman. O‘zing-chi?

— Men sumalak pishirishga oid ko‘rinishda qatnashaman. Milliy liboslarda sahnaga chiqishim kerak. Hozir shu kiyimlarimni tayyorlayapman.

4-topshiriq. Navro‘z bayramiga oid urf-odatlarni o‘qing va bularga o‘zingiz qanday amal qilayotganligingizni ayting.

Navro‘zga tayyorgarlik ko‘radilar.

Navro‘zda uy-hovlilarni tozalaydilar.

Navro‘zga qadar daraxtlar tanasini oqlaydilar.

Navro‘zda bug‘doy undiradilar.

Navro‘zda sumalak pishiradilar.

Navro‘zda yangi kiyim-bosh oladilar.

Navro‘zda navro‘z taomlari pishiradilar.

Navro‘zda araz, ginalarni unutadilar.

Navro‘zda qarindosh-urug‘larnikiga mehmonga boradilar.

Navro‘zda so‘kinmaydilar.

Navro‘z kuni g‘iybat qilmaydilar.

Navro‘z kuni bemorlarga bayram taomlari jo‘natadilar.

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli taom nomlarini qo‘yib gaplar tuzing va shu mavzuda dialogik matn yarating.

1. Bahorgi ko‘katlardan tayyorlanib, tandirda pishiriladigan taom

2. Bug‘doy ko‘kati va undan tayyorlanadigan taom

3. Bug'doy yormasi va go'shtdan tayyorlanadigan taom
4. Kechqurundan ertalabgacha pishiriladigan taom

Uyga vazifa. Navro'z taomlaridan birini tavsiflab yozing.

XX. O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM

I-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining Vatani. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq sevadi. Hatto bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatani — uyidan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. Har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatani muhabbati turar.

Biz o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq sevamiz. Biz singari arablar ham Arabistonini, qumlik, issiq cho'llarni, sovuq o'lkalarda yashovchilar esa eng sovuq, qor, muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod ko'radilar. Agar sevmasalar edi, o'z Vatani tashlab ketar edilar.

(*Abdulla Avloniy*)

L u g' a t

jonidan ortiq sevmoq — любить очень сильно

his-tuyg'u — чувство

ayrilmoq — остаться без чего-либо (здесь: без дома)

ziyoda ko'rmoq — перехвалить

rohat — блага, удовольствие

hatto — даже

go'sha — дом, часть дома (здесь: души)

qumlik — песчаное место



Topshiriqlar

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Matndan o'zlik olmoshlarini toping, ma'no va vazifasini ayting.
3. Quyidagi savollarga javob yozing:
 - a) Vatan deganda nimani tushunasiz?
 - b) Vatanni tashlab ketganlar nima uchun o'z yurtlariga qaytishni istaydilar?
 - d) Vatangadolar to'g'risida qanday asar o'qigansiz yoki filmlar ko'rgansiz?
 - g) Nima uchun O'zbekistonni sevasiz?

2-topshiriq. Matnni o'qing. Uning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan aytib bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini toping.

Vatan

Ona-vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi.

Inson o'z Vatanida **kamol topadi**, qadrlanadi, hayot maktabini o'taydi, farovonlik va baxt-saodatga erishadi.

Vatan qalbi beg'ubor olam, uni asrab-avaylash **har birimizning** muqaddas burchimizdir. Vatan! Ne-ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq **istiqboli** uchun jon fido etgan zamin. El borki, Vatan bor. Elsiz Vatan — biyobon. Vatansiz el — darbadar. Shuning uchun qadimda elim deb Vatanni **e'zozlaganlar**. Vatan tushunchasi turli zamonlarda turlicha talqin etilgan. Vatan so'zi bugungidek mag'rur jaranglamagan. **Mustaqillik** tufayli Vatan deb atalmish bu ko'hna zamin yanada chiroy ochdi, butun **dunyoga yuz o'girdi**. O'zbek xalqi o'z Vatanini doimo e'zozlab kelgan. Vatan qadrini hamisha bilgan. Shunday ekan, **har kim** Vatanni xuddi ota-onasini sevgan kabi sevmog'i kerak. **Barcha** fuqarolar uning ozodligi, **shon-shuhrati** uchun kurashmog'i zarur.

L u g' a t

darbadar — бездомный
talqin etmoq — излагать,
трактовать
e'zozlamoq — ценить

qadrlamoq — ценить
beg'ubor — чистый,
бескорыстный

Yodda tuting!

Narsa yoki shaxslarning to'dasini bildiruvchi jamlash olmoshlariga *hamma, barcha, jami, bari, butun, yalpi* so'zlari kiradi.

Narsa yoki shaxslarni to'dasidan ayirib, ta'kidlab ko'rsatuvchi olmoshlar *har* so'ziga so'roq olmoshlarini va *bir, narsa* so'zlarini qo'shish orqali yasaladi: *har kim, har qaysi, har qancha, har bir* kabi.

1-mashq. Quyidagi so'zlarning sinonimini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Hamma, har nima, yuksalmoq, chiroyli.

2-mashq. Savollarga javob yozing.

1. O'zbekistonning havosi qanday?
2. O'zbekiston bog'larida nimalar yetishtiriladi?
3. Tog' va adirlarda bo'lganmisiz?
4. O'zbekistonning qaysi tog'larini bilasiz?

3-topshiriq. Berilgan tasvir asosida «O'zbekiston va dunyo» mavzusida tavsifiy matn tuzing. Tuzgan gaplaringizda o'rin-joy otlarini qo'llang, ularning yasalishini izohlang.



Bilibilmiz

Nutqimizdagi gaplar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga ajratiladi. Sodda gaplar bir predikativ markazga ega bo'ladi. Ega va kesimdangina tashkil topgan gaplar **sodda yig'iq gap** hisoblanadi. Masalan: *Sinov o'tkazildi. Biz g'olib bo'ldik.*

Bunday gaplarda asosan voqea-hodisa yoki u to'g'risidagi hukm ifodalanadi. O'zbek tilida bunday gap faqat kesimdan tashkil topishi ham mumkin. Masalan: *O'qidim.*

Ba'zan gap mazmunini to'ldirish, izohlash maqsadida bosh bo'laklarga bog'lanuvchi ikkinchi darajali bo'laklar qo'shiladi. Masalan: *Bugun sinov o'tkazildi. Biz viloyat tanlovida g'olib bo'ldik.*

Bunday gaplar **sodda yoyiq gaplar** sanaladi.

3-mashq. Berilgan namuna asosida yig'iq gaplarni yoyiq gapga aylantirib daftaringizga ko'chiring, ular o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.

Namuna: *Yo'llar kengaydi. — Shahrimizning yo'llari yanada kengaydi.*

1. Shahrimiz go'zallashdi. 2. Sevindim. 3. Islohotlar boshlandi. 4. Siz xursand bo'ldingizmi? 5. Tanlov yakunlandi. 6. Intilamiz. 7. Havo o'zgardi. 8. Yutuqlarimiz ko'p. 9. Qatnashasizmi? 10. Biz o'rganamiz.

4-mashq. Matni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Vatanparvarlik

Vatanni sevish — vatanparvar bo'lish demakdir. Vatan muqaddasdir. Uni asrashimiz kerak. Inson uchun Vatandan yuksak-roq boyluk yo'q.

Vatanparvarlik bu ona zaminga bo'lgan muhabbat bilan o'lchanadi. Uning ravnaqiga har bir fuqaro o'z hissasini qo'shishga intiladi.

Xalqiga sodiq kishi vatanparvardir. U har qanday vaziyatda ham xalqiga, Vataniga xiyonat qilmaydi, Vatanini sotmaydi.

Vatanparvarlik — jonkuyarlikdir. Chunki bunday kishi o'z hayotini yurtining tarixi, ilm va madaniyati, milliy qadriyatlarini bilish hamda e'zozlashga bag'ishlaydi.

Vatan yoshlarnikidir. Ular ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrab-avaylaydilar. Bu boyliklarni yanada boyitish uchun izlanadilar.

Vatanparvar insonparvardir. U o'z Vatani oldidagi mas'uliyat, millatining manfaati bilan yashaydi. Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shgan, xalqiga foyda keltirgan, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilgan inson vatanparvar hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir kishining qalbida o'z Vataniga buyuk e'tiqod, oliyjanob muruvvat his-tuyg'ulari barq urib tursa, bu ajoyib ne'matlarni umrbod ardoqlasa, o'z hayotida qo'llasa, shundagina u haqiqiy vatanparvar bo'la oladi.



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini o'z tushunchalaringiz asosida to'ldiring va davom ettiring.

2. Matndagi sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni aniqlang va ularni ikki ustunga ajratib yozing.

5-mashq. She'r mazmunini sodda yoyiq gaplarga aylantirib ko'chiring, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' **jahonim**,
O'zim xoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

(Muhammad Yusuf)

6-mashq. Gaplarni **-dir** qo'shimchasisiz ko'chirib yozing. Tireni o'rinli qo'llang.

1. O'zbekiston barchamizga Ona-Vatandir. 2. Har bir millatning urf-odatlarini hurmat qilish burchimizdir. 3. O'zbek tili O'zbekistonning rasmiy tilidir. 4. Alisher Navoiy insonparvarlik kuychisidir. 5. Maqsadimiz yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashdir.

7-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini lug'atdan foydalanib tarjima qiling va yodda saqlang.

Inoq yashamoq, milliy udumlar, baynalmilal markaz, qar-doshlik aloqalari, milliy iftixor, diniy bag'rikenglik, millatidan qat'i nazar, tilini o'rganmoq, ona tilida yozmoq, g'amxo'rlik qilmoq, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, xalqlar do'stligi, tug'ilgan joyi, o'qish huquqi, ilg'or madaniyat, yurtning shon-shuhrati.

6-mashq. Sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga aylantiring. Qaysi gap bo'laklarini tushirib qoldirganingizni ayting.

1. Shahrimizda yangi binolar qurilmoqda. 2. Ajdodlarimiz merosini o'rganamiz. 3. Siz qayerlarni sayr qildingiz? 4. Yurtimizda tinchlik va farovonlik bo'lsin! 5. Birinchi tanlovda biz g'olib bo'ldik. 6. Bu ishingiz bizni xursand qildi. 7. Men uchuvchi bo'lish uchun o'qimoqchiman.

4-topshiriq. Matnni o'qing va uning mazmuni asosida o'zingiz matn yarating. Matndagi olmoshlarning ma'nosini izohlang.

O'zbekiston mening taqdirimda

O'zbekiston mustaqil respublika sifatida dunyoda tan olinib, umumjahon taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday dovul, bo'ronlarda yiqilmaydigan bo'lib ulg'ayadi. Zero, millat sevgisi va e'zozi qadar ulug' mukofot yo'qdir. Bu mukofotga sazovor bo'lishning birdan-bir yo'li o'zga davr, o'zga millatni tahqirlamaslik. Bu farovon, to'kin kun kechirish uchun yakka-yu yagona, to'g'ri, aql-idrokli, imon-e'tiqodli yo'ldir. Biz o'z taqdirimizni shu yo'ldan yurib yaratamiz. Zero, Vatanimizning taqdiri bizning taqdirimizdir.

Ma'lumki, har qanday qal'a ichidan olinadi. Demak, biz ichkarini mustahkam qilishimiz kerak. Buning uchun yoshlar qalbiga yurtga sadoqat, kattalarga hurmat, tarixga mehr, kelajakka umid tuyg'ulari urug'ini sochishimiz lozim. Ular ishonchni suiiste'mol qilmasliklari, muqaddas milliy-ma'naviy qadriyatlarga qattiq amal qilishlari zarur.

Shu jarayonda har bir yigit-qiz biror hunar egasi bo'lishini, zamonaviy mutaxassisliklarni egallashini nazarda tutmoq shart.

Qolaversa, O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan ana shu yoshlarga bog'liq.

L u g' a t

bardosh — терпение

tahqirlamaslik — не унижать

boy bermoq — проиграть

milliy qadriyat — национальные ценности

suiiste'mol qilmaslik — не злоупотреблять

nazarda tutmoq — иметь в виду

Uyga vazifa. Barkamol avlod bo'lish uchun nimalar qilishingiz lozimligi haqida qisqa matn tuzing.

XXI. MADANIYATIMIZ FIDOIYLARI

I-topshiriq. Taniqli o'zbek aktyorlari haqida suhbatlashing va namunadagi suhbatni davom ettirib, shunday dialoglar tuzing.

Namuna: — Abror, senga o'zbek aktyorlaridan kimlar yoqadi?

— Shukur Burhonov, Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov kabi mashhur san'atkorlarning iste'dodiga qoyil qolaman. Ular o'ynagan rollar juda hayotiy va ta'sirchan chiqqan.

— Qani, birorta rolni aytib bera qol.

— Yaxshi. «Qiyomat qarz» spektaklida bosh qahramon Sulaymon ota timsoli Shukur Burhonov tomonidan katta mahorat bilan ijro etilgan. Polkovnik Yalangto'sh timsolini ham shu aktyor o'ynagan. Mirzo Ulug'bek, shoh Edip, G'ofir kabi o'nlab timsollarni yaratgan. Xo'sh, o'zing kimlarni bilasan?

— Men Yodgor Sa'diyev, Tesha Mo'minovlarning mahoratiga tan beraman.

1-mashq. Gaplarni o'qing, hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi bilan ajralib turgan so'zlarni ko'chiring, ularning ma'no va vazifasini izohlang.

1. San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan-o'zi g'uldirab borar edi. (*A. Q.*) 2. Bu uy ichida Otabekning saodatli kunlarining shirin xotiralari saqlanar. (*A. Q.*) 3. Oxiri qo'llarim kuya-kuya tirik gulxanni qorga bosib o'chirdim. (*O'. H.*) 4. G'azal ham bo'lurmi buncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar sernoz. (*E. V.*) 5. Bundan chiqdiki, mendan butkul ko'ngil uzmagan ekan-da. (*A. Q.*)

Yodda tuting!

Badiiy uslub hissiy-estetik ta'sirchanlikni oshirish maqsadida tilning boy imkoniyatlaridan to'laroq foydalanadigan yozma nutq uslubidir. Bu uslubda turli janrlardagi badiiy asarlar yoziladi.

1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

— Abror, o'zbek ma'rifatparvarlaridan kimlarni bilasan?

— Furqat, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniyilar haqida eshitganman.

— Rostdanmi? Bo'lmasa, ayt-chi, ular nima ishlar qilishgan?

— Ular ilm va ma'rifatni targ'ib qilishgan. Xalqni ilm va hunar egallashga da'vat qilganlar. Ko'plab maktablar ochganlar. Hatto gazeta va jurnallar ham nashr etishgan.

— Kel, do'stim, bu ma'rifatparvarlar haqida menga to'liqroq ma'lumot ber.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.

1. Mirzo Ulug'bek boshqa temuriylardan ... fidoiyligi bilan ajralib turadi. 2. Furqat Muqimiydan ... ko'proq ma'rifat mavzusida she'rlar yozgan. 3. Jadidlarda zulmni ma'rifat bilan yengishga ishonch ... kuchli edi. 4. Usmon Nosirda boshqalarda ... jo'shqinlik va dovyuraklik bor edi. 5. Farzandlarimiz bizdan ... kuchliroq, bilimlroq bo'lishlari shart.

3-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Sahna yulduzlari

O'zbek teatri o'z tarixi va an'alariga ega. Sahnada artistlarning bir necha avlodi xalq mehrini qozonib kelgan.

Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Olim Xo'jayev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, Razzoq Hamroyev, Soyib Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Zaynab Sadriyeva va boshqa ko'plab yulduzlar o'chmas iz qoldirishgan.

Bir paytlar qoralangan asarlar istiqloq tufayli teatrlarimizda qayta sahnalashtirildi, avval taqiqlangan mavzularda yangi asarlar yaratildi.

Bir nechta teatrlarda Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi qayta qo'yildi. Avval Qashqadaryo teatrida, keyin esa Hamza nomidagi teatrdagi (hozirgi O'zbek Milliy teatri) Amir Temur haqidagi asar tomoshabinlarga havola etildi.

O'zbek Milliy teatrida Cho'lponning «Kecha va kunduz» va «Yorqinoy» dramasi qo'yildi, Zahiriddin Muhammad Bobur,



Jaloliddin Manguberdi, Termiziy, Mirzo Ulug‘bek, Boborahim Mashrab, Ahmad Yassaviy, Nodirabegim haqida spektakllar yaratildi.

Teatrlar jamoasi har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunini yangi spektakl premyerasi bilan kutib olishga harakat qilishadi.

O‘zbek teatrining bugungi yulduzlari yangi yorqin sahna asarlarini yaratish ustida ish olib borishmoqda.

L u g ‘ a t

istiqlol tufayli — благодаря независимости

qozonib kelgan — заслуживал

taqiqlangan — запрещённые

qoralangan — очернённые

o‘chmas iz — неугасимый (неизгладимый) след



O‘zbek tilida quyidagi qo‘shimchlar yordamida ravish yasaladi:

-larcha: *bolalarcha, mardlarcha, telbalarcha* kabi

-ona: *xalqona, fidokorona, san‘atkorona* kabi

-i(si)ga: *yoppasiga, qatorasiga, ko‘tarasiga* kabi

-lab: *haftalab, bittalab, donalab* kabi

-an: *vijdonan, mantiqan, taxminan* kabi

Qo‘shma ravishlar yasalishida *har, hech, bir* so‘zlari faol qatnashadi: *har doim, har kuni, hech vaqt, birpas, bir talay* kabi.


4-topshiriq. Savollarga ravish ishtirok etgan gap orqali javob bering.

1. O‘zbek teatri tarixida o‘chmas iz qoldirgan artistlar kimlar?
2. Mustaqillik yillarida teatrlar repertuarida o‘zgarish bo‘ldimi?
3. Qanday yangi asarlar tomoshabinlarga taqdim etildi?
4. Xalqaro teatr kuni qachon va qanday nishonlanadi?
5. Siz qaysi teatr spektakllarini sevib tomosha qilasiz?
6. Sevimli artistingiz kim?

5-topshiriq. «O‘zbek teatri» mavzusida kichik insho yozing.

6-topshiriq. Quyidagi boshqotirmaning yeching.

1. «Shaytanat» videofilmida Asadbek rolini ijro etgan aktyor.
2. Milliy cholg‘u asbobi
3. «O‘tgan kunlar» romanining muallifi.
4. Sahna raqslaridan biri.
5. O‘zbek milliy san‘at turi.
6. Toshkent shahrida joylashgan san‘at saroylaridan biri.



7-topshiriq. Toshkent teatrlari, san‘at saroylari ro‘yxati bilan tanishing va ularda qanday spektakllar namoyish etilishi va qanday tadbirlar o‘tkazilishi haqida so‘zlab bering. Hikoyada yasama ravishlarni qo‘llang.

Toshkent teatrlari

O‘zbek Milliy teatri, Alisher Navoiy nomidagi akademik opera va balet katta teatri, O‘zbekiston rus drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri, Abror Hidoyatov nomidagi drama teatri, O‘zbekiston yoshlar teatri, Yosh tomoshabinlar teatri, Abdulla Qahhor nomidagi satira teatri, Qo‘g‘irchoq teatri, Rus musiqali komediya (operetta) teatri, «Ilhom» va «Muloqot» teatr-studiyasi, «Olovuddin(Aladdin)» teatr-studiyasi; «Xalqlar do‘stligi» saroyi, Alisher Navoiy nomidagi san‘at saroyi, «Turkiston» saroyi, «Zarafshon» konsert zali, Toshkent davlat sirki.

8-topshiriq. Olim va yozuvchilarning rasmlari asosida «Bu adibni ta-niysizmi?» mavzusida bahs-munozara o‘tkazing. Tuzgan gaplaringizda o‘z-lik va gumon olmoshlarini qo‘llang.

3-mashq. Quyidagi qo‘shiq matnini avval ifodali o‘qing, so‘ng audiokassetadan tinglang. Qo‘shiqning nomi, muallifi va unga kuy bastalagan san‘atkorini aniqlang.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l elim!

Dunyoga boq qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang — xalq bo‘l elim...

Bo‘lar elning bolalari bir-birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo‘l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim!

4-mashq. O‘zbek estrada qo‘shiqchilari haqida namunadagidek dialoglar tuzing. Unda badiiy nutq uslubi imkoniyatlaridan kengroq foydalaning.

Namuna: — Ha, dugonajon, radioga buncha yopishib olmasang?

— Yulduz Usmonova kuylayapti. Shu qo‘shig‘ini juda yaxshi ko‘raman.

— Men ham eshitsam maylimi? Uning barcha qo‘shiqlarini yoqtiraman. Yaqinda yangi qo‘shiqlari yozilgan kasseta chiqqan ekan. Agar senda bo‘lsa, berib tur.

— Bo‘pti, beraman. Uch kunda qaytarasan, xo‘pmi?

— Kelishdik. Rahmat, dugonajon, meni xursand qilding.

Uyga vazifa. O‘zingiz sevgan qo‘shiqchining hayoti va ijodi haqida hikoya yozing. Tuzgan gaplaringizda olmosh va ravishlarni qo‘llang.

XXII. INSONDAN XOTIRA QOLADI

1-topshiriq. Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Ibn Sino shogirdlari

Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib **yotib olibdi**. Ibn Sinoning eng yaqin do‘st-birodarlari yaxshi so‘zlar aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga **harakat qilishsa**, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

— Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-

yu, kunim bitib, vafot etsam, yig'i-sig'i, oh-voh qilib o'tirmanglar. Faqat haqqimga **duo qilib**, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga besh zo'r tabibni **qoldirib ketmoqdaman**. Shu tabiblarning maslahatlariga o'zinglar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga **da'vat etinglar**, — debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

— Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? — deb so'rabdi.

Shunda Ibn Sino debdi:

— Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri — tozalik, ikkinchisi — parhez, uchinchisi — badantarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lish, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me'yorni bilish, ichkilikka ruju qo'yimaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmashlik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish — mana shu aytganlarimga **amal qilinsa**, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi.

L u g' a t

tabobat — врачевание

oqsamoq — хромать; не ладится

parhez — диета

mijoz — натура

ruju qo'yumoq — увлекаться



Topshiriqlar

1. Matnni o'qing, mazmunini o'z so'zingiz bilan hikoya qiling.
2. Matn yuzasidan savollar tayyorlang va o'zaro suhbatlashing.
3. Ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va ona tilingizga tarjima qiling.

2-topshiriq. Mavzuga oid maqol va hadislarni davom ettiring va ko'chirib oling.

1. Insondan xotira qoladi.
2. Ustoz — otangday ulug'.
3. Qahramonlar mangu yashaydi.
4. Yaxshidan bog', yomondan dog' qoladi.

1-mashq. *Bobomni eslab, xotira maydoni, buvimning o'g'itlari, Shahidlar xiyoboni, xotira kechasi, shoirmi yod etib, marhumni xotirlab, tavalludi munosabati bilan, tadbir rejasi, abadiy siymo kabi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, daftaringizga ko'chirib yozing.*

3-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Yaxshidan bog' qoladi

Ko'klam kunlarining birida Sulton Husayn saroyda yolg'iz o'tiraverib, zerikib ketibdi-da, ancha vaqtdan beri Mir Alisherdan darak bo'lmadi, borib holidan bir xabar olib kelay deb, do'sti yashaydigan mahallaga yo'l olibdi.

Borib qarasa, Mir Alisher yeng shimarib bog'ida ishlayotgan ekan. Buni ko'rgan Sulton Husayn otidan tushib, do'sti bilan so'rashgach:

— Hormang, do'stim! Nega shoirlar majlisida ko'rinmay qoldingiz desam, bog'bonlik qilyapsiz ekan-da! — debdi.

Mir Alisher belbog'i bilan peshonasidagi terini artar ekan:

— Ko'klam kelsa ko'chat ek, deyishgan. Shu bog'dagi qurigan olmalarni qo'porib tashlab, o'rniga uch-to'rt tup yong'oq eka-yapman,— deb javob beribdi.

— Ey do'stim-ey, qarigan chog'ingizda bog' qilishni sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo'lsak, bu yong'oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz? Oxir umringizda mana shu bog'dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqinda tinchgina g'azal bitib o'tiravermaysizmi?

— Do'stim, yaxshidan bog' qoladi, degan naqlni eshitgan-misiz? Men bu ko'chatlarni o'zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko'chalarini changitib yurgan bolakaylar, balki ularning ham bolalari uchun ekayapman. Bir kun kelib, shu ko'chatlarning har biri azim daraxt bo'lib, hosil bera boshlasa, odamlar uning mevasidan totib ko'rishganda, «Bu bog' Mir Alisherdan qolgan!» — deyishsa, shuning o'zi menga har qanday ne'matdan lazzatliroqdur, deb javob beribdi.

Bu gaplarni eshitgan Sulton Husayn Mir Alisherning saxovata-tiga qoyil qolib, unga bir hamyon to'la tilla chiqarib beribdi.

— Ana, ko'rdingizmi, do'stim! Ekayotgan ko'chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi, — deya kulib qo'yibdi Navoiy.

Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolgan ekan.

L u g' a t

zerikmoq — скучать
yeng shimarib — усердно
belbog' — поясной платок
qo'pormoq — выкопать

soya-salqinda — в тени
qanoat — терпение
saxovat — разум, одарённость



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini o'z so'zlaringiz bilan qayta hikoya qiling.
2. Matndagi yordamchi fe'llarni aniqlang va bu so'zlar ishtirok etgan gaplarni ma'nodoshlari bilan almashtirib ifodalang.
3. Matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing va ularga javobni dialogik tarzda ifodalang.



Ushbu o'qov

O'zbek tilida faol qo'llanuvchi yordamchi fe'llar quyidagilar: *gil, et, boshla, tur, bo'l, ol, ket, qo'y, kel, yubor, tush, sol, o'tir, yot, o't*.

Yordamchi fe'llar nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib ishlatiladi. Ular quyidagi so'zlarga qo'shiladi:

1. Otlarga qo'shilib, qo'shma fe'l hosil qiladi: *xabar olmoq, xizmat qilmoq, talab etmoq* kabi.

2. Mustaqil ma'noli fe'llarga qo'shilib, fe'lli birikma hosil qiladi va ularga qo'shimcha ma'no qo'shadi: *qarab qo'ymoq, o'qib chiqmoq, yoza boshlamoq* kabi.

2-mashq. Alisher Navoiyning ruboiy va baytlarini o'qib, mazmunini oddiy bayon usulida yozing.

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e'tibor,
Kim, aning zotida bedor-u sitam bo'lg'ay qilig'.
Yaxshilik gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,
Kim yomonlig' qilmasa, qilganча bordir yaxshilik.

O'lsam, yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O'tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Quyida qo'yung tani nizorimni mening.

L u g ' a t

figor – jarohatli, yarali – раненый
o'tru – qarshi, ro'para – напротив, навстречу
ko'y – ko'cha – дорога, путь
nizor – kuchsiz, ozg'in – бессильный, слабый

3-mashq. Rasm asosida «Ustoz va shogird» mavzusida bayon yozing.



4-topshiriq. Matnni o'qing, ajratilgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirib, matnni qayta hikoya qiling.

Hididan va mazasidan

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo'libdi. Hindiston bog'-rog'i ko'p, meva-chevaga boy yurt ekan. Boburshoh mendan **yodgor** qolsin deb, Hindistonning ko'rkam joyiga bir bog' barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng katta bog'ga turli yurtlardan nihollar — olma-yu olcha, anor-u o'rik, behi-yu xurmo, olma-yu gilos, ko'ksulton-u olxo'ri, tok, borki, hammasidan olib kelib ko'kartiribdi. Xalq dunyoga dong'i ketgan bu bog'ga «Bog'i Boburiy» deb nom qo'yibdi. Bog'dagi daraxtlar chunonam hosilga kirib meva berishibdiki, ularni hech yerga sig'dirib bo'lmabdi. «Bog'i Boburiy»ning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz

yetishtirilgan. Boburshoh qovunni yaxshi ko'rar ekan, ammo bog'da handalak bilan qovun bo'lmabdi. Boburshoh bir yil qovun ektiribdi — bitmabdi, ikkinchi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Birinchi yili gulidayoq tashlab yuboribdi. Ikkinchi yili palagi o'lib qolibdi, uchinchi yili pishib yetmay turib, hammasi birdan band beribdi. Boburshoh bo'lsa, qovun topishni talab qilaveribdi. To'rtinchi yili Boburshoh:

— Bu yil qovun hosil bermasa, hammangizning jazoyingizni beraman, — deb qahr-g'azab qilibdi. Nima qilishni bilmay bog'-bonlarning tozayam boshi qotibdi. Oxiri o'ylab-o'ylab, Boburshohga bildirmay uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha kunga ovga ketibdi. Shu payt bog'bonlarning boshlig'i ham o'n bir kishini yoniga olib, «Farg'ona qayerdasan», deb yo'lga tushishibdi. Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, o'n kun deganda Farg'ona viloyatining Namangan shahriga yetib boribdi. Karvon ot-aravalarga qovun ortib, tez iziga qaytib, o'n kun deganda yana Hindistonga yetib kelishibdi. Shu orada ovdan qaytgan Boburshoh bog'bonlarning Farg'onaga borib kelganini bilmay qolibdi. Boburshoh bog'bondan qovun **yo'qlatibdi**. Qovunni olib kelishibdi. Boburshoh qovunni hidlab ko'rib:

«Qayerda bitgan?» — deb so'rabdi. Bog'bon: «Bog'i Boburiy» da bitgan», — deb javob beribdi. «Yo'q, hidi boshqacha. Bunday **hidli** qovun bu yerlarda bitmaydi. Faqat bir o'lkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan», — debdi Boburshoh. «Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim, — debdi bog'bon.

Boburshoh qovunni hidlay-hidlay, **bo'yiga** mast bo'lib, uni tilimlamoqchi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmas tarsillab yorilib ketibdi.

Boburshoh bog'bonga qarab:

— Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq-oydin aytasan. Pichoq tegar-tegmas yorilib ketadigan qovun faqat men biladigan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga ham to'g'ri javob bermading. qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi? — debdi.

— Oliy hazrat, aldasam, boshimni tanamdan judo qiling, mayli, men roziman. Siz ko'rib turgan qovun «Bog'i Boburiy»da bitgan, — debdi bog'bon yana bilmagan bo'lib. Tilida shunday debdi-yu, ichida: «Boburshoh, qani, polizni ko'rsat, deb qolsa

holim ne kecharkin?» deb o‘ylab vahimaga tushibdi. Buni Boburshoh sezibdi-yu, o‘zini bilmaganga olibdi. Qovun shirinligidan **tilni yorar** emish. Boburshoh qovunning tilimini yeb bo‘lib, bog‘bonga qarabdi: «Yo‘q, sen meni aldayapsan. Bunaqa shirin, tilyorar qovun bu yerlarda **bitmaydi**. Boshqa joydan keltirgansan. To‘g‘risini aytsang, gunohingni kechaman, bordi-yu meni aldab, yana yolg‘on gapiradigan bo‘lsang, boshingni tanangdan judo etaman» — debdi.

Shoir va fozil Boburshohni aldab bo‘lmasligini bilgan bog‘bon rostini aytishga majbur bo‘libdi:

— Farg‘ona viloyatining Namangan shahridan keltirdik, — debdi bog‘bon ko‘ziga jiqqa yosh olib. — Rostini aytdingiz, shohim, bunaqa qovun, siz aytganingizdek, faqat o‘sha yoqlarda bitadi. Namangan shakarpalagi degani shu...

Bog‘bonning gapidan Boburshohning **ko‘ngli buzilib**, yig‘lab yuborishiga ozgina qolibdi. Bog‘bon: «Shohim, qovunni qayerdan olganimni so‘rab bilib oldingiz. Endi nima qilsangiz ixtiyoringiz o‘zingizda. Ammo o‘limim oldidan men ham sizdan bir so‘rovimga javob berishingizni tilayman», — debdi. Boburshoh: «So‘ra so‘rovingni» degan ekan, bog‘bon: «Qovun bu yerdan emasligini qayerdan bildingiz?» — debdi. «Hidi, pichoq tegartegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekanligini angladim. Rahmatli otam bog‘idagi polizda shunaqa shakarpalak ko‘p bo‘lardi. Uzoq hindu yurtida turib o‘z shahrim shakarpalagi bilan siylaganing uchun gunohkor bo‘lmay, in‘om-ehsonlarga loyiqsan», — deb Boburshoh bog‘bonga rahmatlar aytib, **bir sidra** sarmo berdiribdi-da, ushbu ruboiyni o‘qibdi:

Tole yo‘qi jonimga balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki aylasam xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni tashlab Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi!

(«O‘zbek xalq asotirlari» kitobidan).

L u g‘ a t

rezavor — зелень

shakarpalak — название сорта дыни

in‘om-ehson — подарок

tole — фортуна, счастье

balolig‘ — беда



1. Mirzo Bobur nima maqsadda bog' barpo etdi?
2. Bog'ga qanday nihollar ekildi?
3. Bog'da kaysi poliz ekinining unishi qiyin bo'ldi?
4. Nima sababdan bog'bon shoh Boburni aldashga majbur bo'ldi?
5. Qovun qayerdan keltirilgan edi?
6. Boburshoh nima uchun bog'bonga in'om-ehson berdi?
7. Bobur ruboiysining ma'nosini o'z so'zingiz bilan tushuntirib bering.
8. Matndan shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlarni topib, ona tilingizga tarjima qiling.

5-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Lug'at orqali mazmunini izohlab bering. «Ustoz-shogird munosabati» mavzusida bahs-munozara o'tkazing.

Alvido, ustoz

«Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh...»
Sarbonim, qo'lingdan ketdimikan erk,
Sarbonim, ne uchun ko'tarmaysan bosh.

So'qir, yovuz o'lim, ming dod dastingdan,
Zulmatday kirdingmi she'r maydoniga.
Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan
O'zbek she'riyatini pahlavoniga.

Olis fazolarga ketgan ham qaytar,
Botuvchi quyosh ham chiqar bilmay had.
Nahot ona xalqim alvido aytar
Bugun G'afur G'ulom boshida abad?

Dardli musiqalar, ingrangiz bir-bir,
O'zing ham yig'la, ey, dilda qotgan g'am.
Yorug' bu olamda bormikan, axir
Shoir vafotidan ortiqroq motam!

Zor yig'lab navosiz qolmagay dunyo,
O'zi chora topmay yig'lagay alam.
Shogirdlar qo'lidan tushmagay aslo
Sening qo'llaringdan tushgan shu qalam.

(A. Oripov)

L u g' a t

bo'ta – верблोजонок
so'qir – слепой

had – граница, предел
motam – траур

Uyga vazifa. She'mi ifodali o'qib, mazmunini so'zlashga tayyorlaning.

XXIII. XALQIMIZNING ASL FARZANDLARI

1-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ilm o'rganish

Ilmi ko'p odamlarga ko'ra ilmim oz deb **uyalmang**, balki bilish, o'rganishga iltifot qilmasligingizdan, hafsalasizligingizdan uyaling. Mana bunisi aybdir.

Har vaqt ilm-hunarga **muhabbat qo'ying**, o'rgatilgan narsalarni yodingizdan chiqarmang, ilm-hunar o'rganishga chin ixlos bilan **kirishing**, yoshligingizni bekorga o'tkazmang.

Ilm olib katta **mansab egasi** bo'laman, mol-u mulkim ko'payadi, degan niyat bilan ilmga kirishmang, bu niyatni ko'nglingizdan chiqaring. Ilm o'rganishdan maqsad mansab egallash, boylik orttirish emas, balki olim bo'lib, jamiyatga manfaat yetkazishdir – buni sira esingizdan chiqarmang.

O'qib, olim bo'lganingizda ilmingiz bilan maqtanib, boshqalarni ko'zga ilmay, mutakabbir bo'lib yurmang, olim odam kamtar, **muloyim**, tavozeli bo'ladi, ilmi bilan sira ham maqtanmaydi. Kechayu kunduz fikri-zikri xalqqa foyda yetkazish bo'ladi.

L u g' a t

hafsalasizlik – незаинтересованность
ixlos – настойчивое стремление
niyat – цель, мечта
tavozeli – вежливый

ko'zga ilmay – не признавая
mutakabir – высокомерный,
некорректный



Topshiriqlar

1. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida mustaqil ravishda gaplar tuzing.
2. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzing.
3. Gaplarning kesimini aniqlang, ularning qo'shimchalarini ajratib ko'rsating.

4. *Ilm, olim, jamiyat, mansab* soʻzlarining sinonimlarini toping va ona tilingizga tarjima qiling.



Agar gapning mazmuni barcha shaxslarga, umumga qaratilishi lozim boʻlsa, bunday gaplarning kesimini II shaxs birlik shaklida qoʻllash kerak. Masalan, oʻzbek tilida koʻpgina maqollar shu tipdagi **shaxsi umumlashgan gap** tarzida tuziladi, chunki maqollardagi fikr barchaga qaratiladi. Masalan: *Kattaga hurmatda boʻl, kichikka — izzatda. Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.*

1-mashq. Quyidagi maqollarni oʻqing, mazmunini izohlab, daftaringizga koʻchiring.

Olim boʻlsang, olam seniki.
Bilmaganingni bilgandan soʻra.
Ilmni Chinda boʻlsa ham oʻrgan.
Birni kessang, oʻnni ek.
Befoyda soʻzni aytma,
Foydali soʻzni eshitishdan qaytma.
Avval oʻyla, keyin soʻyla.
Yaxshini koʻrib fikr qil,
Yomonni koʻrib shukur qil.

2-topshiriq. Berilgan tasvir asosida Mirzo Ulugʻbekning astronomiya ilmiga qoʻshgan hissasi toʻgʻrisida soʻzlab bering.



3-topshiriq. «Yoshlar — kelajagimiz poydevori» mavzusida suhbat uyushtiring.

4-topshiriq. Hadislarni o'qing va mazmunini izohlab bering.

Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir.

Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida — zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir.

Beshikdan qabrgacha ilm izla.

5-topshiriq. O'zbekistonda qilingan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar haqida «Bilasizmi?» mavzusida bahs uyushtiring. Shu mavzuda namunadagidek dialoglar tuzing va daftaringizga ko'chiring.

- A. — Kim biladi, televizor qayerda ixtiro qilingan?
— Birinchi televizor Toshkentda ixtiro qilingan....
- B. — Muso al-Xorazmiyning ilmiy kashfiyotini kim biladi?
— U algebra faniga asos solgan....



O'zbek tilida his-hayajonni ifodalovchi gaplar quyidagi vositalar bilan hosil qilinadi:

1. Undovlar, yuklamalar yordamida:
Eh, fanimiz fidoyilari! Siz axir bizning g'ururimizsiz-ku!
2. Gap bo'laklari tartibini o'zgartirish bilan:
Sizni unutmaydi o'zbek millati!
3. So'zlarni takror qo'llash orqali:
Keldimi, o'g'lim, keldimi?!

6-topshiriq. Quyidagi kabi savollar asosida «Zukkolar» musobaqasini uyushtiring. His-hayajonni ifodalovchi gaplarni qo'llab, savollarga javob yozing.

1. O'zbekiston qazilma boyliklarini dunyoga tanitgan mashhur geolog olim kim?

2. Ovozsiz, katta va ko'p sonli vulqon qayerda joylashgan?

3. Jahondagi eng sho'r dengiz qaysi?

4. Amerikaning eng shimoliy shtatini bilasizmi?

5. 1938-yilda Kapitsaga qaysi kashfiyoti uchun Nobel mukofoti berildi?

6. O'zbekistonda eng kuchli zilzila qachon bo'lgan?

7. O'rta Osiyo xalqlari o'tmishda qanday yozuvlardan foydalangan?

2-mashq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Aljabr, ya'ni algebra

Algebra so'zi qayerdan kelib chiqqanligini bilasizmi? Bu so'z ma'nosini vatandoshimiz al-Xorazmiy nomi bilan bog'liqligini eshitganmisiz?

Buyuk matematik Al-Xorazmiy 783-yili Xorazmda tug'ilgan. Arab xalifalaridan Ma'mun Muhammad homiyligida dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oladi. Keyin o'sha davrda ilm-fan markazi bo'lgan Marv shahriga kelib, madrasada o'qiydi, ilmiy kuzatishlar bilan shug'ullanadi. Ilm-fanga mehr qo'ygan xalifa Ma'mun Muso Xorazmiyni o'zi bilan Bag'dodga olib boradi va **Xorazmiyni «Hikmatlar uyi» deb nomlangan fanlar akademiyasiga boshliq etib tayinlaydi.**

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko'p risolalar yozdi. «Tenglamalar va qarshilantirish», «Hind hisobi», «Yer surati haqida kitob», «Tarix kitobi» kabi asarlari ilmda yangi kashfiyot bo'ldi, olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Olim tenglamalar haqidagi kitobida yozadi: «Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi al-jabr va al-muqobala hisobi haqida kitob yozdim. Chunki u odamlarga meros taqsimlash, vasiyatnoma yozish, boylik bo'lish va adliya ishlari, savdo-sotiq, kanal qazish, geometrik hisoblashlar, shuningdek, boshqa turli munosabatlarda juda ham zarur».

Hozirgi zamon algoritm tushunchasi ham al-Xorazmiy ismining lotincha talaffuzi — «algorismus» soʻzidan olingan. Tenglamalar haqidagi fanning bir sohasini ifodalovchi «algebra» soʻzining kelib chiqishi ham Xorazmiyning «Al-jabr va al-muqobala» risolasi bilan bogʻliq. Uning bu asari Ispaniya va Portugaliyadagi arablar orasida ham keng tarqalgan. Ular «j» tovushini «g» tarzida talaffuz etib, «aljabr»ni «**algebr**» deyishadi.

Bu kitob lotin tiliga tarjima qilingach, Garbiy Yevropada ushbu soʻz «algebra» tarzida qabul qilingan. Shunday qilib, bu soʻz tenglamalar haqidagi fanning nomi boʻlib qoldi.



Topshiriqlar

1. Matn mazmunini oydinlashtiruvchi savollar tuzing.
2. Ajratib koʻrsatilgan gaplarni shaxsi umumlashgan gaplarga aylantirib yozing.
3. *Taʼlim, ilmiy kuzatish, fan, kelib chiqishi* soʻzlarining maʼnosini izohlang va bu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

7-topshiriq. Til ilmiga oid atamalar boʻyicha soʻz oʻyini uyushtiring va boshqotirma tuzing.

8-topshiriq. Matnni oʻqing, mazmunini oʻzbek tilida qayta soʻzlab bering.

Молодой ученый

Давронбек Матрасулов родился 8 июля 1971 года в Хазраспском районе Хорезмской области. В 1993 году экстерном закончил физический факультет Национального университета Узбекистана. Он, не защищая кандидатскую диссертацию, защитил сразу докторскую, став доктором физико-математических наук. Молодой ученый известен как крупный специалист в области нелинейной динамики, атомной физики и физики мезоскопических систем, не только в республике, но и за рубежом.

Давронбек Матрасулов в студенческие же годы начал углубленно заниматься теоретической физикой. Свою первую научную работу о решении уравнения Дирака он написал будучи еще студентом третьего курса.

За прошедшие после окончания учебы годы молодой ученый добился крупных научных достижений в области физики и элементарных частиц, атомной физики, молекулярной физики, физики и тяжелых ионов и т.п.

Результаты научных исследований Давронбека Матрасулова используются в ряде экспериментов в Европейском центре ядерных исследований и в научных центрах Германии. Более шестидесяти исследовательских работ Давронбека Матрасулова опубликованы в ведущих зарубежных научных журналах, он получал международные премии, стипендии и гранты.

Он также был председателем Международной конференции «Нелинейная динамика и фундаментальные взаимодействия», прошедшей в 2004 г .

В настоящее время он работает заведующим лабораторией Перспективных исследований в отделе теплофизики Академии наук Узбекистана, которая является в настоящее время одним из признанных в мире научных центров.

Сотрудники руководимой им лаборатории участвуют в целом ряде крупных международных научных проектов. Только с 2004 года восемь из них были удостоены престижных зарубежных и отечественных стипендий и грантов. Молодые ташкентские ученые проводят совместные исследования с коллегами более чем из 20 стран мира.

Среди партнеров лаборатории Отдела теплофизики АН Узбекистана такие известные научные центры, как Институт физики комплексных и сложных систем в Дрездене, Институт имени Гельмгольца Боннского университета, Сорбона и университет имени Мари Кюри в Париже, университеты Канады, США, Японии. Кроме того, руководит международным проектом по изучению вакуумных эффектов в сверхсильных магнитных полях, в котором задействованы ведущие ученые Германии, Канады, России и других стран.

9-topshiriq. Matn mazmunidan kelib chiqib «Ilm sohasidagi yutuqlarimiz» mavzusida baxs-munozara o'tkazing. Unda his-hayajon ifodalovchi gaplardan foydalaning.

3-mashq. She'rni o'qing, his-hayajon ifodalovchi gaplarni aniqlab, ona tilingizga tarjima qiling va uning mazmuni asosida qisqacha bayon yozing.

Siz — murabbiy

Yo'lagayman behad salom,
Ey, mehribon muallimlar!
Ta'zim sizga qalbimizdan
Jahon-jahon muallimlar!

Hayotimiz intizomi,
Bani bashar ehtiromi,
Sizdan to'lar maqsad jomi,
Jonga darmon muallimlar.

Siz murabbiy inson uchun,
Har bir ilm-u urfon uchun,
Rahnamosiz vijdon uchun,
Qalbi bo'ston muallimlar!

Ko'klar sari parvozimiz,
Dong taratgan ovozimiz,
Siz tufayli, ustozimiz,
Dil — guliston, muallimlar!

Ma'rifatning keng quchog'i,
Tinmay qaynar fan bulog'i,
Inson baxtin — siz chirog'i,
Yo'qdir armon, muallimlar!

Siz bog'bon, biz bog'ingiz,
Hamisha ko'z qarog'ingiz,
To'tiyo ko'z tuprog'ingiz,
Bizga har on muallimlar!

Men mardumi Farg'onangiz,
Qalbin tig'lar taronangiz,
Charxiy bo'lib parvonangiz,
Yozar doston muallimlar!

(Charxiy)

Uyga vazifa. O'zbek allomalaridan birining dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasi haqida matn tuzing.

I L O V A

Iqtidorli talabalar bilan ishlash va mavzularni chuqurlashtirib o'tishda foydalanish uchun turli mavzularga oid hamda adabiy-badiiy matnlar

BOZOR IQTISODIYOTI

Bozor iqtisodiyoti bu erkin mol-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga ega bo'lgan iqtisoddir.

Har bir korxonada, tashkilot, ayrim fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra, qonun doirasida o'ziga ma'qul bo'lgan ish bilan shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan, u har qanday monopolizmni inkor etadi. Biroq u o'zining tartibga soluvchisiga ega. Ularning eng muhimi bozor narxidir. Narx oshib, mollar jadal sotilsa, foyda ko'payadi, ularni ishlab chiqarish kerak bo'ladi. Bozor munosabatlarining har bir subyektini — korxonami, davlatmi, alohida shaxsmi, buning ahamiyati yo'q, o'z manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi.

KOMPYUTERLAR

Kompyuter avlodlari dastlab XVIII asrda kashf etilgan. Uning asosini elektron lampalar tashkil qilgan.

Uning hajmi juda katta (ba'zida uydek) bo'lgan. U faqat qo'shish va ayirish amallarini bajargan.

Keyingi hisoblash mashinalari tranzistorlar asosida qurilgan bo'lib, hajmi birmuncha kichraytirilgan, tezkorligi birinchi avlodga nisbatan bir necha marta oshgan. Bu avlod mashinalarida qo'shish va ayirish amallaridan tashqari, bo'lish amali ham bajarilgan. Tranzistorga asoslangan hisoblash mashinalari qattiq disklar asosida ishlagan.

Uchinchi avlod kompyuterlari 50—60-yillarda paydo bo'lib, ular integral sxemalarga asoslanib qurilgan.

To'rtinchi avlod kompyuterlari KISlarga asoslangan va nihoyatda tezkor va katta xotira hajmiga ega bo'lgan.

Hozirgi zamonaviy beshinchi avlod kompyuterlari fototoklarga asoslangan bo'lib, nihoyatda katta imkoniyatlarga ega.

SERTIKATLASHTIRISH

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga javob berishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum belgilangan talabga muvofiq (mos) kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishni talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin.

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot (buyum, mol) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, mol)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat — sertifikat beriladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo'ladi: majburiy va ixtiyoriy. Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uni tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi.

Shuning uchun tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo'ladi, qolgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishi esa ixtiyoriydir.

RANGLI METALLAR

Rangli metallar temir va temir qotishmalaridan boshqa barcha metallarning texnik nomi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda yer qobig'ida joylashish xarakteriga qarab rangli metallar temir-mas deb ham atalib, quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin: yengil (aluminium, magniy va titan, berilliy, litiy va boshqalar), og'ir (mis, nikel, kobalt, qo'rg'oshin, qalay, rux va boshqalar), qiyin eriydigan (volfram, molibden, niobiy, tantal, xrom, sirkoniy va boshqalar), asl yoki qimmatbaho (oltin, kumush, platina va platinasimon metallar), tarqoq (galliy, indiy, talliy), siyrak (skandiy, ittriy, lantan va lantanoidlar), radioaktiv (texnetsiy, fransiy, radiy, poloniy, aktiniy, toriy, uran).

Chegaralangan miqdorda ishlab chiqariladigan va ishlatiladigan metallar nodir metallar deyiladi. Bularga barcha tarqoq, siyrak, radioaktiv metallar, qiyin eriydigan metallarning ko'p qismi va ba'zi yengil metallar kiradi.

ISHLAB CHIQRISH BINOLARI

Ishlab chiqarish muhitiga binoning arxitektura-konstruktiv ko‘rinishi, qurilish va bezak materiallari ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish binolarining poli o‘zining pishiq-puxtaligi, chidamliligi, mexanik yuk og‘irligiga hamda siyqalanib yeyilib ketishga mustahkamligi bilan ajralib turishi kerak, chunki unda turli-tuman mehnat jarayonlari olib boriladi.

Elektronika, asbob-uskuna va mashina ishlab chiqarish korxonalarida agressiv va yonuvchi suyuqliklar, eriydigan yoki yonadigan predmetlar joylashganligi sababli pollarga maxsus talablar qo‘yiladi. Bular quyidagilar: pol alanganmasligi, changimasligi, elektr o‘tkazuvchanligi va ustining silliqligi bilan ajralib turishi kerak. Pol uchun qurilish qiymatining 10—20 foizi sarflanishini hisobga olgan holda, undan ratsional, maqsadga muvofiq foydalanish lozimdir. Bundan tashqari, pol estetik did talablariga javob berishi, rangi, fakturasi va umumiy ko‘rinishi bilan interyer ko‘rinishiga mos kelishi kerak.

IKKI BUYUK ALLOMA

O‘lkamiz geologiyasi va foydali qazilmalariga oid dastlabki ma‘lumotlar o‘z zamonasining buyuk allomalari bo‘lgan Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino asarlarida o‘z aksini topgan.

Beruniyning foydali qazilmalarning paydo bo‘lishi, tog‘ jinslarining yemirilishi va yer qobig‘ida og‘irlikning muvozanatlashib turishi uchun yer osti tog‘ jinslarining joylashish holatlari kabi masalalar haqidagi fikrlari yer osti foydali qazilma boyliklarini qidirish ishlarida juda katta ahamiyatga ega.

Uning bu sohadagi eng qimmatli xizmatlaridan biri —mineralarning fizikaviy xossalarini ta‘riflab, ularning tarqalgan joylari haqida ma‘lumotlar beradi. Farg‘ona vodiysidan asfalt, neft, qora mum, mo‘miyo, simob, temir, mis va boshqa foydali qazilmalar olish mumkinligini isbotlaydi.

Beruniyning xulosalari O‘rta Osiyo yer osti boyliklarini qidirish yo‘lida qimmatbaho manba bo‘lib kelmoqda.

Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asarida turli tibbiyot ilmlari qatori geologiya va mineralogiyaga oid ma‘lumotlar keltirilgan. U tog‘larni tashkil etuvchi toshlar uzoq vaqt davom etuvchi turli tabiiy jarayonlar (qotish, birikish, erish) natijasida asta-sekin vujudga kelishini ko‘rsatadi.

Ibn Sino mineralogiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U minerallarni 4 guruhga: toshlar; eriydigan jism; oltingugurtli yonuvchi jismlar; tuzlarga ajratadi.

Kon qidirish va qazib olishga urunishlarning eng rivoj topgan davri ham shu ikki alloma — Beruniy va Ibn Sino yashab ijod qilgan IX—XI asrlarga to'g'ri keladi.

MEXANIKA

Mexanika (yunoncha so'z bo'lib, «mashina tuzish san'ati» demakdir) — jismlarning siljishlari va siljishlarda ular orasidagi o'zaro ta'sir haqidagi fan. Mexanika deganda, odatda, Nyutonning mexanika qonunlaridan iborat klassik Nyuton mexanikasi tushuniladi. Bu mexanika yorug'likning vakuumdagi tezligi (s)ga nisbatan kichik bo'lgan makroskopik jismlar harakatini o'rganadi.

Mexanikaning kinematika, dinamika, statika bo'limlari bor. Mexanikaning xulosalari amaliy fanlarda: mashina va mexanizmlar nazariyasi, qurulish mexanikasi, gidravlika, materiallar qarshiligi, kosmik uchish apparatlari va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

GAZ SANOATI

Gaz sanoati XVIII asrning oxiri XIX arning boshlarida Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya kabi davlatlarda toshko'mirdan olingan gazdan shaharni yoritish maqsadida foydalanish yo'lga qo'yilgandan boshlab shakllana boshladi. Keyinchalik XIX asrning ikkinchi yarmida ko'mirdan gaz oluvchi qurilma — gaz generatori yaratildi. Bundan tashqari, XIX asrning 20-yillarigacha neft gazlaridan foydalanib kelindi. Lekin bu davrgacha hali tabiiy gaz zahiralari aniqlanmagan, ulardan foydalanilmas edi.

Tabiiy gaz zahiralari topilgach, uning afzalliklari (boshqa yoqilg'i turlariga nisbatan tabiiy gazni qazib olish osonligi va arzonligi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning qulayligi, mehnat sharoitini yengillashtirishi va boshqalar) bu sanoatning tez sur'atlar bilan taraqqiy etishiga olib keldi. Shuning uchun gaz konlarini topish va ularni ishga tushurish ishlariga katta ahamiyat berildi.

O'zbekistonda tabiiy gaz 1932-yildan olina boshladi, lekin u vaqtda chiqarilgan tabiiy gazning miqdori juda ham oz edi. 1962-yilga kelib Gazli gaz-neft konining ochilishi bilan O'zbekistonda uikan magistral gaz quvurlari yaratishga asos solindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, gaz sanoatini rivojlantirish sohasida ham islohotlar o'tkazila boshladi. Neft va gaz sanoati hamda ular bilan bog'liq korxonalar, tashkilot, muassasalar yagona boshqaruvga birlashtirilib, «O'zbekneftgaz» milliy korporatsiyasi tashkil etildi.

KONSHUNOS OLIMA

Unga ta'rif beriladigan bo'lsa, ko'pincha «birinchi bo'lib», «tinimsiz mehnat qilgan», «sodiq qolgan» iboralari ko'p ishlatiladi. Buning sababi bor, albatta. Noyob kasb egasi Fotiha Mavlonova timsolida o'zbek ayollari ham eng og'ir sohada erkaklar bilan bir qatorda turib muvaffaqiyatli ish olib borishi mumkinligining shohidi bo'lamiz.

Foydali qazilmalarni qazish, konlarni qidirish bo'yicha ayollardan birinchi bo'lib tog' muhandisi nomini olgan F. Mavlonova ilk tajribalarini qirqinchi yil Qizilqiya ko'mir konida o'tkazgan.

Yosh mutaxassis qirq to'rtinchi yili O'rta Osiyo shaxtalarini loyihalash – «O'rta Osiyo ko'mir tashkiloti»ga ishga yo'llandi. Bu tashkilot urush vaqtida davlatni ko'mir bilan ta'minlash uchun tezkorlik bilan shaxtalarni loyihalash ishlarini bajarar edi. F. Mavlonova ham bu ishlarni bajarishga kirishdi. Shu tariqa ilmiy ishga zamin yarala boshlandi. O'rta Osiyo industrial instituti qoshidagi aspiranturani muvaffaqiyatli tamomlagan olimalar «Foydali qazilma konlarini qazib olish» kafedrasida ishlay boshladi. Qariyb 50 yil mobaynida kichik o'qituvchidan professor lavozimigacha ko'tarildi.

Tinimsiz mehnati natijasida olimalar «Tog' jinrlarining fizik-mexanik xususiyatlari» nomli darslik tayyorladi. U foydali qazilmalarni yopiq va ochiq usullar bilan qazib chiqarish texnologiyasini mukammallashtirish, tog' fizikasi hamda O'rta Osiyo sharoitida ishlanadigan konlarda ro'y beradigan fizik jarayonlarni o'rganish sinigari bo'limlardan iborat.

O'ta kamtarin, mehnatsevar Fotiha opa mashaqqatli kasb egasi bo'lsa-da, o'z kasbiga sodiq qoldi. U nafaqat talabalarning sevimli murabbiysi, balki o'nlab professor o'qituvchilarning ustozidir.

TEXNIKA

Texnika yunoncha so'z bo'lib, san'at, mahorat degan ma'noni bildiradi. Texnika — inson faoliyati vositalari majmuyi. Ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamiyatning turmush talablarini qondirishga xizmat qiladi. Ba'zan biror faoliyatdagi mahorat

va usullar ham texnika deb ataladi (masalan, milliy kurash texnikasi). Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida insoniyatning bilimi va ishlab chiqarish tajribasi texnikada mujassamlanadi. Texnika insonning og'ir mehnatini yengillashtiradi va uning samaradorligini oshiradi; tabiatni jamiyatning ehtiyojiga mos holda o'zgartirishga imkon beradi. Ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga ko'ra texnika insonning aqliy va jismoniy mehnati bilan bog'liq texnologik vazifalarni bajarishni asta-sekin o'z zimmasiga ola boradi.

Texnika vositalarining asosiy qismini ishlab chiqarish texnikasi tashkil etib, unga mashina va mexanizmlar, asboblari, mashina va texnologik jarayonlarni boshqaruvchi apparatlar, ishlab chiqarish binolari va inshootlari, kommunikatsiya va boshqalar kiradi.

ANNOTATSIYA NAMUNASI

Hozirgi kunda biror fan sohasi yo'qki, u «Informatika» fani singari juda ham jadal sur'atlar bilan rivojlangan bo'lsin. Haqiqatan ham, bundan 5—10 yillar oldin informatsion texnologiya sohasida fundamental hisoblangan adabiyotlar hozirgi kunga kelib juda ham eski va zamon talabiga javob bera olmaydigan adabiyotlar ro'yxatidan o'rin egalladi.

To'plamda kompyuterning dasturiy ta'minoti, algoritmlash asoslari, Paskal dasturlash tili bayon etilgan. Talabalar ushbu mavzularni o'zlashtirish natijasida hozirgi zamon kompyuterlari bilan muloqotda bo'lib, uning texnik imkoniyatlarini, algoritmlash asoslarini yechish uchun Paskal algoritmik tilini o'rganadilar.

ELEKTR PECHLARI

Elektr pechlari va qizitish uskunalari sanoatda, qishloq xo'jaligida, transportda, umuman ishlab chiqarishda juda keng tarqalgan. Ko'pgina zavod va fabrikalarda taxminan 15—25 % elektr energiyasini elektr pechlari va qizitish uskunalari iste'mol qiladi. Metallurgiya zavodlarida elektr energiyasining asosiy qismini elektr pechlari va elektr uskunalari iste'mol qiladi.

Elektr pechlaridan mashinasozlik, transportsozlik va avtomobilsozlikda po'lat va rangli quyma metallar olishda ham foydalanilmoqda.

Hozirgi paytda zamonaviy ishlab chiqarishni elektrotermik uskunalari va jihozlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki elektro-

termik ishlov nafaqat metallarni eritishga, balki qotishmalar ishlab chiqarishga, har xil turdagi materiallarni qizdirishga hamda maxsus va ligerlangan po‘latlar olishga imkon beradi. Po‘latning ayrim turlarini faqat elektr pechlarida olish mumkin. 2000–2500 darajagacha bo‘lgan texnologik jarayonlarda faqat zamonaviy elektr pechlari vo qizitish uskunalari ishlatish mumkin.

AMALIY SAN’AT

Amaliy san’at so‘nggi 80—90 yillar ichida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandchiligini o‘z ichiga olgan amaliy san’at; yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog‘och buyumlar, gilamchilik, kash-tachilik, zardo‘zlik va boshqalar) sanoatni o‘z ichiga olgan badiiy sanoat; ko‘rgazma, interyer va manzarali kulollik buyumlari, gobelen, shisha, chinni va zargarlik san’atida an’anaviy bo‘lmagan buyumlar yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bog‘liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san’ati.

Xalq Amaliy san’atini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda «Usta» birlashmasi (1978) muhim rol o‘ynadi. Kulollik, kandakorlik, tosh, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, zargarlik san’ati, zardo‘zlik, gilamchilik va kigizchilik, lok miniaturasi, badiiy to‘qimachilik, nosqovoq, to‘qima ro‘zg‘or buyumlari, chinni, shisha buyumlar tayyorlash va boshqa amaliy san’at turlari rivojlanmoqda. Ganch o‘ymakorligini me‘moriy bezaklarda qo‘llash bu turning barcha maktablari an’analarini rivojlantirishga e‘tiborni oshirdi.

(«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»dan)

NON SEHRI

Samarqandda Ali degan me‘mor bo‘lgan ekan. U bir-biridan go‘zal imoratlar qurar ekan-u, usti kiyimga yolchimas, qorni nonga to‘ymas ekan. Kunlardan bir kuni Ali qattiq kasalga chalinib, yotib qolibdi. Tabiblarga ko‘rsatibdi, shifo topmabdi, folbinlarga fol ochtiribdi, bo‘lmabdi, qushnochlarga qoqtiribdi, tuzalmabdi.

Tabiblardan biri Alini o‘zi qurgan imoratning tomiga olib chiqishni maslahat beribdi, u yerda yotsa balki dardiga davo topar, debdi. Alining do‘stlari uni tomga olib chiqib qo‘yishibdi. Ali u

yerda kunduzi Osmon bilan Quyoshga, kechasi Oy bilan Yulduzga qarab yotaveribdi. Kunlardan bir kuni shaharga qaroqchi o'g'rilar bostirib kelishibdi. Shu shaharlik bir kosib Ma'rifat degan husn-jamolda tengi yo'q qizini ulardan qochirib, tomga olib chiqib qo'yibdi. Tomda kasal yotgan Alining dimog'iga yoqimli hid kirib, ancha-muncha yengil torta boshlabdi. Buning sababi, Ma'rifat olib chiqqan qopga onasi bilan o'zi yopgan Samarqand nonidan solingan ekan-da! Aliga nondan beribdi. Nondan yegan Alining kuchiga kuch qo'shilib, shifo topa boshlabdi. Bu orada shahar qaroqchi-o'g'rilardan ham xalos bo'libdi. Keyin Ali ham, Ma'rifat ham tomdan tushishibdi. Ikkovi bir-birini qattiq sevib qolishgach, to'y qilib oila qurishibdi. Ali qaytadan kuch-quvvatga kirib, yangidan-yangi go'zal, chiroyli binolar quraveribdi. Ma'rifat bo'lsa bir-biridan chiroyli, shirin nonlar yopaveribdi. Ali qurgan bir-biridan yaxshi binolarining dong'i olamga tarqalgan bo'lsa, Ma'rifatning bir-biridan sarta'm, mazali nonlarining dong'i yetti iqlimga yetibdi. Shunday qilib, Samarqand noni ikki yoshni bir umrga qovushtirib, tinch-omon hayotga boshlabdi, murod-maqсадga yetkazibdi. Ali hozir ham ko'rkam binolar qurarmish. Ishdan horib-charchab kelsa, Ma'rifat issiq non bilan kutib olar emish. Quyoshdan nusxa olgan non Ma'rifat va Ali qalbini hamon birlashtirib turarmish...

(«O'zbek xalq asotirlari» kitobidan)

TARIXIY SHAHARLAR

Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Xivaning arxitektura qiyofasi asosan XVIII asrning oxiridan XX asrning boshlarigacha shakllangan. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Uning eng qadimiy (XIV asr) yodgorligi Said Aloviddin maqbarasi, eng muhim obidalarini Ko'hna ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, 16 xonadan iborat Tosh hovli saroyi, Islomxo'ja minorasi, Kalta minor, 94 masjid va 63 madrasa qayd etilgan. Xiva shahri hozir 2503 yoshda.

Buxorodagi ko'hna Ismoil Somoniy maqbarasi taxminan 892–907-yillarda somoniylar sulolasining vakili Ismoil Somoniy tomonidan to'rtburchak shaklida bunyod etilgan. Har burchagida bittadan kichik gumbaz, o'rtasida esa eng asosiy katta gumbaz

joylashgan. Maqbara devorlari ichkari-tashqarisidagi boʻrtiq-boʻrtiq shakllar oʻziga xos badiiy bezak sifatida koʻzga tashlanadi. Kunning turli vaqtlarida quyosh nurlari taʼsirida ular rang-barang koʻrinish kasb etadi. Bu hol, ayniqsa, kechasi oy shuʼlasida yaqqol seziladi. Bunday uslub dunyo meʼmorchiligining birorta yodgorliklarida uchramaydi.

«SADDI ISKANDARIY» HAQIDA

Iskandar — tarixiy shaxs boʻlib, Aleksandr Makedonskiy nomi bilan butun dunyoga shuhrati ketgan yunon podshosidir. U oʻzining qisqa, ammo shiddatli hayoti davomida qariyb yer yuzining yarmini zabt etib, birlashgan davlat barpo etishga ulguragan jahongir edi.

Oʻttiz uch yil umr koʻrgan bu qudratli rumlik fotih obrazi kishilik jamiyatining diqqat markazida boʻlib kelgan. Afsonaga aylangan Aleksandr obrazi Iskandar nomi bilan Sharq xalqlarining zabardast shoirlari asarlari qahramoni uchun prototip boʻlib xizmat qildi.

Alisher Navoiy oʻzining «Xamsa» asarini ona tili — turkiyda bitdi. Bu asar «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabʼai sayyor», «Saddi Iskandariy» nomli besh dostonidan iborat.

Navoiyning «Saddi Iskandariy» (1484) asari «Xamsa»ning oxirgi dostoni boʻlib, ilgarigi toʻrt dostonida oʻrtaga tashlangan masalalarga munosib, ibratli javoblar beriladi, goʻyo aytilgan fikrlarga yakun yasaladi.

Rum shohi Faylaqus vafot etgach, uning ana shu vayronadan topib olinib, Iskandar deya nom berilgan, saroyning eʼtiborli olim va faylasuflari qoʻlida tarbiya koʻrib, dunyodagi bor ilmlarni egalagan oʻgʻli Iskandarni xalq shoh qilib koʻtarmoqchi boʻladi. Ammo u hali davlatni boshqarish ishiga tayyor emasligini aytib, bu taklifni rad etadi. Xalq qattiq iltijo qilgach, davlat idorasini oʻz qoʻliga oladi.

Doston 89 bobdan iborat boʻlib, undan 18 hikmat, 17 hikoya oʻrin olgan. Dostondagi hikoyalar ixcham, loʻnda boʻlib, mazmunan chuqur va ibratlidir. Ularda axloq-odob, saxovat, tabiat fasllari tasviri, himmat, tadbirkorlik, mehmonnavozlik, toʻgʻrilik, rostgoʻylik kabi masalalar qalamga olingan.

Dostondan oʻrin olgan Luqmon haqidagi va shu hikoyadagi fikrni tasdiqlash maqsadida keltirilgan Iskandarning dunyodan

bo'sh qo'l bilan ketganligi haqidagi hikoyalar kishilarning ortiqcha mol-u dunyo yig'ishga rag'batini qaytarishga, minnatsiz, tinchlik bilan osoyishta o'tadigan har bir kunning shukronasini qilib yashashga da'vat etadi.

(M. Hamidova)

«SADDI ISKANDARIY» DOSTONIDAN PARCHA

(nasriy bayoni)

Shoh o'z ahvoliga nazar tashlab bildiki, hayoti quyoshining botishi chog'i yaqinlashdi. Ketish chog'i kelganini, jahondangina emas, balki jondan ham kechish chog'i kelganini aniq bildi. Dunyo shohi shunday qattiq kunda ajal piyolasidan zahar ichishga majbur bo'ldi. O'limi oldidan onasi esiga tushib, yuragida shunday bir o't tutashdiki, bu alam zarbi bilan ko'zini ochib, hamrohlariga termuldi va ajal nafasidek sovuq bir oh tortdi. U onasiga noma yozish uchun kotib, qog'oz, qalam keltirishlarini iltijo qildi. U o'limi oldidan vasiyatnoma bitirmoqchi edi. Gavhardek qimmatli so'zlar bilan qalam tebratuvchi mohir kotib dard-alam sahifasini ochib, Iskandarning aytgan gaplarini batamom yozdi.

Bu sahifa dard maktubi bo'lib, unga yozilmish xatlar alam hangomalaridan iboratdir. Bu xat ibtido va intihosi yo'q bo'lgan tangriga shukur va minnatdorchilik bilan boshlandi. Bu noma fayz ato qiluvchi, in'om-ehson beruvchi, balki xaloyiqni yo'qlikdan bor etgan halloqi olam hamdida edi. Odam badaniga jon gavharini beruvchi va yana oxirida o'z berganini qaytib oluvchi; dengiz ichiga g'arq bo'lib yo'qolganga ham rahbarlik qiluvchi; biyobonda o'lganga ham madadkor bo'luvchi; gadolikni shohlikdan aziz ko'ruvchi; jahon shohlarini bir pulchalik qadr etmovchi; kimning mijoz-u tabiatini darmand qilib yaratgan bo'lsa, uni cho'l-u biyobonlarda ham hor-zor aylovchi (bunday kishilar o'z qazosi yetib qolganini bilib, ko'zi ochilganda, unga na shohligi va na saltanati asqotadi); har bir qazo-yu qadarida ne-ne hikmatlar yashirganini hech bir aql va tafakkur egasi fahmlolmaydigan; yo'qdan bor qiluvchi, abadiy va o'zgarmas ulug'lik egasi Alloh taologa shukrlar-u hamd-sano, minnatdorchiliklar izhor etib bo'lgach, quyidagicha vasiyat boshladi:

«Bu xat mendan, joni azobda qolgan, ajal qo'lida pajmurda holiga kelgan Iskandardandir. Buzilgan tanamning joni, vujudim

bebaho la'lisining koni bo'lmish onamga so'zim shuki, men seni ko'pdan-ko'p ayriliqlarga tashlab yurdim, sendan yiroq ketib seni qiynadim. Boshimga behuda andisha va orzular tushib, olamni boshdan-oyoq fath etishni o'zimga niyat qilib oldim. Nimani o'ylagan va xayol qilgan bo'lsam, hammasi xom va hammasi havasga ichilgan may kabi befoyda ekan. Aslida esimni tanigan, aql miyamga harorat bergan kunidan boshlab senga o'g'illik qilsam, ya'ni senga xuddi quldek xizmat qilsam bo'lar ekan; aslida sening ostonang tuprog'iga aylansam-u uning otini men shohlik deb bilsam bo'lar ekan. Mening bu baxt-iqbolimga falak hasad bilan qaradi, ko'rol-maslik qildi. Endi o'lar chog'imda pushaymon bo'lib, o'zimni o'zim o'ldirganim bilan nima foyda? G'am bilan ezilgan bolangdan rozi bo'lmasang, bu darmonda — bechoraning holiga voy, yuz qatla voy! Men sening amr-farmoningga bo'ysunmagan bo'lsam ham, lekin sen mening bu iltimosimni qabul et!

Shu maktub senga borib yetishi bilan mening qalamim nimalarni tasvirlaganini o'qib, tushunarsan. Ishonamanki, buni o'qigach, ko'ngling chil-chil bo'lib, hayotingda bir qiyomat-qoyim qo'porilgandek bo'ladi. Lekin sen jahon kishilarining eng donosi va el-ulus vasiyatlarini bajo keltiruvchi bo'lganing tufayli, qazo peshonamga nimani yozgan bo'lsa, sen ham menga o'xshab, shu taqdirga rozi bo'! Mendan umidingni uzish chorasini ko'rgil, umidingni uzgach esa, dilingni tangri irodasiga bog'la! Yuzingni urib ko'kartirma, ko'kargan yuzingni sochingdek oqartirma! Yig'i-zoring bilan motam mojarosini boshlab, olamni g'am tunidek qaro qilma! Quyosh singari ichingni o'rtantirib, tong singari yoqangni chok etma! Sarg'aygan yuzingga quyoshdan taralgan shu'lalar kabi oq sochingni yoyma! Boshqa onalar kabi o'g'ling motamida yuzlaringni yulma! Agar sabr etishga toqating bo'lmasa, bunday ishga quvvating vafodorlik qilmasa, himmat bilan katta ma'raka tuzib, unda turli-tuman noz-ne'mat va ovqatlarni muhayyo qilib, hamma yoqqa jar soldirib, katta-kichik odamlarning barchasiga xabar yetkazdirib, mamlakat kishilarini xonadoning ayvoniga yig'ib, u mehmonlarni dasturxoningga taklif et. Ularning hammasi davrada hozir bo'lgach, oldilariga osh tortishni buyur. Xalq oldiga ovqatlar tortilgach, ular endi yeyishga qo'l uzatay deb turgan paytlarida, bir jarchi jar solib, bu odamlarga aytsinki: «Bu oshlardan shunday odamlar esinki, bu ko'hna dunyoning eski binosida uning tuproqqa ko'milgan kishisi bo'lmasin!» Bu gaplarni aytgach, dasturxoningga qarab ko'r-chi, bironta odam non-oshingga qo'l uzatarmikin? Agar

shu vaqtda biron kimsa shu ovqatlarindan tanovul aylasa, unda sen ham mening motamim bilan aziyat chekaver. Agar bordi-yu hech kim hech narsaga qo'l urmay, ovqat yeyishdan bosh tortsa, ma'lum bo'ladiki, hech kimning o'lmagan va tuproqqa ko'milmagan kishisi yo'q. Bu dunyodagi hayot o'zi shunaqa ekanligini bilgach, bu ishdan o'zingga xulosa chiqazib ol-da, mening g'amimda alam tortishni, oh tortishni bas qil, dunyo kishilari bilan hamdard bo'lib, o'zingni ovuntir. Sen qanchalik tabarruk va baxtiyor kishilarning sarvari bo'lganingda ham baribir ularday sen ham tangrining bandasisan. Banda degan doim itoatkor bo'lishi, tangridan boshiga nimaiki kelsa, tan berishi lozim. Tangrining buyrug'i nima bo'lsa, sen ham shunga rozi-yu, boshingga qazo-qadar ne kunni solsa, unga xursand bo'l. Men xoh yaxshi, xoh yomon edim, umrim omonlik bermay, bu dunyodan ko'zimni yumdim. Agar qo'limda maqsadim naqdinasi bo'lmasa ham, baribir pushaymon bo'lishimning foydasi yo'q. Agar sen bir necha kun umr ko'rish imkoniyatiga ega bo'lsang, tangri buyurganlarini ado etishdan g'aflatda qolma. Lekin goho baxtiyorlik soatlarini ham haqiqiy maqsad yo'lida toat-ibodat bilan o'tkazishni unutma. O'shanda paytlarda bu o'lgan g'aribingni yod aylagil, duo birla ruhimni shod aylagil».

Iskandar onasiga aytmoqchi bo'lgan vasiyatlarini yozib tamomlab, xatning oxirini «vassalom» so'zi bilan tugatdi. So'ngra qog'ozni taxlab, maktubni elchiga topshirgach, yana ko'nglida qolgan muddolarini ham bayon ayladi:

«Hech qayerda to'xtamay, kechasi-kunduzi demay yurib, onamga shu maktubni eltib bering. Ikkinchidan, hozir mening oftobim so'nib, quyoshim yuziga qora bulut yopilgach, boshim ustida ko'p yig'i-sig'i, dod-voy qilib, jahonni motamzadalik bilan xarob aylamang. Mening tanimni tobut ichiga solib, kechakunduz demay jahd-u jadal bilan yurib, Iskandariya shahriga olib boring. Tiriklikda istiqomatgohim bo'lmish u joy o'lganimdan so'ng mozoringa aylansin. Lekin meni tobutga yotqizgan paytingizda, yoqut teshigidan ipni chiqazib qo'yilgani kabi albatta bir qo'limni tobutdan chiqazib qo'ying. Toki xaloyiq bu qo'lga hayrat ko'zi bilan emas, balki ibrat ko'zi bilan boqib: «Bu panjalar saf tortib, yer yuzini o'z qo'lga olgan edi; butun dunyodagi mamlakatlarning hammasini, quruqlikda va suvda bo'lgan barcha la'l-u gavharlarni shu kaftiga kiritib olgan edi. Endi ajal qo'li bu dunyodagi ko'chish nog'orasini qoqib, bo'yniga abadiylik tomon jo'nash

boshvog'ini solgach, mana endi bu qo'llar dunyodan shol kishining qo'liday quruq, chinorning yaproqsiz butog'iday bo'm-bo'sh ketayotir», — desinlar. Bu hol odamlar uchun bir ibrat maktabi bo'lib, dunyoni egallash mashg'ulotidan qo'llarini tortsinlar».

JASUR QIZ

*(Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon»
romanidan parcha)*

Vaqt juda qiyinlik bilan o'tar, tashqarida «tiq» etgan tovush uni bir alanglatar edi. Bir xo'roz qichqirig'i o'tganiga talay vaqt bo'lsa ham, hamon Ra'no daraksiz. Yuragi siqilgan Anvar goh o'tirib, goh yonboshlar, sovuqda muzlab ketgan mahsilik oyog'ini turli vaziyatga solib ko'rar edi. Shu azob ichida yana talay vaqt kechdi. Ma'shuqa mahbasiga tushgan Anvar o'ltirib chidolmadi. Kafshini kiyib, o'rnidan turdi, muzlagan oyog'ini isitish va og'riqqa kirgan a'zosini harakatlantirish uchun uy bo'yicha kezina boshladi. Necha vaqt sahn aylanib yana o'ltirdi. Oy ham bota boshlagan, chunki chetdagi daricha tirqishi orqali tushib turgan kuchsiz oydin izi ham yo'qolib, uyni qorong'ilik bosgan, tevarakda chalingan dovullarning «gum-gum» ohangi ichida xo'rozlar ikkinchi marta qichqirib yuborgan edilar. Ko'kda turkum-turkum yulduzlar sayr etar edilar. Tom boshidan botishga yaqinlashgan oy nuri arangarang ko'zga chalinar edi. Anvar toza havo iskab, uzun nafas oldi.

— Zerikmadingizmi?

Qulog'i ostida aytilgan bu so'z Anvarni cho'chitdi va o'z yonida qo'lida bir narsa ko'tarib turgan Ra'noni ko'rdi.

— Ularni uxlatmay chiqolmadim... Uyga kiraylik, Anvar aka.

Yuragi orziqqan Anvar Ra'noning orqasidan mashqxonaga kirdi. Ikkisi ko'rpacha ustiga yonma-yon o'ltirishdilar.

— Kitob ichidagi xatni payqamaysizmi, deb qo'rqqan edim, — dedi yarim tovush bilan Ra'no. — Payqamasangiz...

— O'zing hamma gapga tushuna turib, yana bunchalik achchiq yozganing nimadir, Ra'no?

— Chunki shunchalik achchiq yozmasam, — dedi Ra'no tovushida titroq ohang bilan, — siz kelmas edingiz... Siz... Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko'rasiz-a?

Anvar bu munosabatsiz savoldan bir oz hayron bo'lib turdi.

— Tushunmadim... Nima demakchisan?

— Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko'rasizmi, deyaрман?

— Yaqinda mirzolikni tashlamoqchiman, Ra'no.

— Mirzolikni tashlagandan so'ng nima ish qilasisz?

— Qo'qondan ketaman, sayohat qilaman.

— Meni... meni ham o'zingiz bilan olib ketmaysizmi?

Anvar yana tushunmadi. Ra'noning yuziga ancha qarab turdi:

— Seni... senga mumkinmi, Ra'no?!

— Mumkin! — deb qaltiradi Ra'no, — Mirzoboshiliqni hozirdan e'tiboran tashlasangiz mumkin...

Bu so'z Anvarni ham qaltiratib yubordi.

— Nima deyapsan, Ra'no!

Ra'no bir necha vaqt javob berolmay turdi. O'zini to'xtatib olish, hayajonini tindirish og'ir edi.

— Haligi, haligi so'zingiz chin bo'lsa, men ham siz bilan ketishni xohlayman... Basharti sizga og'ir oshmasam...

Anvar jim bo'lib qoldi, tushiga ham kirmagan bu taklifga nima deyishini bilmay entikdi...

— Basharti sizga og'ir oshmasam! — dedi takror Ra'no.

«Jasur qiz!» deb o'yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko'tarilish edi. Anvar istiqbolda qanchalik mushkulot va xatar ko'rmasin, bu jasoratni xush qabul qilishga majbur, chunki muhabbatdan ham ilgari yigitlik taqozosi shu edi.

U o'z yaqinida turgan qora tugunni ushlab qaradi.

— Bu nima, Ra'no!

— Bu... bu sizning eski kiyimlaringiz.

— Nima uchun bu?

— Basharti siz xohlasangiz...

Anvar paranjimi, deb chamalagan edi. Mantiqsiz bu javob uni shoshirdi.

— Xo'p, sening rizoliging yo'lida... — dedi Anvar yarim to'vushda. — Mening eski kiyimlarim senga nima darkor?

Ra'no javob berish o'rniga uzun so'lish olib yonidagi tugunini yecha boshladi.

— Paranji olmadingmi, axir?

— Hozir... — dedi Ra'no va qorong'ida bir narsalar qila berdi.

Paranji ham bordir, deb o'ylagan Anvar uni o'z holiga qo'yib turdi. Biror daqiqadan keyin Ra'no yerdan bir narsani tutib uzatdi, paranji kabi uzaygan narsa ichidan «taq» etgan bir narsa yerga tushdi.

— Topib oling shuni.

—Anvar yerni timirskiladi.

— Nima edi?

— Ayamga bergan omonatingiz.

Anvar tushgan narsa oltinlar ekanini payqadi, uzoqni o‘ylagan Ra’noga qarshi yuragida yana haroratliroq muhabbat sezdi.

—Topdingizmi?

— Topdim.

— Turing endi!

Anvar Ra’no bilan boshlashib hujradan chiqdi va o‘z yonida parangi yopingan qizni emas, telpak va to‘n kiygan yosh o‘spirin bir yigitni ko‘rdi...

— Bu nimasi, Ra’no?

Ra’no javob berish o‘rniga yo‘lakka qarab yura berdi. Darvozani ochib ko‘chaga chiqqandan so‘ng, Anvar Ra’noning oldiga tushib yo‘l boshladi va o‘zida yengillik his etdi. Chunki Ra’noning yigit suratiga kirishi andozasi ma‘qul; bemahalda paranjilik xotinni boshlab yurish mirshab va qorovullarda har turli shubha tug‘dirgani Anvarning o‘zi uchun ham o‘ng‘aysiz bo‘lar edi. Go‘yo bir o‘rtog‘i bilan ketib borgandek parvosiz ko‘ringan Anvar burilishga yetganda o‘zidan o‘n qadam orqadagi hamrohini kutib turdi. Oy Anvar to‘xtagan muyulishga ko‘lanka kabi zaif nur sochar edi. Ra’no Anvar yoniga yetib, «qayoqqa yuramiz», degan kabi bir yo‘lga va bir hamrohiga qaradi. Soch o‘rimlarini telpak ostiga bosib, to‘ni to‘pig‘i ustiga tushayozgan «yosh yigit» Anvarning ko‘ziga yana ham do‘ndiqroq ko‘rindi. Anvar Ra’noning to‘nini bir oz ko‘tartiribroq ushlatdi, onda-sonda telpagidan chiqib qolgan soch tolalarini yashirdi va «o‘ngga» degan ishora qildi. Ra’no oldinda, undan ikki-uch qadam orqada Anvar yo‘lga tushdilar. Yengil bedona mahsisi bilan qala kafshi kichkina oyog‘iga juda ham kelishgan Ra’no, go‘yo uchgandek tez yurib borar, orqada kelgan Anvar g‘oyai omolg‘a oshiqqandek undan qolishmaslikka tirishar edi. Uzoq yurdilar. Ellik qadam chamasi narida gulxan va gulxan tevaragida uch-to‘rt nafar kishilar ko‘rinib, Ra’no to‘xtaldi.

— To‘xtama, Ra’no, — dedi orqadan Anvar. — Sen pisand qilmagandek, parvosiz gulxan yonidan o‘ta ber, men ular bilan so‘zlashib qolsam, nariroqda kutib tur.

— Mirshablar bemahalda qo‘ymas emish-ku.

— Men bilan seni qo‘yar... qo‘rqmay boraver!

Ra’no ikkilangansimon yo‘lga tushdi, gulxangacha o‘n qadam qolganda mirshablardan biri hayqirdi:

— To'xta!!!

Ra'no Anvarga qarab, taraddudlandi, Anvar yura berishga ishorat qilib, tezlik bilan gulxan yoniga yetdi. Anvarni tanigan mirshab va qorovullar ta'ziman o'rinlaridan qo'zg'aldilar.

— Qo'zg'almanglar! — dedi Anvar gulxanda isinib. — Dahboshi ham shu yerda ekanlar... Anvar «dahboshi» deb atagan yumyumaloq kishi Qorunboy ismlik bo'lib, mirshablarning qiziqrog'i, shuning uchun undan «dahboshi» deb istehzo qilar edilar.

— Yoningizda besoqol bilan bemahalda nima qilib yuribsiz, taqsir? Odamzodga ishonib bo'lmas ekan-da...

Anvar, «dahboshi»ning ko'zi Ra'noga tushib qolganini angladi. Gulxandan o'ttiz qadamcha nariga borib to'xtagan «besoqol»ga ko'z qirini tashladi.

— Ziyofatda edik, dahboshi.

— Ha-a-a-a, men aytdim... Uy bu yoqda qolib, endi qayoqqa ketyapsiz, taqsir?

Anvar qo'lini yaqindan isitmoqchi bo'lib gulxan tarafga bir qadam bosdi.

— Eshitmadingizmi, hali?... Men Rais ko'chadan... yangi hovli oldim.

— Muborak, muborak!

Anvar qullug' aytib, ular bilan xayrlashdi. Mirshablar uning hurmati uchun qo'zg'alib qoldilar.

Gulxanchilardan ellik qadamlar uzoqlashgach, Ra'no Anvarning yetib kelishi uchun yo'l ustida to'xtadi.

— Nima deyapti u go'rso'xta?

Anvar hirlinglab kuldi va Ra'noning orqasiga qoqdi:

— Yur, yur yigitcha! Go'rso'xta to'g'ri aytyapti!

— Yetayozdikmi, qayerga boramiz?

— Yaqin qoldi, kechagi xotinning uyiga...

Ra'no oldinga tushib ketdi, uzoqqina so'zsiz borgandan keyin orqasiga qayrilib so'radi:

— O'zlari yaxshi odamlarmi?

— Yaxshi, yaxshi!— dedi Anvar va o'n qadam chamasi bordi.

— Sen uy egasidan qochib o'tirma, o'zi meni og'am... Tuzukmi, Ra'no?

— Xo'p.

Yana biroz yurib, torroq bir ko'chaga burildilar. Sultonalining darvozasiga yetguncha ikkisi ham og'iz ochib gapirishmadilar.

OYBEK

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida hunarmand-bo'zchi oilasida tug'ildi. Eski usuldagi maktabda savodini chiqardi. 1918-yilda «Namuna» maktabida, 1921-yildan Navoiy nomidagi Toshkent ta'lim-tarbiya texnikumida o'qiydi. 1925-yilda texnikumni tugatgach, o'qituvchilik qiladi. 1927–1930-yillarda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) Xalq xo'jaligi institutida va O'rta Osiyo davlat universitetida tahsil ko'radi. 1930–35-yillarda oliy o'quv yurtlarida siyosiy iqtisod fanidan dars beradi.

Yillar o'tgan sayin siyosiy iqtisod va badiiy ijodning har biri butun vaqtni bag'ishlashni talab eta boshladi. Ammo uning qalbida ijod mehri kuchliroq edi. Shuning uchun ham Oybek 1935-yildan Til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga o'tdi. Bu vaqtda uning «Tuyg'ular» (1926), «Ko'ngil naylari» (1929), «Mash'ala» (1932), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933) she'riy to'plamlari nashr etilgan va Oybek shoir sifatida o'zbek adabiyotidan mustahkam o'rin olgan edi.

Oybek 1938-yilda 1916-yil qo'zg'oloniga bag'ishlangan «Qutlug' qon» romanini, 1942-yilda «Navoiy» romanini yozib tugatadi. Oybekning temuriylar davri madaniyati tarixi, xususan, Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari uning 1943-yilda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'lib saylanishiga to'la huquq berdi. Oybek o'z siyosida olim va adibni mujassamlashtirgani sababli 1945-yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rayosatining raisi (1949-yilgacha) va 1943-yildan e'tiboran respublika Fanlar akademiyasi gumanitar bo'limining boshlig'i (1951-yilgacha) lavozimlarida faol ijtimoiy, ijodiy va ilmiy faoliyat bilan shug'ullandi.

Oybek urushdan keyingi yillarda «Oltin vodiyan shabadalar», «Quyosh qoraymas», «Ulug' yo'l» romanlari, talaygina she'r va dostonlari bilan o'zbek adabiyotini boyitdi.

Oybekning ko'plab asarlari qardosh xalqlar tillariga hamda chet tillarga tarjima qilingan. Uning o'zi esa A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin», M.Y. Lermontovning «Maskarad» asarlarini, arman eposi «Sosunli David»ni, V.G. Belinskiyning «Poeziyaning jins va turlarga bo'linishi» asarini, Rim mumtoz adabiyoti namunalarini va boshqa asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. U o'z asarlari orqali

kitobxonlar ommasiga tanildi. Uning «Navoiy» romani Davlat mukofotiga, «Bolalik» qissasi Hamza nomli respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Atoqli adib 1968-yil 1-iyulda vafot etdi. Uning qabri Toshkentning Farobiy qabristonidadir.

HAQIMNI BERING

(«Qutlug' qon» romanidan parcha)

Atrofni qorong'ilik bosdi. Yo'lchi jimjit ko'chada tanho aylanib yurib, boynikiga qaytdi. Odatda Mirzakarimboy o'tiradigan mehmonxonaning derazasidan chiroq yarqirar edi. Yo'lchi uy eshigini ochishi bilan ko'zlari boyning o'qraygan ko'zlari bilan uchrashdi. Lekin u loqaydlik bilan tiz cho'kdi. Ular bir-ikki daqiqa sukut qilib, bir-birlarining g'azabli ko'zlaridan ma'no qidirishdi. Mirzakarimboy yonboshdagi katta par yostiqni bir tomonga itarib tasbehni sandalga qo'ydi.

— Qayerdasan, haromi? Bu yoqda shuncha ishni buvingga tashladingmi? Senday yigitni asragandan, ko'ppak asragan yaxshi!..

— Baqirmang, — dedi xo'mrayib Yo'lchi, — shu vaqtga davr eshitdim, chidadim, endi-chi? Yo'q!

Mirzakarimboyning ko'zlarida zahar yonib ketdi:

— Sanga bu tilni qaysi qiztaloq berdi!

— Zulmingiz berdi!

— Zulm! — boy yelkasini qisdi va quturib baqirdi. — San nonko'rsan, man sani tuqqanim, jigarim, dedim. Ovqat berdim, kiyim berdim, bu — zulm emish! Juvonmarg bo'l, nodon!

— Bekorgami? — Yo'lchi Mirzakarimboyga tomon gavdasini cho'zib qichqirdi. — Sizda ikki yarim yil ishlab yelkam yag'ir bo'ldi. Soqolingizda bitta qora tuk yo'q-ku, yolg'on gapirasiz, uyat! Kiyim deysiz, qanaqa kiyim? Etik, chopon va boshqalarni qo'yaveray, bironta yangi do'ppi kiyganim yo'q bu ostonada! Mana ust-boshim... Ovqat deysiz, qanaqa ovqat u? Moyli qozonni o'zingiz qaynatgansiz, bizlarniki ma'lum, ovqat ham emas, yuvindi ham emas. So'zni cho'zmayman: men sizdan ketdim. Haqimni bersangiz bas!

Mirzakarimboy o'siq qoshlarini chimirib, sukut qildi. Yo'lchidagi bu keskin o'zgarish uning avvalgi fikrini ta'kidladi: u Yo'l-

chining qishloqdan qaytib, birdan g'oyib bo'lishi bilan o'zining Gulnorga uylanishi o'rtasida bir bog'lanish borligiga qanoat hosil etgan edi. Chunki Yo'lchining Gulnorni sevishini bilar edi. Lekin u bunga ahamiyat bermay «arazi ko'pga cho'zilmaz, yana qaytib xizmatimni bajarar» deb o'ylagan edi. Ammo hozir ish o'ylagancha chiqmadi. Yo'lchining qarori qat'iy ko'rindi. Uning mehnatidan rozi bo'lgani uchun, bunday «azamat qo'lni» qo'ldan chiqarishga achinsa-da, yangi va'dalar, avrash-aldashlar bilan uni olib qolish mumkin emasligini sezdi, itni haydagani kabi, qo'lini silkib baqirdi: «Ket»!

— Man o'zim ketganman, haqimni bering! — dedi so'ng sovuqqonlik bilan Yo'lchi.

— Qanaqa haq? — ko'zlarini olaytirdi boy.

— Rosa ikki yarim yil ishladim. Shu muddatda, hammasi bo'lib qirq so'mga yaqin pul oldim. Haqim shumi? Va'dangiz qalay edi?

— Va'da... Him. Nodon. Xo'jayin degan xizmatkorni qiziqtirish uchun va'da qilaveradi-da, har qanday va'daga ishonaveradimi odam?

— Xo'p, manga ortiqcha to'lamang, taomilda qancha bo'lsa, shuncha to'lang.

— Qirq so'm pul emasmi? San nonko'rga bir tiyin bermayman. Da'vo qil, kuching yetsa agar, — dedi-da, boy yostiqqqa yastanib oldi.

Mirzakarimboyning bunday muomalasi Yo'lchiga tahqirli bo'lsa ham, ammo kutilmagan bir hodisa emas edi. Shuning uchun u tomirlarini to'ldirgan g'azabni yenga oldi. Faqat o'zining soddaligiga, aldanganligiga chuqur afsuslandi. Kambag'al Yo'lchiga pul g'oya emas, ayniqsa, Gulnor kabi hayot quyoshidan ayrilib, eng go'zal, eng porloq umidlari so'ngach, pulning ma'nosi qoladimi? U nimaga yaraydi? Yo'lchida, o'z kuchiga ishongan, qadr-qimmatini baland tutgan kambag'al yigitda, odamlikning g'ururi kuchli edi. U, hozir uning nazarida olamda eng past va razil ko'ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xirillashishni, yoqa bo'g'ishni o'ziga or bildi. Sachrab o'rnidan turib, boyning oldiga bordi. Masxara va kinoyaning zahrini ko'zlarida yondirib qichqirdi:

— Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, qari tovuq!

Boy vaziyatini o'zgartirmadi. Lekin yuzi allaqanday yomon bu-rushib qizarib ketdi. Yo'lchi eshikni qattiq yopib, tashqariga chiqdi.

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozig'a o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqaqlaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi — burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib, teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

— Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslash-bahslash tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi.

— Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi. Go'yo u ko'chaga chiqsa bas — ho'kiz topiladi. Bu «xudo yarlaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir

toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Qu-ruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi.

— Ha, sigir yo'qoldimi?

— Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

— Ho'kizmi?... Ho'kiz ekan-da! Him... Ola ho'kiz? Tavba!...

— Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

— Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

— Ola ho'kiz...

— Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

— Qo'sh mahali...

— Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaveradimi?

— Bisotimda hech narsa yo'q...

— O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

— Qidirtirsakmikan-a? — dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, — Suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizing» deganday bo'lib ketdi.

Kam bo'lmang, — dedi pulni uzatib, — yana xizmatizingiz-daman.

Yana hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo'ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip' eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

— Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuza tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shshib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oldimi! «O'ynashmagin arbob bilan — seni urar har bob bilan». Yaxshilab tushuntirilgan pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, «beto'xtov hokimga xabar beraman» demasdan, «aminga bor», deb qo'ya qoldi. Amin «ellikboshiga borilsin», — dedi.

— Gumoningizni ayting bo'lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo'lib, — kim olganini men bilmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib, terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

— Endi bizga juda qiyin bo'ladi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... — dedi chol yerga qarab.

— Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

O'RIK GULLAGANDA

Hamid Olimjon

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman:
Har bahorga chiqqanda yakkash
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz,
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga sig'ganicha ol,
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda,
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda»...

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

PIRIMQUL QODIROV

(1928-yilda tug'ilgan)

Pirimqul Qodirov 1928-yilning 25-oktabrida Turkiston tizma tog'lari etagida joylashgan bahavo va xushmanzara Kengko'l qishlog'idagi o'ziga to'q cho'ponlardan birining xonadonida tug'ildi. Qishloq atrofidagi tog'-u tosh, daraxt-u jondorlar Turkiston tog'lari singari qadimiy, mangulikka daxldorday edi. Soy ming yillardan beri oqar, buloq sanoqsiz davrdan buyon qaynab yotar, shoxlari tarvaqaylagan archalarning yoshlari ham asrlar bilan o'lchanardi. Qodir cho'pon oilasida uchinchi o'g'il bo'lib dunyoga

kelgan Pirimqul juda serzavq, tiyrak va qiziquvchan bo'lib o'sdi. Tabiatning beqiyos ulug'vorligi xayolchan bolaning o'ylarini bezovta qilari, uni atrofiga hayrat bilan qarashga undardi.

1930-yilda uning otasi quloq sifatida besh yilga surgun qilindi va oilasidagilarning bor mulki: ustlaridagi kiyim-u ko'rpa-to'shagigacha tortib olindi. Bo'lajak yozuvchi zo'raonlikning «ta'mini juda erta totib ko'rdi. Maktabda yaxshi o'qidi, ammo quloqning bolasi bo'lgani uchun mukofotlardan mahrum edi. Bu hol uni tezroq ulg'aytirdi. Tirikchilikning tuganmas va yoqimsiz tashvishlari Pirumqul zimmasiga juda erta tushdi. Urush yillarida jamoa xo'jaligida ishladi. Yosh bo'lsa ham Pirimqul savodli, boshqalarga nisbatan hisobdonroq edi. Keyinroq yo'l qurilishida mehnat qildi. Bir muddat Bekobodagi metallurgiya zavodida ham ishlab ko'rdi. 1951-yilda Toshkent dorilfununining sharqshunoslik fakultetini bitirdi. Moskvada aspiranturani o'tadi.

Bilimga tashna P. Qodirov 1954-yilda Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

Pirimqul Qodirovning dastlabki kitobi — «Studentlar» chop etilganida muallifning o'zi hali talaba edi. Keyin u «Uch ildiz», «Qora ko'zlar», «Olmos kamar», «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» singari romanlar, «Qadrim», «Meros», «Erk», «Akramning sarguzashtlari», «Yayra institutga kirmoqchi», «Najot» singari qissalar va ko'plab dolzarb mavzularda pishiqlik hikoyalar yozib, elning taniqli yozuvchisiga aylandi.

P. Qodirovning ilmiy asarlari ham o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi.

Abadiy tog'lar bag'ridan maskan topgan qishloq bag'rida tug'ilib o'sgan adib millatning abadiyligini aks ettiruvchi mavzularga ko'p murojaat qiladi.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olinganidan to O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishguniga qadar o'tgan davr mobaynida xalqimiz o'z tarixidan ataylab ajratib kelindi. Milliy tariximizning yorqin sahifalarini bezagan shxslar qonxo'r, bosqinchi, yovuz deb ataldi. Shu tariqa xalqqa sening o'tmishing yo'q edi, kelajakdagi ozod va mustaqil hayoting ham amalga oshmaydigan orzu, degan xulosa singdirilishi kerak edi.

P. Qodirov buni tushunib yetgan va o'z xalqining shonli farzandlari haqida badiiy asarlar yaratishga o'zida kuch topa olgan dastlabki o'zbek adiblaridan biridir. U qariyb yigirma yil mobay-

nida boburiylar saltanati tarixini badiiy aks ettirishga harakat qildi. Shu niyatning mahsuli sifatida uning mashhur romanlari: «Yulduzli tunlar» va «Avlodlar dovoni» paydo bo'ldi.

«Yulduzli tunlar» romani o'z yurtidan, o'z taxtidan ayrilgan shaxs — shoir va shoh Bobur Mirzoning murakkab taqdirini aks ettirishga bag'ishlangan bo'lsa, «Avlodlar dovoni»da Hindistonda buyuk Bobur tomonidan asos solingan boburiylar saltanatining Humoyun, Akbarshoh va boshqa namoyandalari qismati tasvirlanadi.

Pirimqul Qodirovning tarixiy asarlari o'quvchilarni ajdodlarimizning buyuk ishlari bilan tanishtiradi, ularning maqsadlarini, armonlarini, intilishlarini tushunishga o'rgatadi, buyuk vatandoshlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. Faxrlanadigan millatdoshlari bor millat, faxrlana oladigan farzandlari bor millat o'z istiqbolining egasi bo'ladi.

YULDUZLI TUNLAR

(*parcha*)

Yigirma uch yoshli Humoyunning yigit yuragi kasallikni axiri yengdi. Oradan bir hafta o'tgach, u kasal ko'rishga kelganlarni o'rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so'ng otasini borib ko'rish uchun o'zi uydan chiqdi.

Bobur kutubxonaning xonai xosida qadimiy bir qo'lyozmani o'qib o'tirgan edi. Humoyun uning qarshisida tiz cho'kib:

— Men sizning iltijongiz bilan shifo topmishmen! — dedi.

— O'zimga kelganimdan beri xudodan tilaymenki, siz men uchun qilgan tasadduqni dargohida qabul etmasin! Bu ulug' davlatni barpo etdingiz, hammamizning suyangan tog'imiz o'zingizsiz! Parvardigor bizga rahm qilsin!

— Mana, shukur, yuribmen-ku, o'g'lim. Hozirgi isitma-yu uyqusizlik menda bulturdan beri bor.

— Ruhoniylar: «Hazratim o'g'liga kelgan naqd ajalni o'zlariga oldilar», — deb ko'nglimga g'ulg'ula solmoqdalar!

— Sen nechun ularga ishonursen? Boshimizga og'ir kun tushganda shayxulislom menga o'z hukmini o'tkazmoqchi bo'ldi. Mana, xayriyat, tuzalib ketding. Agar o'shanda uning gapiga kirib, ko'hinur olmosini tasadduq qilsam, ruhoniylar g'olib chiqmasdimi? Humoyunni biz qutqarib qoldik, podshohdan ham biz zo'rmiz! — deb tantana qilmasmidi? Seni bir umrga qarzdor qilib qo'yasmidi?

— Ilohim, siz haqingizdagi karomatlari ham yolg'on chiqsin!

— Harqalay, sen bir narsani unutma. Ruhoniylar podshohning tepasiga chiqib olsa, tamom! Samarqanddagi Abdullatifning inqirozi-yu, otaga qarshi qilich ko'tarishi shundan boshlangan.

— Toki tirikmen, bu o'gitingizni yodimdan chiqarmasmen!... Endi... Hazratim, Saibhal chegarasida yana tajovuzlar bo'lmoqda emish. Men ertaga jo'nab ketay, ijizat bering.

Bobur hozir aytmoqchi bo'lgan so'ziga alohida e'tibor talab qilib, bir lahza jim turdi.

— Humoyun, Bayda menga zahar bergandan beri hech o'zinga kelolmaymen. Qolgan kuchim ijodga yetsa ham xo'p gap. Endi davlat yukini sen yelkanga olmog'ing kerak. Mayli, Saibhalga borib, chegarani tinchitgin-u, o'rningga Hindubekni hokim qilib, darhol Agraga qaytgin.

* * *

Yomg'ir fasli o'tib, osmon yana bulutlardan tozalandi, tunlar salqin bo'lib qoldi. Bobur uyqusiz tunlarda bog'ga chiqar va yulduzlarni tomosha qilgisi kelib, osmonga qarardi. Lekin tanida isitmaning balandligidan osmondagi yulduzlar joyidan ko'chib, girdobga tushib aylanib ketayotganday ko'rinar, ko'ngli behuzur bo'lib, osmondan darhol ko'zini olardi.

Kunduz saroyda davlat ishlarini qilgan paytlarida goh shayxulislomni, goh nufuzli a'yonlarni uchratar, ular Boburga avvalgidan ham pastroq egilib ta'zim qilishar, lekin o'lishi muqarrar bo'lgan bemorga qaraganday musibatli ko'zlar bilan qarashar, muomalalaridagi alohida muloyimlik ham shundan dalolat berar edi. Ularning e'tiqodiga binoan, Bobur o'z hayotini o'g'liga qurbon qilgan, shuning uchun Humoyun tuzalib ketgan, endi ko'zga ko'rinmas ajal qilichi Boburning boshi ustida osilib turar edi.

Ochiq aytilmaydigan, haddan ortiq mayin gaplar, ta'zimtavozelar ostiga yashiriladigan bu mash'um ishonch Boburga juda og'ir ta'sir qilar, atrofida aylanib yurgan o'lim sharpasini uning o'zi ham sezganday bo'lar edi.

Mezon o'tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og'irlashdi. Biror joyida shish yoki yara yo'q, nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, uxlay olmaydi, rangi kun sayin so'lib boradi. Mavlono Yusufiy mamlakatning eng mashhur tabiblaridan uchto'rttasini chaqirtirib maslahatlashdi. Bemorning tomiridan qon olib ko'rishdi, qoni rangi sog'lom odamnikidek tiniq emas, allanechuk iriganga o'xshab qolgan edi.

Tabiblar o'zlari kengashib, «Malika Bayda bergan zaharning qonda asorati qolgan», degan xulosaga keldilar va qonni tozalaydigan dorilardan, anor suvidan ko'proq berishni buyurdilar.

Lekin bu narsalarning hech biri kor qilmadi. Bobur holsizlanib yotib qolgach, Humoyunga chopar yuborishdi.

Humoyun kelsa, otasi o'z xobgohida baland oq to'shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo'lib ketgan. Boburning bosh tomonida Xonzoda begim pat yelpig'ich bilan uning yuzini yelpiyapti. Oyoq tomonida Mohim begim g'am-g'ussaga botib, haykalday beharakat o'ltiribdi.

Humoyun tiz cho'kib, otasining to'shagini quchoqladi. Boburning ozg'in qo'lini o'pib ko'rishdi, so'rashdi, so'ng otasining bu ahvoliga o'zi sababchi bo'lganday yonib gapirdi:

— Nechun bizga bunchalik jon fido qildingiz, hazratim?

Bobur majolsiz tovush bilan:

— Sen buni o'zingdan ko'rma, — dedi. — Illat qonda emish. Bilmadim... Har qanday olov ham yonib-yonib axiyri bir kun...

— Bobur «o'chadi» demoqchi bo'ldi-yu, lekin ayollarni ayadi: — alangasi pasayadi. Men umr bo'yi ayovsiz yondim.

— Biz uchun ham kuyib-yongansiz! Endi bu qarzlarni uzishga mening butun umrim yetmagay!

— Qarzingni menga uzolmasang... farzandlaringga uzarsen...

Bobur to'xtab-to'xtab so'zlayotgan bo'lsa ham, ko'nglidagi gaplarni ravon aytayotgani Humoyunni umidlantirdi. U otasining so'zini bo'lmay, jim quloq sola boshladi.

— Temuriylarning ko'pchiligi... fidoyilikni unutib... yo'q bo'lib ketdi. O'g'il otani o'ldirdi. Og'a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo'ldi.. Undan ko'ra... yaxshilikning fidosi bo'lgan yaxshi emasmi?.. Mana, amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib, o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keldi... Sen ham endi inilaringu... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin.

Bobur to'shakning orqa tomonidagi harir oq pardaning ortiga boshini burib qaradi. Parda ortida odam borligini Humoyun endi payqadi.

— Tohirbek, juzdonni keltiring, — dedi Bobur.

Shu vaqtgacha qimir etmay o'tirgan Tohir endi tez o'rnidan turdi-yu, tokchadagi katta charm juzdonni ichida yangi muqovalangan qo'lyozmasi bilan ikki qo'llab ko'tarib keldi.

— Badaxshonda «Vaqoye»ni soʻragan eding, — dedi Bobur Humoyunga. — Mana, yozib tugatdim, ol.

Togʻlar orasida Boburning: «Bu kitob bitganda mening umrim ham tugagay!» — degani Humoyunning yodiga tushdi. U juzdon ichidagi kitobni olib peshonasiga surib oʻpar ekan, koʻzidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Yirik bir yosh tomchisi zarhal muqova ustiga tomib tushganini Bobur ham koʻrdi.

— Sendan iltimosim, — deb davom etdi Bobur. — Buni avlodlaring ham oʻqisin... xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz boʻlsa. koʻpaytiringlar. Bu kitobdan nusxalar koʻchirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuborgin... Men tugʻilgan yurt bilan aloqani uzmaglar, bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari boʻlsa...

(Pirimqul Qodirov)

ERKIN VOHIDOV

(1936-yilda tugʻilgan)

«Mana bir necha oʻn yildirki, biz dilbar bir sheʼriyatning muattar havosidan bahramand boʻlib kelayotirmiz. Bu — Erkin Vohidov sheʼriyatidir. Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamoyili, gʻoyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uygʻotuvchi tashbehlar, oʻtkir xulosalar — bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlaridir. Men Erkin Vohidovni sheʼriyatda oʻziga xos sehr sohibi deb bilaman.

...Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh boʻlganim uchun faxrlanaman».

Abdulla Oripov.

Erkin Vohidov — xalqimizning eng sevimli va ardoqli shoirlaridan. Uning «Yoshlik devoni», «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirgʻoq», «Yaxshidir achchiq haqiqat» kabi oʻnlab sheʼriy toʻplamlari, «Nido», «Ruhlar isyoni» dostonlari, S. Yeseninning «Fors taronalari», I. Gyotening «Faust» asarlari tarjimai Oʻzbekistonning madaniy-adabiy hayotida katta voqea boʻlgan. «Oltin devor» «Istambul fojiasi» dramalari Hamza nomidagi teatrdagi (hozirgi Oʻzbek Milliy teatri) sahnalashtirilgan.

Shoir tarjimai holida shularni yozadi: «Bunday qaraganda bitta shoir qilishi mumkin boʻlgan ishni qilib qoʻygandekman. Lekin hech qachon oʻz qilgan ishimdan koʻnglim toʻlgan emas. Hamisha yozganimdan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyiladi. Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qoʻshib olib borishdek sharaflı vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat sheʼring emas, oʻzing ham kerakligingni sezish — bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon oʻzimni olib qochgan emasman».

ABDULLA ORIPOV

(1941-yilda tugʻilgan)

«Qarshi shahridan uch-toʻrt chaqirim narida Qoʻngʻirtogʻ bor. Geologlarning aytishlaricha, u nihoyatda qari togʻ emish. Oʻsha togʻning etagida Nekoʻz degan qishloq bor. Manbalardan maʼlum boʻlishicha, shu nomda qadimiy oʻzbek urugʻi boʻlgan emish. Men oʻsha qishloqda tugʻildim. Pasportim boʻyicha 1941-yil 21-mart».

Oʻzbekiston xalq shoiri, Oʻzbekiston qahramoni Abdulla Oripov oʻz tarjimai holini shunday soʻzlar bilan boshlagan.

Boʻlajak shoir tugʻilgan qishloqda na radio boʻlgan, na televizor. Ammo uning uyida yaxshigina kutubxona boʻlgan. Va u shu kutubxona orqali Navoiyni ham, Pushkinni ham, oʻsha yillarda mashhur boʻlgan oʻzbek shoirlarini ham tanib, katta boʻlgan. Abdulla 1958-yili oʻrta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkentga oliy taʼlim olish uchun kelganida nafaqat oilaviy kutubxonada oʻqigan shoirlarning sheʼrlarini, balki oʻzining dastlabki mashqlarini ham yoddan bilgan. Tugʻma shoir qalbidan otilib chiqqan bu sheʼrlarni talabalar davrasida koʻp oʻqigan. Va Abdulla hali Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini bitirmay turib, umidbaxsh ishteʼdodli shoir sifatida eʼtibor qozongan.

Bugun Abdulla Oripovni nafaqat Oʻzbekistonda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham oʻzbek xalqining katta shoiri sifatida bilishadi va hurmat qilishadi. Ammo u bu darajaga osonlik bilan erishmadi. Shoir tarjimai holida oʻz hayotining Toshkent bilan bogʻliq davrini eslab: «Men yashamagan koʻcha, mahalla qolmadi. Xizmat yuzasidan koʻp idoralarga kirib chiqqanman», deb bejiz yozmagan.

Abdulla Oripovning «Mitti yulduz» deb atalgan birinchi sheʼriy toʻplami oʻzbek sheʼriyati osmonida yangi bir yulduzning tugʻilganidan darak berdi. Koʻp oʻtmay, bu yulduzning yangi-yangi sheʼriy kitoblari cniqib, isteʼdodi chaman boʻlib ochildi. Bugun Abdulla Oripov talaygina sheʼriy kitoblar, «Jannatga yoʻl», «Hakim va ajal», «Ranjkom» kabi dostonlar, shuningdek, Sohibqiron Amur Temur haqidagi pyesaning muallifidir. Ulugʻ italyan shoiri Dantening Abdulla Oripov tarjimasidagi «Ilohiy komediya» («Doʻzax») asari shoir ijodiy imkoniyatlarining boyligidan yana bir bor dalolat beradi.

OʻTKIR HOSHIMOV

(1941-yilda tugʻilgan)

Zamonaviy oʻzbek nasrining taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan isteʼdodli yozuvchi Oʻtkir Hoshimov 1941-yilda Toshkent shahrida ishchi oilasida tugʻildi. U oʻrta maktabni oltin medal bilan bitirgach, 1959–1964-yillarda Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika boʻlimida oʻqidi. Oliy maʼlumot olgach, Oʻ. Hoshimov avval «Toshkent haqiqati», «Sovet Oʻzbekistoni» («Oʻzbekiston ovozi») gazetalarida ishladi. 1966-yildan «Toshkent oqshomi» gazetasi tahririyatida boʻlim mudiri, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida bosh muharrir oʻrinbosari, «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir vazifalarida ishladi.

Oʻtkir Hoshimov oʻz ijodini sheʼr va ocherklar yozishdan boshladi. Uning dastlabki kitoblari hali talaba ekanidayoq bosilib chiqdi. Ocherklar toʻplamidan iborat birinchi kitobi 1962-yilda «Poʻlat chavandoz» nomi bilan nashr etildi. Soʻngra «Choʻl havosi» (1963), «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi», «Bahor qaytmaydi» (1970), «Qalbingga quloq sol» (1973), «Uzun kechalar» (1975), «Nimadir boʻldi» (1976), «Quyosh tarozisi» (1980), «Dunyoning ishlari» (1982) kabi hikoya va qissalar toʻplamlari hamda «Nur borki, soya bor» (1979), «Ikki eshik orasi» (1986), «Tushda kechgan umrlar» (1993) romanlari bosilib chiqdi. 1974-yilda uning «Birovning tashvishi» daramasi sahna-lashtirildi.

Bundan tashqari, Oʻtkir Hoshimov Oʻrta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan «Toʻylar muborak», «Sizdan ugina, bizdan bugina» kabi pyesalar muallifidir.

Oʻtkir Hoshimov E. Xemenguey, K. Simonov, A. Kuprin, O. Bergolts singari yozuvchilarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Oʻz navbatida, adibning bir qancha asarlari chet tildarga oʻgʻirilgan.

Oʻtkir Hoshimov 1982-yilda «Dunyoning ishlari» qissasi uchun Oybek nomidagi, 1986-yilda «Ikki eshik orasi» romani uchun Hamza nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor boʻlgan. Adibga 1991-yilda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan.

ILTIJO

(Oʻtkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidan parcha)

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tagʻin koʻklam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, koʻm-koʻk maysalarni koʻrib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni koʻzingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... oʻzingizning ustingizdan boychechak oʻsib chiqibdi... Yoʻq, yoʻq, oyijon... Yigʻlayotganim yoʻq. Bilaman, men yigʻlasam, siz bezovta boʻlasiz. hozir... hozir oʻtib ketadi. Mana, boʻldi...

Ertalab-chi, oyi, yomgʻir yogʻdi. qattiq yomgʻir yogʻdi. Siz bahor yomgʻirini yaxshi koʻrardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... Esingizdami, siz menga oftob toʻgʻrisida choʻpchak aytib bergan edingiz. Oʻsha oftob charaqlab yotibdi... Koʻryapsizmi...

Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast boʻlib uxlab qolardim. Oʻsha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qoʻysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yoʻq, yoʻq, yigʻlayotganim yoʻq. Hozir, hozir oʻtib ketadi.

Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, oʻshandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, oʻgʻlim», degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa boʻlman, men hazillashgan edim. Mana, oʻsha kitob. Yoʻq, uni men yozganim yoʻq. Uni siz yozgansiz. Men uni qogʻozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar oʻqishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq boʻlsayam, ularning hammasi Sizga oʻxshashini xohlayman...

MUHAMMAD YUSUF

Samimiy she'rlari, dilrabo qo'shiqlari bilan xalq ko'nglidan mangu joy olgan otashin shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tug'ildi.

1978-yilda Respublika Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagach, turli yillarda Kitobsevarlar Respublika uyushmasida, «Toshkent oqshomi», «O'zbekiston ovozi» gazetalarida, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida ishladi.

1995–1996-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida o'qidi. 1997-yildan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lib ishladi.

1985-yili nashr etilgan ilk to'plami «Tanish teraklar» unga katta shuhrat olib keldi. «Bulbulga bir gapim bor», «Uyqudagi qiz», «Ishq kemasi», «Erka kiyik», «Osmonimga olib ketaman» kabi to'plamlari she'rxonlar orasida yaxshi ma'lum.

Shoirning she'rlari bilan qo'shiq aytmagan taniqli o'zbek xonandisini topish qiyin. Uning qatag'on qurbonlari xotirasiga yozgan she'rlariga bastalangan qo'shiqlar xalqimizga ayniqsa manzur bo'lgan edi.

Muhammad Yusuf 1998-yilda O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'ldi.

Bemahal o'lim 2001-yilda chinakam xalq shoiri Muhammad Yusufni oramizdan olib ketdi, lekin uning qo'shiqlari har bir o'zbek xonadonida yangrashda davom etmoqda va shunday bo'lib qolaveradi.

SAMARQAND

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar:
Men dardimni kimga aytaman?..

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam,
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam...
Men dardimni kimga aytaman?

Sezmay qoldim. O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim, ne edi gunohim...
Men dardimni kimga aytaman?

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim...
Men dardimni kimga aytaman?

Tanim muzlab goh tosh qotaman,
Men shoh emas axir, otaman.
Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman?

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rmay kelmayman.
U menga qon yig'lar har safar:
Men dardimni kimga aytaman?!

(Muhammad Yusuf)

AYOLNI ARDOQLA

Ayolni ardoqla, ko'z'laringga surt,
Uning ul pokiza barmoqlarini,
Ayolni ardoqla, ko'z yoshdan arit
Xudo yorlaqagan yanoqlarini.

Ayolni ardoqla, ko'ngliga qara —
Ayama yer yuzin gavharlarini,
Hofizday tanti bo'l, xoliga baxsh et —
Dunyoning eng go'zal shaharlarini.

Ayolni ardoqla, ko'klarga ko'tar —
Samoning eng toza kengliklariga.
Ayol izzatini qilmasa agar,
Ishonma yolg'onchi tengliklariga.

Onalar poyiga poyonoz ayla,
Jahon saltanatin bayroqlarini.
Ayolni ardoqla, sajdagoh deb bil —
Payg'ambar sig'ingan oyoqlarini.

Onam de, singlim de, yorim de, yolbor,
Ezgu oyatlarni pichirlab labing.
Shunda ko'kragingdan tarqalib g'ubor —
Mehr-u muhabbatdan pok bo'lar qalbing.

(Hamroqul Asqar)

Qo‘shimcha foydalanish uchun grammatik jadvallar

1-jadval

Fe'l shakllari (Глагольные формы)

Shakl	Ma'nosi	Misollar
-yotgan edi -ayotgan edi	Запечатливается совершаемое действие	Do'stimning boshi qattiq og'riy otgan edi . — У моего друга сильно болела голова.
-adigan bo'ldi, -ydigan bo'ldi	Принятие решения о выполнении действия	Shuning uchun bu gal Shokir qatna- shadigan bo'ldi . — Поэтому решено, что на этот раз будет участвовать Шакир.
-ganday bo'ldi	Неточность восприятия	...Yo'lchi akamni ko' rganday bo'ldim . — Будто увидел своего брата Юльчи
-ganda edi	Сильное желание исполнения действия	Fotoapparat bo' lganda edi . — Был бы фотоаппарат!
-gisi keldi	Твердое намерение совершить действие	Shu paytda mening u bilan gaplash- gim keldi . — В это время мне захо- телось поговорить с ним.
-sa bo'ldi	Возможность совершения действия	Bugun sizning oldingizga borsam bo'- ladimi? — Можно ли сегодня мне пойти к вам?
-sa kerak	Предположение	Bu yerlar qorong'ida qo'rqinchli bo' lsa kerak . — Вероятно, в этих местах в темноте бывает страшно.

2-jadval

Fe'l nisbatlari (Залогии глагола)

Nisbat (залог)	O'zak negiz (основа)	Shakl	Misollar
Majhul (страдательный)	После конечного: гласного звука согласного Исключения: после последнего слога конечного согласного «л»	-I -il -n -in	sinalmoq — испытываться o'tkazilmoq — проводится hisoblanmoq — считается hal qilinmoq — решаться

Орттирма (попудительный)	После гласного звука глухого согласного. сонорных (м, н, р), если основа состоит из двух и более слов.	-t -tir -tir	arralatmoq – заставить пилить. o'qitmoq – заставить читать, обучать yortirmoq – заставить закрывать orttirmoq – заставить грузить rivojlantirmoq – развивать
Birgalik (взаимный)	Звонкого согласного и сонорных, если ос- нова односложная после гласного звука после согласного	-dir -sh -ish	oldirmoq – заставить взять yozdirmoq – заставить писать tugallashdi – закончили (вместе) yig'ishtirishdi – прибрали

3-jadval

Ko'makchi fe'llar (Вспомогательные глаголы)

Ko'makchi fe'llar	Yetakchi fe'lining shakli	Ma'nosi	Misollar
boshlamoq	-a, y	Начало действия	yigira boshladi (начал прясть)
olmoq	-a, y	Означает «мочь»	сиқа олди (может сжать)
olmoq	-b, ib	действия для себя	майдалаб олади (размельчить для себя)
qolmoq	-(i)l+ib -b, ib -a, -y -a, -y	стояние внезапность согласие быстроту выполнения	osilib qoldi (повие) o'chib qoldi (погас) purkay qol (ладно, опрыскивай) qani pisha qolsa (быстрее созрел бы)
bermoq	-b, -ib -a, -y -a, -y	действие для другого отсутствие препятствия продолжительность начатого действия	hisoblab berdi (подсчитал) puflay berdi (дул, продолжал дууть) pardozlay berdi (pardozlayverdi) (от- делывал, продолжал отделку)

o'tirmoq, turmoq, yotmoq, yurmoq	-b, -ib -b, -ib	длительность, продолжительность: настоящее время отказ от выполнения, не утруждать себя	o'qib o'tiribdi (читает) ishlab turibdi (работает) parmalab yotibdi (сверлит) gapirib yuribdi (говорить) yozib o'tirmadi (не стал писать) kutib o'tirmadi (не стал ждать)
bo'lmoq	-b, -ib	завершение действия	ortib bo'ldi – погрузил
ketmoq	-a, -u	быстрое начало	bo'uyay ketdi (быстро начал красить)
qo'yumoq, yubormoq	-b, -ib -b, -ib	внезапность завершенность быстрота совершения действия беспрепятственность	yurib ketdi (зашагал) tushirib qo'ydi (спустил) qo'yib yubordi, qo'y- vordi (отпустил)

4-jadval

Harakat nomi (Имя действия)

Affiksi	Rus tilida ifodalanishi	Misollar
-ish -sh	1) отглагольное имя существительное	kirish – вход o'lchash – измерение
-maslik	2) неопределенная форма глагола	bajarmaslik – невыполнение
-uv -v	1) имя существительное: 2) имя прилагательное	tanishuv – знакомство saylov – выбор yozuv – пропись

5-jadval

Harakat nomining turlanishi, ko'makchilar bilan qo'llanilishi (склонение имени действия, употребление его с послелогоми)

So'roq so'zlar	Kelishik qo'- shimchasi yoki qo'shimcha	Misollar
nima? (nima qilish?) nimaning? (nima qilishning?)	----- -ning	tuzish – создание tuzishning – создания

nimani? (nima qilishning?)	-ni	tuzishni – создание: создать
Nimaga? (nima qilishga?)	-ga	tuzishga – в создание
Nimada? (nima qilishda?)	-da	tuzishda – в создании
nimadan ? (nima qilishdan?)	-dan	tuzishdan – от создания
nima bilan? (nima qilish bilan?)	bilan	tuzish bilan – с создани- ем
Nima haqida? (nima qilish haqida?)	haqida	tuzish haqida – о соз- дании
nima uchun? (nima qilish uchun?)	uchun	tuzish uchun – для создания

6-jadval

Sifatdosh (Причастие)

Qo'shimchasi	Ma'nosi	Misollar
-gan (-kan, -qan)	прошедшее время	sozlamog – sozlagan usta – на- страивавший мастер – мастер, который настраивал
-ayotgan -yotgan	настоящее время	ag'darayotgan ishchi – сваливаю- щий рабочий – рабочий, который сваливает mudrayotgan qariya – дремлю- щий старик – старик, который дремлет
-adigan, -ydigan	настояще-будущее время	ip yigiradigan dastgoh – при- дильный станок purkaydigan asbob – опрыс- кивающий прибор – прибор, котором опрыскивают

7-jadval

Sifatdoshning turlanishi, ko'makchilar bilan qo'llanilishi (Склонение причастия и употребление его с послелогоми)

So'roq so'zlar	Sifatdoshlarning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishi
Kim(lar)? kimning	sarflaganlar – тратившие – те, которые тратили tejanganning – экономившего – того, который экономил.
kimni?	takrorlanganni – повторявшего – того, который повторял.

kimga? kimda?	charchaganga – уставшему – у того, который устал tekislanganda – уравнившего – у того, который равнял
kimdan?	qabul qilgandan – у (от) принявшего – у того, который принял
kimlar bilan?	g'alaba qilganlar bilan – с победившими – с тем кто победил
kimlar haqida?	qo'shimcha qilganlar haqida – о дополнивших – о тех, кто дополнил
kimlar uchun?	himoya qilganlar uchun – для защитивших – для тех, кто защитил

8-jadval

Ravishdosh (Деепричастие)

Shakli	Vazifasi	Misollar
-b, -ib -may, -masdan (turib)	1) обстоятельство образа действия 2) однородное сказуемое	kulib gapiryapti o'ylab yozyapti bilmay gapiryapti kulmasdan turibdi Bir ishni bitirmasdan turib, ikkinchisini boshlamo
-gani -gach	обстоятельство цели 1) обстоятельство времени 2) предаточное предложение времени	...men seni sog'inib, ko'rgani keldim. Chizmani ko'zdan kechirgach, bir narsani egovlay boshladi.

9-jadval

O'zbek tilida egalik qo'shimchalari

Kishilik olmoshlari	Egalik qo'shimchalari		Rus tilida ifodalanishi
	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	
mening, men	-im	-m	мой (моя, мое): свой: у меня: мне: я
sening, sen	-ing	-ng	твой (твоя, твое): свой, у тебя: себя: ты
uning, u	-i	-si	его (ее): свой: у него (нее) ему (ей) он (она)
bizning, biz	-imsiz	-miz	наш (наша, наше): свой: у нас, нам: мы
sizning, siz	-ingiz	-ngiz	ваш (ваша, ваше): свой: у вас, вам: вы
ularning, ular	-i	-si	их: свой: у них: им, они

Kesimi shart maylida bo'lgan ergash gaplar
(Придаточные предложения со сказуемым в условном наклонении)

Ergash gap turi (вид придаточного предложения)	Ergash gapning boshqa gapga bog'lanishi	Misollar
Shart (условия) O'rin (места)	(agar) ~~~~~ sa, _____ sa, qayerda? shu yerda, u yerda qayerga? shu yerga qayerdan? shu yerdan	U shoxida yursa, sen bargida yur. Qayerda kurash bo'lmasa, u yerda o'sish ham bo'lmaydi.
Payt (времени)	~~~ sa, _____ qachon? o'shanda(shunda)	Sen qachon dam olsang, men ham o'shanda dam olaman.
Aniqlovchi (определятельные)	~~~~~ sa, _____ qanday? shunday	Usta qanday tushuntirgan bo'lsa, men ham shunday ish boshladim.
To'ldiruvchi (дополнительные)	~~~~~ sa, _____ kimga? o'shanga kimni? o'shani nimani? shuni	Siz kimga yordam bersangiz, men ham shunga yordam beraman.
O'lchov-daraja (меры и степени)	~~~~~ sa, _____ qancha? shuncha	Bog' qancha ko'p bo'lsa, hayot shuncha go'zal bo'ladi.
To'siqsiz (уступительные)	~~~~~ sa ham, _____ ~~~~~ sa da,	Vaqt oz bo'lsa ham, u ishini to'xtatmas edi.

**Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish
(Преобразование прямой речи в косвенную)**

Ko'chirma gap ke-simining fe'l bilan ifodalanishi	Yasalishi	Misollar
форма прошедшего времени	заменяется причастием прошедшего времени	– O'zim yetishtirdim, – dedi u. U o'zi yetishtir gan(lig) ini aytdi.
настоящего времени	причастием настоящего времени.	– Boshim og'riyapti, – dedi bemor. – Bemor boshi og'riyot gan(lig) ini aytdi.
настояще-будущего времени	именем действия	– Qo'yni boqqan biladi, – dedi cho'pon. – Cho'pon qo'yni boqqan bil ish(lig) ini aytdi.
повелительного наклонения	именем действия в сочетании со словом kerak	– Terilarni olib chiq, – dedi u. – U terilarni olib chiq ish kerak ligini aytdi

So'z yasash (Словообразование)

Qo'shimchalar	Ma'nosi	Misollar
-chi	Имя действующего лица	tarix chi – историк bo'yoq chi – маляр
-li -siz, -lik	наличие чего-либо, обладание чем-либо отсутствие чего-либо название качества, свойства	kuch li – сильный koptok li – с мячом koptok siz – без мяча kuch siz – бессильный yangil lik – новость yosh lik – молодость baland lik – высота
-chilik	сфера деятельности	gul chilik – цветоводство qo'y chilik – овцеводство
-la	действие по значению основы	tuz lamoq – солить yangil lamoq – обновлять
-lan	человек испытывает действие на себе, состояние	shod lanmoq – радоваться shubhal lanmoq – сомневаться
-lash	действие совершается само по себе	chuqur lashmoq – углубляться jadall lashmoq – ускоряться salqin lashmoq – становиться прохладным
-iy -viy	отношение к понятию, месту или времени	asos iy – основной oilav iy – семейный zamonav iy – современный

L u g' a t

A

abjir	ловкий, расторопный
adashmoq	заблудиться, ошибаться
adovat	вражда, злоба
ahillik	единство
ajablanarli	удивительный
ajralmas	неотделимый
aksincha	наоборот, напротив
aksirmoq	чихать
almashish	обмен
aloqador	связанный
amaliy	практический
andisha	благоразумие; совестливость
anjom	оборудование; утварь
an'ana	традиция
arqon	верёвка; канат
asabiy	нервный, раздражительный
asoslamoq	обосновывать
atayin	нарочно; специально
atrof	окрестность, вокруг
avliyo	святой, чудотворец
avvalo	сначала, во-первых
ayblamoq	обвинять, находить недостатки
ayblovchi	обвинитель
ayirmoq	разделять; различать; разлучать
aylana	круг, окружность
aynan	точь- в точь, как раз
ayrim	отдельный; особый
ayvon	веранда; навес
ag'darmoq	свергать; переворачивать

B

bahavo	чистый, свежий (о воздухе)
bahona	повод, причина
balog'at	совершеннолетие, зрелость
bajonidil	с удовольствием
barakali	обильный; продуктивный

barqaror	устойчивый; прочный
bashorat	радостная весть; ~ qilmoq предвидеть
bayon	изложение
behuda	напрасный; ерунда
bekorga	без оснований, напрасно
betaraf	нейтральный, воздержавшийся
birikmoq	объединяться
birpas	одно мгновение
birvarakay	сразу, за один раз
borliq	существование; бытьё
bosim	давление
bog'liq	зависящий; связанный
buramoq	вертеть; завинчивать; заводить
butunlay	совсем, полностью
buyurmoq	приказывать; назначать; заказывать
bo'hton	клевета, поклёп
bo'ylab	вдоль, по

D

dabdabali	пышный; высокопарный
dadil	смелый, храбрый
dalil	довод, аргумент; улика
dalolat	свидетельство
darhol	немедленно; сразу
darmon	сила, мочь
daromad	доход, приход
dastlabki	первичный
da'vat	зов, призыв
da'vo	иск, претензия
dodlamoq	кричать; жаловаться
doimiy	постоянный, регулярный
donalab	штучно
dog'	пятно; печаль; ~ qilmoq перекаливать
dumaloq	круглый
durang	ничья
duch kelmoq	повстречаться
do'nglik	выпуклое место; бугорок
do'q qilmoq	угрожать
do'stona	дружественный

E

egallamoq	овладевать; занимать
egizak	двойня; сходный
egiluvchan	гибкий, эластичный

egmoq	гнуть; склонять
ehtiros	страсть
ehtiyotkor	осторожный; расчётливый
ehson	благодееяние; ~ qilmoq делать добро
ekin	посев
endilikda	теперь, ныне
ensiz	узкий
epchil	ловкий, умелый
ergashish	подчинение; следовать
erkalik	избалованность; ~ qilmoq баловаться
eskicha	по-старому; старомодно
eslatma	примечание
eshittirish	передача, трансляция
e'tiqod	убеждение
e'tirof	признание; ~ qilmoq признавать

F

faol	активный
faqat	только, лишь
farmon	указ
favqulodda	чрезвычайный; необычно
faxr	гордость; почёт
faxriy	почётный
fayzli	прелестный, благодатный
fazo	пространство
fidoyi	преданный
fikrlamoq	мыслить, размышлять
fitna	заговор; интрига
folbin	гадалка, ворожея
foydali	полезный; прибыльный
fosh qilmoq	разоблачать; раскрывать
fursat	время, момент

G

ganch ганч	(вид алебаstra)
gapdon	красноречивый
garchi	хотя, несмотря
gavdali	рослый, крупный
gavjum	людный, густонаселённый
gazlama	ткань; мануфактурный
gilam	ковёр
giyoh	растение; трава

goh(o)	иногда, по временам
guldasta	букет цветов
gumbaz	купол; свод
gumburlamoq	грохотать, греметь
guruh	группа; кучка; шайка
gurung	беседа, ~ qilmoq беседовать
guvoh	свидетель; очевидец
guvohnoma	свидетельство; удостоверение
go'l	наивный, протак
go'yo(ki)	якобы, будто; словно

Н

hadya	дар, подарок
haftalik	недельный, еженедельный
hajm	объём, ёмкость
hali	ещё, пока что; только сейчас; то (разд.союз)
halovat	покой, спокойство; удовольствие
halol	четный; дозволенный
halqa	кольцо, круг
hamjihat	совместно, дружно
hamohang	гармоничный, созвучный
haqgo'y	правдивый
har bir	каждый
harakatchan	подвижный; энергичный
havas	желание; интерес, увлечение
haybatli	грандиозный; грозный, ужасный
haydamoq	гнать, выгонять; водить, управлять; пахать
haykal	статуя, памятник, монумент
hayo	стыд, ~ qilmoq стесняться
hayotiy	жизненный
hayrat	удивление; недоумение
hazm	переваривание, ~ qilmoq переваривать
hashamatli	пышный, роскошный
hashorot	насекомое, букашка
hech	ни; никак, ничуть; совсем
hech nima	ничто
hech qanday	никакой, никак
hidlamoq	нюхать
hikmat	мудрость; сокровенное значение
his etmoq	чувствовать, ощущать
hisoblamoq	считать; рассчитывать

hissa	доля, часть; вклад
hordiq	усталость, утомление
hosil	урожай, qilmoq получать, приобретать
hozircha	пока, пока что
hujjat	документ
hurriyat	свобода, воля
husn	красота, изящество
hushyor	бдительный; трезвый
ho'l	мокрый, влажный

I

ibtidoiy	начальный, первобытный;
idora	примитивный, простой контора, управление, qilmoq управлять
ifoda etmoq	выражать
ijobiy	положительный
ijrochi	исполнитель
ijtimoiy	общественный, социальный
ikkiyuzlamalik	лицемерие, двуличие
ilgak	крючок; вешалка; петля
ilimoq	отеплеть, нагреваться
iliq	тёплый
ilmiy	научный
ilmli	образованный, ученый
imloviy	орфографический
imorat	здание, постройка; дом
imtiyoz	привилегия, льгота
imzo qo'yumoq	ставить подпись, расписываться
indamay	молча, безропотно
ingichka	тонкий
injiq	капризный; шепетильный
inkor	отрицание, qilmoq отрицать
insoniyat	человечество
intizom	дисциплина
inshoot	сооружение, строение
ipak	шёлк, tolasi шёлковое волокно
iqror bo'lmoq	признаваться, сознаваться
iqtisodiy	экономический
irodali	волевой
is	запах
isbot	доказательство, qilmoq подтверждать
isimoq	нагреваться; теплеть

isitma	жар, температура; лихорадка
isloh	реформа, ~ qilmoq реформировать
isrof	расточительство; растрата, ~ qilmoq расточать
istak	желание; воля
iste'mol	употребление, потребление
itoatli	послушный, покорный
ixtiyoriy	добровольный; произвольный
ixtiro	изобретение, ~ qilmoq изобретать
ixcham	миниатюрный; портативный
iz	след, отпечаток; линия, рельсы
izlamoq	искать, разыскивать
izohlamoq	разъяснять, толковать
izzat	почесть, почтение
izg'irin	холодный ветер, метель
izchil	последовательный
ishonch	доверие; уверенность
ishora	указание; знак, намёк; признак
ishqiboz	любитель; болельщик
ishtirokchi	участник
ishtiyoc	сильное желание, увлечение
ichki	внутренний

Ж

jadal	быстрый, ускоренный
jahl	гнев, злость
jamiyat	общество; публика
jamg'arma	накопление; фонд
janjal	скандал, конфликт, спор
jarayon	процесс, ход
jarima	штраф, взыскание
javobgar	ответственный; ответчик
javon	шкаф
jazo	наказание, возмездие
jiddiy	серьёзный, важный; солидный
jihoz	оборудование; утварь
jild	том; футляр для книги; чехол
jimlik	тишина, спокойствие
jinoiy	преступный, уголовный
jipslamoq	плотно прикладывать; сплавивать
jismoniy	физический; телесный
jonli	живой; одушевлённый
josus	шпион

joylamoq	помещать; устраивать
juft	пара
jo'mrak	кран; носик
jo'nash	отправление; уход
jo'rttaga	нарочно; умышленно

К

kabi	подобно, как, вроде
kafil	поручитель, ~ bo' lmoq гарантировать
kaltaklamoq	бить, колотить
kamaymoq	уменьшаться, убавляться
kamgap	неразговорчивый, молчаливый
karaxt	нечувствительный; ошеломлённый
karvon	караван, обоз
kasallik	болезнь, заболевание
kasb	профессия; ремесло
katak	клетка; клетчатый
kayfiyat	самочувствие; состояние
kelasi	будущий
kengash	совет; совещание
kerakli	нужный, необходимый
keskin	острый; решительный, ожесточённый
kechikmoq	опаздывать; задерживаться
kechirmoq	простить; переносить
kinoya	метафора; намёк; ирония
kovlamoq	копать, ковырять, рыть
koshki	если бы, хотя бы
kuramoq	выгребать, сгребать
kutmoq	ждать; встречать
kuchaymoq	усиливаться, крепнуть
kuzatmoq	проводить; наблюдать
ko'kat	зелень; растение
ko'mak	помощь, поддержка
ko'paymoq	умножаться, расти, плодиться
ko'rik	смотреть, осмотр, показ
ko'chirma	выписка, копия

L

latifa	анекдот, смешной рассказ
layoqat	способность; пригодность
libos	одежда, платье
loqayd	равнодушно, безразлично
loyiha	проект
loyiq	достойный, подходящий

М

mablag‘	денежные средства
mabodo	если, в случае
madaniy	культурный, цивилизованный
mahalliy	местный
maishiy	жизненный; бытовой
majburiy	принудительный; обязательный
majburiyat	обязательство; повинность
malaka	навык; квалификация
maroqli	увлекательный, занимательный
maslak	убеждение; идея
mavsum	сезон, период
mavhum	абстрактный, отвлечённый
maydon	площадь; арена; поле
mashq	упражнение, тренировка
ma‘naviy	духовный; моральный
mag‘lub	побеждённый
mensimaslik	пренебрежение, игнорирование
me‘moriy	зодческий
miqyos	масштаб, размер
mish-mish	слухи, молва
mohir	искусный
moliyaviy	финансовый
mos	соответственный, подходящий
muhit	среда; условия
mulk	имущество; владение
mo‘jiza	чудо

N

nafis	тонкий; изящный
namunali	примерный; образцовый
naqshli	украшенный узорами
navbat	очередь
nazariy	теоретический
nazorat	надзор; наблюдение
negadir	почему-то
nihoyatda	весьма; очень; чересчур
nisbatan	сравнительно, относительно
noaniq	неточный; неясный; неопределённый
noiloj	невольно, поневоле
noo‘rin	неуместно
nuqul	целиком, сплошь; только,

О

odatda	обычно, как правило
ogohlantirmoq	предупреждать, осведомлять
ohang	гармония, мелодия; интонация
oid	относящийся
oldingi	передний; прежний; передовой
olis	дальний, далёкий
ommaviy	массовый
omonatchi	вкладчик
oqibat	последствие, конец, исход
oqlovchi	защитник; болельщик
or	стыд, достоинство; совесть
orzu	мечта, желание
ortmoq	увеличиваться; превышать
orqali	через, посредством; по
oson	лёгкий, нетрудный
ovunmoq	утешаться, успокаиваться
oydinlashtirmoq	освещать, выяснять
oz	мало, немного
oziq	пища; продукт
og'irlik	тяжесть; трудность; выдержанность
og'rimoq	болеть
ochiq открытый;	ясный; прямой

Р

panjara	ограда, решётка
pardoz	отделка; косметика
parhez	диета
parvoz	взлёт, полёт
parcha	кусок; клочок; отрывок; обломок
payqamoq	замечать; улавливать
pilla	кокон, коконы
pismiq	скрытный человек
poyga	скачка; пробег
pufflamoq	дуть, задувать
pushaymon	раскаяние, сожаление
po'stloq	кора

Q

qabul	приём; зачисление
qadimdan	издавна, с древних времён
qadimgi	древний, старинный
qalin	толстый; плотный

qamal	окружение, блокада
qaramay	несмотря на, вопреки
qaror	решение, постановление
qasamyod	~ qilmoq давать клятву
qatnov	хождение; движение
qavatli	этажный; слоистый
qaysar	упрямый
qayta	вновь, снова ; опять
qazilma	ископаемое
qisqacha	краткий; вкратце
qiyunamoq	мучить; затруднить
qiziqarli	интересный, забавный
qiziqmoq	интересоваться; соблазнять
qolip	форма; шаблон
qorishna	смесь; раствор
quvur	труба
quyidagi	следующий, нижеследующий
qo'rqinch	страх; ужас; опасность
qo'shin	войско, армия

R

rahmdil	милосердный, добрый
raqib	соперник; противник
raqqosa	танцовщица, балерина
rasmiy	официальный; формальный
rag'bat	склонность, желание
reja	план, порядок
rozilik	согласие, санкция
rostdan	действительно, всерьёз
ruxsatnoma	письменное разрешение, виза
ro'para	лицом к лицу

S

sabzavot	овоши; зелень
sahn	площадь
sakrash	прыжок
sanoat	промышленность, индустрия
sari	к, в, на ; как, по мере того
savdo	торговля
saviya	уровень
savodli	грамотный
sayilgoh	место, где происходят народные гулянья

saylamoq	выбирать, избирать
sayohat	путешествие, поездка
sergak	бдительный, чуткий
sezilarli	ощутимый; заметный
sifatli	качественный
singari	как, точно, подобно
sira	совсем, никак, ничуть
siyosiy	политический
siyqa	гладкий; избитый
soya	тень; опека
soz	музыкальный инструмент; удобный
so‘nggi	последний, последующий
sog‘lom	здоровый; благополучный

T

taassurot	впечатление
tabib	лекарь
tadqiqot	исследование
taklifnoma	приглашение, пригласительный билет
talab	требование
taraf	сторона, направление
tarixiy	исторический
tasviriy	изобразительный; описательный
tasdiqlamoq	утверждаться; подтверждаться
tavsiyanoma	рекомендация
taxmin	предположение; догадка
tayyorlamoq	готовить, приготовить
tashvish	заботы, хлопоты ta`kidlamoq
	констатирование; подтверждение
tejamoq	экономить, беречь
tekshirish	обследование, проверка; ревизия
tergovchi	следователь
teskari	изнанка, обратная сторона
tevarak	окружность, окрестность
tibbiy	медицинский
tinmay	неустанно; непрерывно
tugatmoq	кончать, завершать
turlicha	по-разному, различно
tuzalmoq	выздоровливать, поправляться
tushuncha	понятие, представление
to‘ldirmoq	наполнять, пополнять
to‘ziq	растрёпанный; разбросанный
to‘g‘risi	правда; впрочем

U

ulamoc	соединять; связывать
umrbod	пожизненный, вечный
unutilmas	незабываемый
unvon	звание; титул
urf	обычай; нрав
ustun	столб
uyat	стыд, позор
uyqu	сон; спячка
uzatmoq	протягивать, подавать
uzluksiz	беспрерывный, непрерывный
uchrashmoq	встречать, встречаться

V

vahima	паника, смятение
vakil	представитель, уполномоченный
vakolatxona	представительство
vatanparvar	патриот
viqdonan	честно, по совести
vositachi	посредник
vujud	существо, тело

X

xabar	весть, известие
xafalik	огорчение; обида
xarajat	расход, затрата
xavfsiz	безопасный, неопасный
xazina	казна; сокровищница; клад
xodim	сотрудник, работник
xotira	память
xususiy	частный
xususiyat	особенность; специфика
xo'jalik	хозяйство

Y

yagona	единый; единственный
yalpi	общий, сплошной
yangidan	снова, заново, вновь
yangilik	новость; новинка
yaqindan	недавно

yarasha	соответственно, сообразно
yasamoq	делать; мастерить
yashash	житьё, существование
yetkazmoq	доставлять; наносить;
yerto'la	землянка; подвал
yechmoq	развязывать; решать; расстёгивать
yirik	крупный
yo'lak	проход; коридор
yo'nalish	направление
yo'talmoq	кашлять
yubormoq	посылать, отправлять
yugurish	бег; беготня
yuksalmoq	возвышаться, подниматься
yuqori	верх; высший; старший
yutqizmoq	проигрывать, терпеть поражение

Z

zamonaviy	современный
zararli	вредный, убыточный
zavqlanmoq	восхищаться, наслаждаться
zimdan	тайно, исподтишка
zirak	серёжка, серьги
ziyoli	интеллигент, интеллигентный
zo'raymoq	усиливаться; ухудшаться

O'

o'lchagich	измеритель
o'lchamoq	мерить, примерять
o'rmonchilik	лесоводство
o'rnashmoq	помещаться; устраиваться
o'smir	подросток, отрок
o'xshamoq	уподобляться; похоже, кажется
o'ymakor	гравёр, гравировщик
o'zaro	между собой, взаимно
o'zboshimcha	самовольный; непослушный
o'zgarish	перемена, изменение
o'shanday	так же; такой

G'

g'alaba	победа, успех
g'alati	необыкновенный; странный
g'altak	катушка; клубок

g'arbiy	западный
g'avg'o	скандал; шум
g'ash	раздражение
g'ilof	чехол; футляр
g'oyaviy	идейный
g'uncha	бутон
g'o'za	хлопчатник

Sh

shamollamoq	простудиться
sharafi	почётный, славный
sharhlamoq	объяснять; комментировать
sharmanda	опозоренный; бесстыдный
shartli	условный
shavqatsiz	беспощадный, жестокий
shayton	дьавол; хитрец
sherik	партнёр; соучастник; напарник
shishmoq	опухать, раздуваться
shov-shuv	шум, гам
shoyi	шёлк, шёлковый
shubhasiz	несомненный, бесспорно
shudring	роса
shunchalik	настолько; пустяковый
sho'r	солёный

Ch

chala	незаконченный, незавершённый
changimoq	пылиться, запылиться
chanqamoq	жаждать, хотеть пить
chaqiriq	вызов, призыв; созыв
chet	край; предел; иностранный
chidamli	выносливый; прочный
chinakam	настоящий, искренний
chiqim	расход; издержки
chizma	чертёж
cholg'u	инструмент
chora	мероприятие; мера; средство
chuqur	яма; глубокий
cho'milmoq	купаться
cho'chitmoq	пугать; заставляя вздрагивать

MUNDARIJA

I.	Tanishuv va tarjimai hol	3
II.	Mening qiziqishlarim va mashg'ulotlarim	8
III.	Sevimli gazetam	12
IV.	Tavsif va ta'rif	17
V.	Men yoqtirgan narsalar	20
VI.	Taqdir ajoyibotlari va dunyo sirlari	23
VII.	Kasb (hunar)imni sharaflayman	28
VIII.	Bizning mahalla	31
IX.	Jamoat transporti va manzil	35
X.	Oilam — tayanchim va faxrim	40
XI.	O'zbek oshxonasida	44
XII.	Maishiy xizmat	47
XIII.	Savdo madaniyati	50
XIV.	Sharq bozori ne'matlari	54
XV.	Sog'lik — tuman boylik	58
XVI.	Dam olish va ta'til	63
XVII.	Milliy an'analar va udumlar	66
XVIII.	Tarixni o'rganamiz	72
XIX.	Milliy bayramlar	75
XX.	O'zbekiston — Vatanim manim!	80
XXI.	Madaniyatimiz fidoyilari	86
XXII.	Insondan xotira qoladi	90
XXIII.	Xalqimizning asl farzandlari	98
	Ilova	105
	Qo'shimcha foydalanish uchun grammatik jadvallar	138

R 27 **Rafiyev Abduroziq. O'zbek tili.** Kasb-hunar kollejarining rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2006. — 160 b.

BBK 81.2O'zb ya722

ABDUROZIQ RAFIYEV,
ROZA NIYOZMETOVA,
FURQAT DULABOV

O'ZBEK TILI

*Kasb-hunar kollejarining rus guruhlari uchun
o'quv qo'llanma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2006

Muharrir *G. Nasriddinova*
Rassom *Sh. Qahhorov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *M. Ibrohimova*

2006-yil 7-dekabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 10,0.
Nashr tabog'i 10,0. 2210 nusxa. Buyurtma № 35.
Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

"Yangiyul Poligraph Service" MChJ da bosildi.
702801, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44.